



QARSHI
DAVLAT
UNIVERSITETI

ONOMASTIKA

ОНОМАСТИКА
ONOMASTICS

2025

№2

ONOMASTIKA

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
XALQARO ELEKTRON ILMIY JURNAL

ОНОМАСТИКА

КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

ONOMASTICS

KARSHI STATE UNIVERSITETE
INTERNATIONAL ELECTRON SCIENTIFIC JOURNAL

2025/2

QARSHI – 2025



QARSHI
DAVLAT
UNIVERSITETI

**“ONOMASTIKA”
XALQARO ELEKTRON
ILMIY JURNALI**

Bosh muharrir:

Xo‘jamurod JABBOROV
f.f.d., professor (O‘zbekiston)

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Vazira NAFASOVA f.f.f.d.
(PhD), dotsent (O‘zbekiston)

Mas‘ul kotib:

Ra‘no SAYDULLAYEVA
f.f.f.d. (PhD), dotsent
(O‘zbekiston)

Xalqaro elektron ilmiy jurnal
2024-yil 31-yanvarda
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Adminstratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan № 215315 raqamli
guvohnoma bilan ro‘yxatga
olingan.

**MUROJAAT UCHUN
MANZIL:**

Pochta manzili: 180003,
Qarshi,

Ko‘chabog‘17.Qarshi davlat
universiteti, Filologiya fakulteti
binosi, 219-xona.

Telefon: , +998912205238;

TelegramID:

<https://t.me/QarDUonomastika>

Elektron pochta: e-mail:

xojamurod@list.ru

Veb-sayt:

<https://qarshidu.uz/uz>

TAHRIR HAY‘ATI:

Mail Binnat ASKEROV
Zaribbay DO‘SIMOV
Gulshat Raisovna GALIULLINA
Marina Vasilevna GOLOMIDOVA
Dilmurod HOMIDOV
Nishonboy HUSANOV
Suyun KARIMOV
Hikmet KORAŞ
Nelli Aleksandrovna KRASOVSKAYA
Lala Guseyn qizi KULIYEVA
Nizomiddin MAHMUDOV
Ibodulla MIRZAYEV
Sidiqjon MO‘MINOV
Firangiz Shaxmurovna PASHAYEVA
Abdulxay SOBIROV
Vasiliy SUPRUN
Nosirjon ULUQOV
Durdona XUDOYBERGANOVA
Odil BEGIMOV
Maysara DANIYEVA
Muyassar SAPARNIYOZOVA
Mo‘min TURDIBEKOV
Vazira Nafasova
Komil MARKAYEV
Bayramali KILICHEV
Sharifjon YOQUBOV
İbrahim ŞAHİN
Abdivohab ZAKIROV
Dilrabo ANDANIYOZOVA
Sabohat KENJAYEVA
Yulduz NE‘MATOVA
Feruz RAJABOV
Sherali TEMIROV
Nurbek GANIYEV
Nigora XOMIDOVA
Yulduz DJURAYEVA

f.f.d., professor (Ozarbayjon)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., professor (Rossiya)
f.f.d., professor (Rossiya)
f.f.d., professor (Tojikiston)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., professor (Turkiya)
f.f.d., professor (Rossiya)
f.f.d., professor (Азербайджан)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., professor (Turkiya)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., professor (Rossiya)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.f.d. (PhD), dotsent (Turkiya)
f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

ILMIY MASLAHAT KENGASHI:

Akmal SAIDOV
Qalandar ABDURAHMONOV
Dilmurod NABIYEV
Ilhom BEKPO‘LATOV
Elzara GAFIYATOVA
Gulbahor TOJIYEVA
Otabek SHUKUROV
Nilufar YO‘LDOSHEVA
Baxtiyor RIZAYEV
Roxila RUZMANOVA
Yashnar AVLOQULOV
Muyassar TILLAYEVA
Dildor SHODMONOVA
Dilshoda IBRAGIMOVA
Quvondiq OLLOYOROV
Nilufar MO‘MINOVA

y.f.d. akademik (O‘zbekiston)
i.f.d. akademik (O‘zbekiston)
i.f.d. professor (O‘zbekiston)
f.m.f.d. (O‘zbekiston)
f.f.d., professor (Rossiya)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

MUNDARIJA

ONOMASTIKANING DOLZARB MUAMMOLARI

Sobirov Abdulhay Shukurovich. Til imperializmi va o‘zbek tili 8

TARIXIY VA ZAMONAVIY ONOMASTIKA

Ergashev Sardor Kosimovich. Atoqli otlarda transpozitsiya hodisasining yuz berishi 17

Ermatov Ixtiyor Rizoqulovich. Terminologiya tizimida ekvonimlar 22

Homidova Nigora Urinovna. O‘zbek xalq o‘yinlari nomlarining onomastik xususiyatlari va ularning leksik-semantik tahlili 31

Azamatova Odinoxon Obidovna. Artionimlarda lingvomadaniy kodlar 41

ANTROPONIMIKA

Djurayeva Yulduz G‘aybullayevna. O‘zbek tilidagi antroponimlarning struktur-grammatik xususiyatlari 49

O‘ngboyev Ramazon Mahmatali o‘g‘li. “Yusufbek” dostonida qo‘llangan antroponimlarning lingvokulturologik tahlili 58

TOPONIMIKA

Usmonova Sofiyaxon Alimovna. Dang‘ara tumanidagi ayrim toponimlari xususida 68

G‘aniyev Nurbek O‘ktamovich. Qiziltepa tumani oykonimlarining morfologik xususiyatlari: o‘z va o‘zlashma qatlamlar misolida 76



**МЕЖДУНАРОДНЫЙ
ЭЛЕКТРОННЫЙ НАУЧНЫЙ
ЖУРНАЛ
“ОНОМАСТИКА”**

Главный редактор:
Ходжамурод ДЖАББАРОВ
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:
Вазира НАФАСОВА д.ф.ф.н.
(PhD), доцент (Узбекистан)

Ответственный секретарь:
Раъно САЙДУЛЛАЕВА
д.ф.ф.н. (PhD), доцент
(Узбекистан)

Международный электронный
научный журнал
зарегистрирован 31 января
2024 года № 215315
Агентством информации и
массовых коммуникаций при
Администрации Президента
Республики Узбекистан.

КОНТАКТНЫЙ АДРЕС:
Почтовый адрес: 180003, г.
Карши,
Кучабог, 17. Каршинский
государственный университет,
Филологический факультет,
каб. 219.

Телефон: , +998912205238;
TelegramID:
<https://t.me/QarDUonomastika>
Электронная почта: e-mail:
hojamurod@list.ru
Veb-sayt:
<https://qarshidu.uz/uz>

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Маил Биннат АСКЕРОВ
Зариббай ДУСИМОВ
Гульшат Раисовна ГАЛИУЛЛИНА
Марина Васильевна ГОЛОМИДОВА
Дилмурад ХОМИДОВ
Нишонбой ХУСАНОВ
Суюн КАРИМОВ
Ҳикмет КОРАЎ
Нелли Александровна КРАСОВСКАЯ
Лала Гусейн кизи КУЛИЕВА
Низомиддин МАХМУДОВ
Ибодулло МИРЗАЕВ
Сидикжан МУМИНОВ
Фирангиз Шахмуровна ПАШАЕВА
Абдулхай СОБИРОВ
Василий Иванович СУПРУН
Носиржон УЛУКОВ
Дурдона ХУДОЙБЕРГАНОВА
Маралбек ЕРМУХАМЕТ
Одил БЕГИМОВ
Майсара ДАНИЕВА
Икром ИСЛОМОВ
Муяссар САПАРНИЗОВА
Мумин ТУРДИБЕКОВ
Vazira Nafasova
Комил МАРКАЕВ
Байрамали КИЛИЧЕВ
Шарифжан ЯКУБОВ
Ибрагим ШАХИН
Абдивохаб ЗАКИРОВ
Дилрабо АНДАНИЯЗОВА
Сабохат КЕНЖАЕВА
Юлдуз НЕМАТОВА
Феруз РАЖАБОВ
Шерали ТЕМИРОВ
Нурбек ГАНИЕВ
Нигора ХОМИДОВА
Юлдуз ДЖУРАЕВА

д.ф.н., профессор (Азербайджан)
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
д.ф.н., профессор (Россия)
д.ф.н., профессор (Россия)
д.ф.н., профессор (Таджикистан)
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
д.ф.н., профессор (Турция)
д.ф.н., профессор (Россия)
д.ф.н., профессор (Азербайджан)
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
д.ф.н., профессор (Турция)
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
д.ф.н., доцент (Казахстан)
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
д.ф.н., профессор (Узбекистан))
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Турция)
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

НАУЧНЫЙ СОВЕТ:

Акмал САИДОВ
Каландар АБДУРАХМАНОВ
Дилмурад НАБИЕВ
Бекпулатов ИЛХОМ
Эльзара ГАФИЯТОВА
Гулбахор ТОЖИЕВА
Отабек ШУКУРОВ
Нилуфар ЙЎЛДОШЕВА
Бахтиёр РИЗАЕВ
Рохила РУЗМАНОВА
Яшнар АВЛОКУЛОВ
Муяссар ТИЛЛАЕВА
Дилдор ШОДМОНОВА
Дилшода ИБРАГИМОВА
Кувандик ОЛЛОЁРОВ
Nilufar MO'MINOVA

д.ю.н., академик (Узбекистан)
д.э.н., академик (Узбекистан)
д.э.н. профессор (Узбекистан)
д.ф.м.н. (Узбекистан)
д.ф.н., профессор (Россия)
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

СОДЕРЖАНИЕ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ОНОМАСТИКИ

Собиров Абдулхай Шукурович. Языковой империализм и узбекский язык ... 8

ИСТОРИЧЕСКАЯ И СОВРЕМЕННАЯ ОНОМАСТИКА

Эргашев Сардор Косимович. Транспозиция в именах собственных 17

Эрматов Ихтиёр Ризокулович. Эквонимы в системе терминологии 22

Хомидова Нигора Уриновна. Ономастические особенности названий узбекских народных игр и их лексико-семантический анализ 31

Азаматова Одинахон Обидовна. Лингвокультурные коды в артионизмах 41

АНТРОПОНИМИКА

Джураева Юлдуз Гайбуллаевна. Структурно-грамматические особенности узбекских антропонимов 49

Унгбоев Рамазон Махмадали угли. Лингвокультурологический анализ антропонимов дастана «Юсуфбек» 58

ТОПОНИМИКА

Усмонова Софияхон Алимовна. О некоторых топонимах Дангаринского района 68

Ганиев Нурбек Уктамович. Морфологические особенности ойконимов Кизилтепинского района: на примере исконного и заимствованного пластов 76



**INTERNATIONAL
ELECTRON SCIENTIFIC
JOURNAL
“ONOMASTICS”**

Chief editor:
Khujamurod DJABBAROV
Doc. of philol. scien., prof.
(Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:
Vazira NAFASOVA PhD
(Uzbekistan)

Executive secretary:
Rano SAYDULLAYEVA PhD
(Uzbekistan)

The international electronic scientific journal was registered on January 31, 2024 No. 215315 by the Agency of Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan.

CONTACT ADDRESS:
Postal address: 180003, Karshi,
Kuchabog, 17. Karshi State
University,
Faculty of Philology, office.
219.
Phone: +998912205238;

TelegramID:
<https://t.me/QarDUonomastika>
Email: e-mail:
xojamurod@list.ru
Veb-sayt:
<https://qarshidu.uz/uz>

EDITORIAL TEAM:

Mail Binnat ASKEROV
Zaribbay DUSIMOV
Gulshat GALIULLINA
Marina GOLOMIDOVA
Dilmurod KHAMIDOV
Nishonboy HUSANOV
Suyun KARIMOV
Hikmet KORAŞ
Nizomiddin MAKHMUDOV
Ibodulla MIRZAEV
Sidikjon MUMINOV
Abdulkhai SOBIROV
Vasiliy Ivanovich SUPRUN
Nosirjon ULUKOV
Durdona
KHUDOYBERGANOVA
Maralbek ERMUKHAMET
Odil BEGIMOV
Maysara DANIEVA
Ikrom ISLOMOV
Muyassar SAPARNIYAZOVA
Mumin TURDIBEKOV
Vazira Nafasova
Komil MARKAEV
Bayramali KILICHEV
Sharifjon YOKUBOV
İbrahim ŞAHİN
Abdivohab ZAKIROV
Dilrabo ANDANIYAZOVA
Sabokhat KENJAYEVA
Yulduz NEMATOVA
Feruz RADJABOV
Sherali TEMIROV
Nurbek GANIYEV
Nigora XOMIDOVA
Yulduz DJURAYEVA

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)
Doc. of philol. scien., prof. (Tajikistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Türkiye)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Doc. of philol. scien., prof. (Kazakhstan)
Doc. of philol. scien., (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., assist. prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., assist. prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., assist. prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., assist. prof. (Uzbekistan)
PhD, assist. prof. (Uzbekistan)
Can. of philol. scien., assist. prof. (Uzbekistan)
Can. of philol. scien., assist. prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., assist. prof. (Uzbekistan)
PhD, assist. prof. (Türkiye)
Can. of philol. scien., assist. prof. (Uzbekistan)
PhD, assist. prof. (Uzbekistan)
PhD, assist. prof. (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)
PhD, assist. prof. (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)

SCIENCE COUNCIL:

Akmal SAIDOV
Kalandar ABDURAKHMANOV
Dilmurad NABIEV
Ilkhom BEKPULATOV
Elzara GAFIYATOVA
Gulbahor TOZHIEVA
Otabek SHUKUROV
Nilufar YULDASHEVA
Bakhtiyor RIZAEV
Rokhila RUZMANOVA
Yashnar AVLOKULOV
Muyassar TILLAEVA
Dildor SHODMONOVA
Dilshoda IBRAGIMOVA
Kuvandik OLLOYOROV

Doc. of Law, Academician (Uzbekistan)
Doc. of Economics, academician (Uzbekistan)
Doc. of Economics prof. (Uzbekistan)
Doc. of f-m. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., assist. prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., assist. prof. (Uzbekistan)
PhD, assist. prof. (Uzbekistan)
Cand. of philol. scien., assist. prof. (Uzbekistan)
Cand. of philol. scien., assist. prof. (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)
PhD, assist. prof. (Uzbekistan)

CONTENT

CURRENT PROBLEMS OF ONOMASTICS

Sobirov Abdulkhay Shukurovich. Linguistic imperialism and the uzbek language	8
---	---

HISTORICAL AND MODERN ONOMASTICS

Ergashev Sardor Kosimovich. The occurrence of the transposition phenomenon in honored nouns	17
Ermatov Ikhtiyor Rizokulovich. Equonyms in terminology	22
Nigora Urinovna Khomidova. Onomastic features of the names of uzbek folk games and their lexical-semantic analysis	31
Azamatova Odinakhon Obidovna. Linguocultural codes in artionisms	41

ANTHROPONOMICS

Djurayeva Yulduz G‘aybullayevna. Structural-grammatical features of uzbek anthroponyms	49
Ungboev Ramazon Makhmadali Ugli. Linguo-cultural analysis of anthroponyms in the dastan “Yusufbek”	58

TOPONYMICS

Sofiyakhon Alimovna Usmonova. On some toponyms of the Dangarinsky district	68
Ganiev Nurbek Uktamovich. Morphological features of oikonims of the Kizilteppe region: based on the example of the primordial and borrowed layers	76

ONOMASTIKANING DOLZARB MUAMMOLARI

TIL IMPERIALIZMI VA O‘ZBEK TILI

Sobirov Abdulhay Shukurovich

filologiya fanlari doktori, professor

Andijon davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada bugungi globallashuv jarayonlarining milliy tillarga ta’siri, buning pirovard natijasida dunyo tillarida sodir bo‘layotgan tub o‘zgarishlar haqida fikr-mulohazalar yuritildi. Jumladan, dunyo bo‘ylab tarqalayotgan axborotlarning sezilarli qismini tashkil qilayotgan ingliz tilining jahonda mavqeyi oshib borayotgani, uning dunyo hamjamiyatida tutgan o‘rni, ingliz tilining milliy tillarga, jumladan, o‘zbek tiliga, uning lug‘at tarkibiga ta’siri to‘g‘risida tegishli fikrlar bayon etildi.

Bilamizki, til masalasi bugungi globallashuv davrida, davlatlar va millatlarning qiziqishlari o‘zining avj nuqtasiga chiqqan pallada, yanada o‘tkirlashdi. Millatlarning bir-biriga yaqinlashuvi hamda ularning siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy jihatdan integratsiyalashuvi dunyoning lisoniy manzarasini batamom o‘zgartirib yubordi. Buning pirovard natijasida dunyodagi barcha tillar taraqqiyotida ikkita yo‘l paydo bo‘ldi:

1. Milliy qadriyatlarga asoslangan, ajdodlari tomonidan e’zozlab kelingan ona tilini saqlab qolish, uning sofliqi, kelajagi uchun murosasiz kurashish.
2. Kuchli tillar ta’siri ostida asta-sekinlik bilan ona tilini yo‘qotib borish, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida chet tiliga so‘zsiz o‘rin bo‘shatib berish.

Bundan o‘zbek tili ham chetda qolgani yo‘q. Biz o‘tgan yillar mobaynida o‘zbek tilining sofliqi, mavqei uchun kurashish kerakligi haqidagi gap-so‘zlarga asosiy diqqatni qaratib, chetdan asta-sekinlik bilan “sizib” kirib kelgan minglab xorijiy so‘zlarga, xususan, inglizcha leksik birliklarga bee’tibor qoldik. Buning natijasida lingvistikada “til imperializmi” degan tushuncha paydo bo‘ldi. Bunga yetarlicha diqqat qaratmaslik tilimizni halokat yoqasiga olib borishi mumkin. Buning oldini olish uchun nimalarga e’tibor qilishimiz lozim. Maqola mazmuni shunga yo‘naltirilgani bilan xarakterlanadi.

Kalit so‘zlar: davlat tili, neologizm, ingliz tili, til, til imperializmi, til siyosati, so‘z o‘zlashtirish.

ЯЗЫКОВОЙ ИМПЕРИАЛИЗМ И УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

Собиров Абдулхай Шукурович

доктор филологических наук, профессор
Андижанский государственный университет

Аннотация. В статье рассматривается влияние современных процессов глобализации на национальные языки и фундаментальные изменения, происходящие в мировых языках в результате этого. В частности, рассматривается повышение статуса английского языка в мире, составляющего значительную часть распространяемой по всему миру информации, его роль в мировом сообществе, влияние английского языка на национальные языки, в том числе на узбекский язык, и его словарный состав.

Мы знаем, что языковой вопрос ещё более обострился в современную эпоху глобализации, когда интересы государств и наций достигли своего пика. Сближение наций, их политическая, экономическая, духовная и образовательная интеграция полностью изменили языковой ландшафт мира. В результате наметились два пути развития всех языков мира:

1. Сохранение родного языка, основанного на национальных ценностях и почитаемого предками, и бескомпромиссная борьба за его чистоту и будущее. 2. Постепенная утрата родного языка под влиянием могущественных языков, безоговорочно уступающая место иностранным языкам во всех сферах общественной жизни.

Узбекский язык не является исключением. В последние годы мы сосредоточились на разговорах о необходимости борьбы за чистоту и статус узбекского языка, игнорируя тысячи иноязычных слов, постепенно «просачивающихся» из-за рубежа, в частности, английские лексические единицы. В результате в лингвистике появилось понятие «языкового империализма». Недостаточное внимание к этому может привести наш язык на грань уничтожения. На что следует обратить внимание, чтобы предотвратить это? Содержание статьи характеризуется её акцентом на этом.

Ключевые слова: государственный язык, неологизм, английский язык, язык, языковой империализм, языковая политика, усвоение слов.

LINGUISTIC IMPERIALISM AND THE UZBEK LANGUAGE

Sobirov Abdulkhay Shukurovich

Doctor of Philological Sciences, Professor
Andijan State University

Abstract. This article examines the impact of modern globalization processes on national languages and the fundamental changes occurring in world languages as a result. Specifically, it examines the rising status of English, which accounts for a significant portion of information disseminated worldwide, its role in the global community, and the influence of English on national languages, including Uzbek, and its vocabulary.

We know that the language issue has become even more acute in the modern era of globalization, when the interests of states and nations have reached their peak. The rapprochement of nations and their political, economic, spiritual, and educational integration have completely transformed the world's linguistic landscape. As a result, two paths for the development of all languages have emerged:

1. Preservation of the native language, based on national values and revered by ancestors, and an uncompromising struggle for its purity and future. 2. The gradual loss of the native language under the influence of powerful languages, unconditionally giving way to foreign languages in all spheres of public life.

The Uzbek language is no exception. In recent years, we've focused on the need to fight for the purity and status of the Uzbek language, ignoring the thousands of foreign words gradually "seeping" from abroad, particularly English lexical units. As a result, the concept of "linguistic imperialism" has emerged in linguistics. Insufficient attention to this could bring our language to the brink of extinction. What should we focus on to prevent this? This article is characterized by its emphasis on this.

Keywords: state language, neologism, English language, language, linguistic imperialism, language policy, word acquisition.

Asosiy qism. Bugun kishilik jamiyati o'z taraqqiyotining murakkab va ko'pqirrali bosqichiga qadam qo'ydi. Shunga mos ravishda dunyoning lisoniy manzarasi ham tubdan o'zgardi. Olamda sodir bo'layotgan voqealar shuni ko'rsatmoqdaki, ilm-fan, texnika sohalarida ilg'orlikni qo'lga kiritgan millatlarining tili boshqa tillarga nisbatan sekin-asta hukmron mavqega o'tib bormoqda.

“Har bir milliy til milliy ruhiyat qo'rg'oni, milliy o'ziga xoslik, jamiyat tafakkuri va ruhiyatining betakror in'ikosi sifatida” tobora millatlar rivojida muhim o'rin egallab bormoqda [1] Til birliklari eng kuchli, nishonga aniq borib tegadigan, natija ko'rsatadigan mafkura quroliga aylangan. Buni hayotning o'zi ko'rsatib turibdi.

Hozirgi globallashuv davrida til siyosati o'ta muhim va u milliy tillarning taraqqiyot yo'llarini tartibga solib turuvchi asosiy vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. U davlat tomonidan qo'yilgan talablarga mos kelishi, til amaliyoti, til mafkurasi hamda tilni boshqarish shakllarini qamrab olmog'i lozim [2].

Biroq, til siyosatini olib borish ko‘p tilli va ko‘p madaniyatli jamiyatlarda qiyin kechadi. Bunda barcha tillarda so‘zlovchilarining madaniy va moddiy talablarini qondirib borish talab etiladi [3].

Bundan o‘zbek jamiyati ham mustasno emas. Prof. F.Babadjanovning ta’kidlashicha: “Til faqat bir tomonlama yondashuv bilan rivojlanmaydi, ommalashmaydi, nufuzi va mavqeyi yuksalmaydi. Davlat va hukumatning tilga munosabati bilan birga xalq ommasining, jamoatchilikning tilga munosabati o‘zgarsagina, til jamiyatda o‘zining qonuniy mavqeyini egallay oladi [4].

Aytilganlar ona tilimiz ustida jiddiy bosh qotirishimizni talab etmoqda. Bir tomondan o‘zbek tilining mamlakatimiz va chet ellardagi nufuzini oshirish bo‘yicha shaxsan davlatimiz rahbari boshchiligida olamshumul ishlar amalga oshirilmoqda, uning huquqiy-me’yoriy asoslari mustahkamlanmoqda, nazariy va amaliy asoslari ishlab chiqilmoqda, tilimizga qonuniy ravishda yangi so‘zlar qabul qilinmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2019-yilning 20-oktabr kungi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5058, 2020-yilning 21-oktabr kungi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli farmonlari til siyosatida tub burilishlarga olib keldi va o‘zbek tilining taraqqiy etishi uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi.

Jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy o‘zgarishlar, boshqa millatlar va davlatlar bilan olib borilayotgan to‘g‘ridan to‘g‘ri munosabatlar natijasida o‘zbek tiliga behisob yangi so‘zlar o‘zlashmoqda. Bu so‘zlarning aksariyat qismi ingliz tili hisobiga to‘g‘ri kelmoqda. Buning obyektiv sabablari bor. Internet ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab tarqalayotgan axborotlarning 80 foizi ingliz tili chekiga tushmoqda. “World Wide Web Foundation” vakili Xuan Ortiz Freylarning ta’kidlashicha, dunyo aholisining 5 foizi ingliz tilida gaplashadi, biroq internetdagi barcha kontentning sal kam 50 foizi shu til orqali tarqaladi.

Ingliz tili “madaniy ommalashuv”ga ulkan hissa qo‘shmoqda, Facebook va Googledan foydalanuvchilar soni kundan kunga oshib bormoqda [5].

Bu faktga ikki xil yondashish mumkin. Ingliz tili bizga yangi ma’lumotlarni taqdim etmoqda, dunyoqarashimiz o‘zgarmiqda, u orqali jahonga chiqyapmiz, ilg‘or tajribalarni o‘rganmoqdamiz. O‘zbek tili *monitor*, *skaner*, *reyting*, *oflayn*, *onlayn*, *xaker*, *chat*, *charter*, *plastik karta*, *bankomat*, *display*, *brazuer*, *lokatsiya*, *kemping* va hokazo so‘zlar hisobiga boyimoqda. Bu yaxshi (!)

Dunyoda sof til yo‘q va bo‘lmaydi ham, ammo hamma narsaning me’yori bor. Til siyosatida o‘ylamay bosilgan qadam millat fojeasiga olib kelishi mumkin. Millatdoshlarimizning lisoniy savodxonlik masalasida oqsoqligi, Internet sahifalarida o‘zbekcha milliy kontentlar miqdorining yetarli emasligi o‘zbek tiliga tartibsiz ravishda so‘zlar kirib kelish oqimini tezlashtiridi.

Har kuni qulog‘imiz ostida jaranglayotgan “o key”, “chao”, “ayva”, “hello” kabi nutqiy etiketlar, ko‘chalarimizda to‘lib-toshib yotgan “Elita”, “Plaza”, “Grand”, “Golden chicken”, “Hotel”, “Nil oil”, “Lag‘mon hause”, “Kabob hause”, “Dudek”, “Panino”, “Diet kafe”, “Zavodskaya”, “Taco Food”, “Norin hause”, “Rakatskiy dvorik”, “Art Rakat”, “Grant Osiyo”, “Hotel Papillon” nomlar tarkibidagi inglizcha so‘zlar tilimizni kambag‘allashtirishga, siyqallashtirishga xizmat qilayotganini bilamizmi?! Buning ostida siz bilan bizning yetti uxlab tushimizga kirmagan til siyosati yotibdi.

Globallashuv jarayoni jamiyatning barcha sohalarida ingliz tilining aloqa vositasi sifatidagi mavqeini sezilarli darajada mustahkamladi. Bu jarayon, ayniqsa, ilm-fan, texnika sohalarida sezilarli tarzda kechmoqda. Ingliz tilining fan sohalaridagi global ustunligi unda so‘zlovchilar uchun sezilarli afzalliklarni keltirib chiqarmoqda va jamiyatdagi tengsizlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Hatto ayrim mutaxassilar ingliz tilining boshqa tillarga ta‘sirini “lingvistik genotsid”, “lingvistik killerlik” atamaları bilan yuritmoqda. Natijada, insoniyat oldida voqelikni anglashning milliy o‘ziga xos usullarini yo‘qotish xavfi paydo bo‘ldi [6].

Ma‘lumotlar oqimi xuddi sunamiga o‘xshaydi: kuchli, keng ko‘lamli, muntazam. Buning obyektiv sabablari bor. Statistik ma‘lumotlarga e‘tibor beradigan bo‘lsak, so‘nggi yillarda ingliz tilidagi saytlardan foydalanuvchilarning soni 1 195 919 154 nafarni (25,2 foiz), xitoy tilida 863 239 794 nafarni (19,3 foiz), ispan tilida 344 448 932 nafarni (7,9 foiz) tashkil qilgan. Rus tilida 109 552 842 nafar (2,5 foiz) foydalanuvchi bo‘lgan.

Tadqiqotchi Devid Graddolning hosob-kitobiga ko‘ra hozirda ingliz tilida 750 million atrofida saytlar mavjud bo‘lib, ular umumiy miqdorning 54,7 %ni tashkil etadi. Ikkinchi o‘rinda turgan rus tilidagi saytlar miqdori 6 %ga teng. Saytlarning 5,6 % nemis, 4,8 % ispan, 4,5 % fransuz, 4,4 % xitoy, 4,2 % yapon tillariga tegishli. O‘zbekiston bu boradi 46-pog‘onani band etib turibdi [7].

Bu ma‘lumotlar bizni nafaqat o‘ylantirishi, balki ogohlantirishi kerak (!). Chunki, keyingi yillarda lingvistik sohasida “til yoki lingvistik imperializm” (“linguistic imperialism”) degan tushuncha paydo bo‘ldi. Bu – hukmron tilning zaif tilga maqsadli holda yo‘naltiriladigan kuchli ta‘siri demakdir. Ingliz tilining kengayishi odamlarning o‘z tillari haqidagi xavotirlarini kuchaytiradi, chunki bu tillarlarda haddan tashqari ko‘p inglizcha so‘zlar o‘zlashadi [8].

Ingliz tilida so‘zlashmaydigan barcha xalqlar, turli darajada, o‘z ona tillarini saqlab qolish uchun choralar ko‘rishni boshlamoqdalar.

Mazkur atama ustida tadqiqotlar olib borgan Robert Filipsonning fikricha, “lingvistik imperializm” dominant tilning boshqalariga nisbatan mutlaq ustun turishi, uni o‘rganuvchilar, afzal biluvchilar uchun alohida imkoniyatlar berilishi, bu tilni

o'rgangan shaxslarga mo'ljallangan istiqbolli o'quv dasturlari mavjud bo'lishi kabi belgilarga ega [9].

Natijalar va muhokama. Yuqoridagi jarayon natijasida xalqimiz bugun bir qator muammolarga duch kelmoqda. Xohlaymizmi, yo'qmi o'zbek tiliga dunyo tillaridan, asosan, ingliz tilidan son-sanoqsiz atamalar, terminlar o'zlashmoqda. Bunga *bakalavr, magistr, reyting, plastik kartochka, bankomat, shou-biznes, biznes inkubator, virus, antivirus, fleshka, telegramm, instagramm, pleyyer, provayder, disket, monitor* kabi so'zlarni misol qilib olishimiz mumkin. Ularning miqdori va qo'llanish ko'lami keng.

Ularning ba'zilari o'zbek tilida asrlardan beri qo'llanib kelinayotgan so'zlarni "siqib chiqarmoqda". Masalan, *diler, hotel, market* kabi so'zlar *dallol, mehmonxona, do'kon* kabi leksik birliklarning o'rnini egallab bo'ldi.

Aniq fanlarga oid matnlarda ko'plab inglizcha so'zlar uchrayotgani bois, ularni anglash murakkablashdi. Masalan, quyidagi matnga e'tibor beraylik. "*Prezentatsiyalar tayyorlashda eng effektiv va universal vositalardan biri – bu Microsoft Office ilovasidagi – POWER POINT dasturidir. U grafik axborotlar, slaydlar, ovoz, video kliplar, animatsiyalardan foydalanib, sifatli prezentatsiyalar yaratish imkonini beradi* [10].

Ushbu gapdagi *prezentatsiya, effekt, universal, Microsoft Office, POWER POINT, grafika, slayd, video, klip, animatsiya* so'zlari o'zlashma leksemalar sanaladi.

Bir tomondan olib qaraganimizda, bu – yaxshi, dunyo hamjamiyatiga yaqinlashyapmiz, jahon ilm-fani, texnikasi bilan tanishyapmiz, tilimiz boyiyapti, so'zlarimiz ko'paymoqda; ikkinchi tomondan esa inglizcha so'zlar misolida xorijiy til ustuvor ahamiyatga ega bo'lib bormoqda, "lingvistik imperializm"ga duch kelib turibmiz. Bu hammamizni o'ylantiradigan hayotiy masala (!).

Statistik ma'lumotlarda manba tildagi ma'nolarni saqlab qolgan o'zlashmalar 47 foiz, ma'nosi kengaygan o'zlashmalar 46 foiz, ma'nosi toraygan o'zlashmalar esa 7 foizni tashkil etgan [11].

"Lingvistik imperializm" unsurlarini mamlakatimiz hududlarida yoppasiga kuzatish mumkin. Masalan, Samarqanddagi maktabgacha ta'lim muasasalari nomlari ichida *Kinder city, Bee happy, Calaxy baby, Golden kids, Perviy shag, Zolataya ribka, Solnishka, Cheburashka* singari "Davlat tili haqida"gi qonun talablariga mutlaqo javob bermaydigan nomlar uchraydi. Yuqorida keltirilgan ingliz va rus tilidagi leksik birliklar hali bizga o'zlashgani yo'q-ku?! Ularni qo'llash o'zbek tili qonun-qoidalariga zid bo'lishi bilan birga, o'sib kelayotgan yosh avlodning ongiga aks ta'sir ko'rsatadigan, ulardagi til tuyg'usini so'ndiradigan holatdan boshqa narsa emas.

Xalqimiz xorijiy tillarni o'rgansin, chet elliklar bilan bimalol ularning tilida muloqot qila olsin, ammo bu yo'l bilan emas. Ona tilining o'rniga xorijiy til elementlarini hayotimizga bo'lar-bo'lmasga tiqishtirish bizdagi millatparvarlik, xalqparvarlik, tilga bo'lgan hurmat-e'tibor hislarining so'nishiga olib keladi. Eng

yomoni – insondagi ona tili tuyg‘usi yo‘qoladi. Bu o‘z-o‘zidan ona tilining tanazzuliga uchrashiga sababchi bo‘ladi.

Broker, velotrek, shou, sprint, sprinter, konsalting, terminal, xaker kabi so‘zlarning ma’nosini tushunib qolgandirmiz, ammo *sheyping, blokcheyn, mayning, mayner, token, bitkoin* singari leksik birliklar ma’nosi hammaga ham ma’lum emas. So‘zlarning ma’nosini tushunmasdan qo‘llash yomon oqibatlariga olib klishi tayin.

Yurtimizda *gold* – *oltin* so‘zi ishtirok etgan *Diyor gold, Gold Brand mebel, Golden Samarqand, Gold Yekfmud, Gold star media, Gold market, Gold food Sam, Gold King darvoza* kabi nomlarga duch kelasiz.

Sadaf, Javohir, Tillakori, Do‘stlik, Visol, Dunyo, Xonatlas, Rohat, Zarhal, Vazira, Karvon, Beksaroy kabi restoran nomlari o‘rniga tushgan, lekin *Mersi, Mirakle Garden, Bisatto, la Mia Vita, La Yesmeraldo, Zolotoy dvores* kabi nomlar ustida o‘ylab ko‘rish kerak.

Mamlakatimizga butun dunyodan mehmon keladi, ammo biz o‘zbeklar tugul mehmonlar ham *Gusht Hause, Fedya shashlik, The Royal, Xilton Plaza 777, Zuzani hotel, Hotel M/M Gold, Sherxon Hause* singari mehmonxona nomlariga nima der ekan? “Mehmonxona nomini ifodalash uchun bu tilda so‘z yo‘q ekan-da?! “ deb o‘ylamaydimi?!

Romashko shifo nur, Sixat shifo baxsh, Anvar nano strit, Eyfel magazin kabi mavhum nomlar bizga yarashmaydi.

Bunday vaziyat yurtimizning tashrif qog‘ozi sanalgan Samarqand, Farg‘ona, Namangan, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlarida ham ham istagancha topiladi. Xivada *Ayami food, ATA Gamburg, Flora, Elita Dogs Mini, Khiva Moon, Tea hause Mirza boshi, Halal food, Gold Xiva, Grand Vazir hotel, Gavhar hause, Buxoroda Edem, Temir’s, Rozmarin, Sardoba Sever, Kukaldosh Garden, New Plov, The Plov, Khan rooms, Garden Degrez, Old street, Nemo Guest Hause Bukhara, Mercure Bukhara Old Town, Graf* kabi nomlar mavjud. Agar ish shu darajada keta bersa, yaqin o‘n yilliklarda milliy lug‘at tarkibimizning sezilarli qismi inglizcha so‘zlardan iborat bo‘lib qolishi mumkin.

“Til imperializmi” ona tiliga bepisandlik bilan qarashga, ona tilining sofligiga putur yetishiga ham olib keladi. O‘zbekcha so‘zlarni “*Hilal*”, “*Sultan*”, “*Aksaroy*”, “*Taj Mahal*”, “*Chinara*”, “*Asel*”, “*Oxu med*”, “*Marxamat*” shakllarida xatolik bilan yozish bunga misol bo‘la oladi.

Muhokama va xulosa. Xorijiy tillarni o‘rganish, o‘qitishni “til imperializmi”ga olib borib taqash to‘g‘ri emas. Bu borada tashqi va ichki siyosatda ota-bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan bag‘rikenglik tamoyiliga amal qilayotganimiz butun dunyoga ibrat bo‘lmoqda. Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya ishlarining yettita tilda olib borilayotgani;

o'z ona tilimizni boshimizga ko'targan holda boshqa tillarga nisbatan cheksiz hurmat va e'tiborda bo'layotganimiz; ingliz, nemis, fransuz, rus, xitoy, koreys, yapon, arab, fors va boshqa tillarini o'rganishga keng yo'l ochib qo'yilgani til siyosatimizni yangi sifat bosqichlariga olib chiqishda muhim omil vazifasini o'tamoqda.

Hozirda o'zbek tili millatimiz tafakkurining betakror ifodasi, Uchinchi Renessansning o'ziga xos jarangdor ovozi sifatida hayotimizda namoyon bo'lmoqda. Faqat buni his qilishimiz, ona tilimizning sofliqi, bardavomligi uchun muntazam kurashishimiz, o'zbek tilining o'tmishi, bugunidan faxr qilishimiz, kelajagi uchun javobgarligimizni sezgan holda murosasiz kurashishimiz kerak.

Umuman olganda, ona tili taqdiri ustida o'ylash, uning kelajagi uchun kurashish shu yurtida yashayotgan har bir insonning el oldidagi muqaddas burchidir. Unda bo'yin tovlash yoki sustkashlik ko'rsatish xiyonat bilan tengdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek tili dunyodagi eng boy va teran tarixiy ildizlarga ega bo'lgan qadim tillardan biridir. O'zbek tili davlat tili sifatida yurtimizdagi tabarruk va muqaddas, mo'jizaviy buloqlardek toza va musaffo, iste'molga doim yaroqli bo'lishi shart. Uning ichki va tashqi imkoniyatlari cheksiz va mislsizdir. Undan o'rinli foydalanish, tilning sofliqi, tabiiyligi uchun kurashish, davlat tili me'yorlariga har on, har soniyada to'liq rioya qilish, boshqalardan ham buni talab etish, ona tilining musaffoligini va tarovatini saqlab qolish barchamizning bizni oq yuvib, oq tarab o'stirgan, voyaga yetkazgan ona yurt, ONA TILI oldidagi sharaflari va ayni chog'da muqaddas burchimizdir.

Davlat tili ustida bosh qotirish faqat mutasaddi insonlarning ishi emas, balki millat ishi, umumxalq ishi, ezgu niyatli barcha hamyurtlarimizning yelkasida turgan burchi, eng muhim vazifasidir.

Adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev Q. Biror jamiyat va millat o'z pedagogikasidan yuksak bo'lolmaydi / O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2021-yil 13-avgust / № 33 (4640).
2. Биткеева А.Н. Языковая политика // Социоллингвистика. –Москва, 2021. – 2 (6). – С. 214.
3. Риханов Ш. Языковая политика и проблема национальной идентичности в современной республике Казахстан//European Scientific Journal. 2021. – 9 (73). – с. 24.
4. Babadjanov F. Davlat tilida ish yuritish va hujjatchilik taraqqiyotining ilmiy-nazariy asoslari: Filol. fan. dokt. (DSc) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2025. – B. 21.
5. <https://topmira.com>.
6. Рахманов А.Б. Лингвистический империализм, лингвистический субимпериализм и их необходимость: Россия и Испания//Вестник Томского

государственного университета Философия. Социология. Политология. 2020. – № 54. – с. 188-207.

7. <https://upl.uz/culture>.

8. Phillipson R. Linguistic imperialism. – Oxford: Oxford University Press, 1992. – P. 120.

9. Мурай О.В. Языковая экспансия США и ее манифестация на геополитической карте мира // Геополитика и безопасность. – Санкт-Петербург, 2010. № 4 (12). – С. 27-32.

10. Aslonov U. Informatika (ma'ruza matnlari). – Buxoro, 2019. – 52 bet.

11. Трифонова Н. С. Модификация значений при заимствовании экономической лексики из английского языка в русский // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов, 2017. – №11-3 (77). – С. 168.

TARIXIY VA ZAMONAVIY ONOMASTIKA

ATOQLI OTLARDA TRANSPOZITSIYA HODISASINING YUZ BERISHI

Ergashev Sardor Kosimovich

mustaqil izlanuvchi

Qarshi davlat universiteti

Annatotsiya. Ushbu maqolada atoqli otlardagi transpozitsiya hodisasi lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Transpozitsiya – til birliklarining bir soʻz turkumidan boshqasiga oʻtishi natijasida yuzaga keladigan semantik va grammatik oʻzgarishlar majmui. Xususan, atoqli otlarning umumiy otlarga aylanishi, yaʼni apellyativlashuvi yoki, aksincha, turdosh otlarning atoqli ot sifatida qoʻllanishi kabi holatlar misollar yordamida yoritiladi. Maqolada bunday oʻzgarishlarning sabablari, kontekstga bogʻliqligi, uslubiy va ifoda vositasi sifatidagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, atoqli otlardagi transpozitsiya hodisasining hozirgi oʻzbek adabiy tilida turgan oʻrni ham koʻrib chiqiladi. Ushbu maqola tilshunoslikda soʻz turkumlari, xususan, atoqli otlarning bir turi – antroponimlar oʻzgarishining nazariy va amaliy asoslarini oʻrganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit soʻzlar: transpozitsiya, antroponim, tipologiya, semantika, onomastika, konversiya, derivatsiya.

ТРАНСПОЗИЦИЯ В ИМЕНАХ СОБСТВЕННЫХ

Эргашев Сардор Косимович

исследователь

Каршинский государственный университет

Аннотация. В данной статье лингвистически анализируется явление транспозиции у имён собственных. Транспозиция – совокупность семантических и грамматических изменений, возникающих в результате перехода языковых единиц из одной части речи в другую. В частности, такие случаи, как превращение собственных существительных в нарицательные, то есть апелляция, или, наоборот, использование нарицательных существительных в качестве собственных, освещаются с помощью примеров. В статье раскрываются причины таких изменений, их зависимость от контекста, их значение как стилистического и выразительного средства. Также рассматривается роль явления транспозиции в существительных в современном узбекском

литературном языке. Данная статья имеет важное значение в изучении теоретических и практических основ изменения частей речи в лингвистике, в частности, одного из видов имён собственных – антропонимов.

Ключевые слова: транспозиция, антропоним, типология, семантика, ономастика, конверсия, деривация.

THE OCCURRENCE OF THE TRANSPOTION PHENOMENON IN HONORED NOUNS

Ergashev Sardor Kosimovich

Researcher

Karshi State University

Abstract. This article analyzes the phenomenon of transposition in proper nouns from a linguistic perspective. Transposition is a set of semantic and grammatical changes that occur as a result of the transition of language units from one part of speech to another. In particular, cases such as the transformation of proper nouns into common nouns, that is, their appellativization, or, conversely, the use of common nouns as proper nouns, are illustrated with examples. The article reveals the reasons for such changes, their dependence on the context, and their significance as a stylistic and expressive tool. The role of the phenomenon of transposition in proper nouns in the modern Uzbek literary language is also considered. This article is of great importance in linguistics for studying the theoretical and practical foundations of word groups, in particular, one type of proper nouns – anthroponyms.

Keywords: transposition, anthroponym, typology, semantics, conversion, onomastics, derivation.

Kirish. O‘zbek tili grammatikasida atoqli otlar alohida o‘rin tutadi. Atoqli otlar o‘z tabiatiga ko‘ra tilning g‘oyatda turg‘un, kam o‘zgaruvchan, boshqa tillarga tarjimasiz beriladigan til materialidir. Shu xususiyatiga ko‘ra atoqli otlar tarixiy va nutqiy jihatdan ilmiy tadqiqot uchun eng ishonchli daliliy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, atoqli otlarning bir ko‘rinishi bo‘lgan antroponimlarning paydo bo‘lish tarixi, ularning tuzilish va yasaliş xususiyatlarini o‘rganish tilshunoslik nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega.

Tilshunoslikda antroponimlar – ya’ni shaxs nomlari inson hayoti va jamiyatidagi eng qadimiy til birliklaridan biri sifatida tadqiq etiladi. Har bir xalqning madaniy, tarixiy, diniy va ijtimoiy hayotida antroponimlar muhim semantik va funksional o‘rin egallaydi. Ular orqali nafaqat shaxs aniqlanadi, balki milliy madaniyat va ijtimoiy jarayonlar ham namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonlardan biri transpozitsiya hodisasidir.

Transpozitsiya til birliklarining o'rnini o'zaro almashtirish, fonetik yoki morfologik ko'chirish orqali yangi shakl hosil qilish hodisasi bo'lib, u antroponimlar tarkibida keng tarqalgan. Masalan, o'zbek tilida *Abdurahmon ismining Rahmon* yoki *Abdu* shaklida qisqarishi yoxud *Sayyid ismining Said* kabi variantlarga o'zgarishi transpozitsiyaning fonetik va pragmatik ko'rinishi hisoblanadi. Aynan shu holatlarni lingvistik tahlil qilish, ularning sabab va oqibatlarini aniqlash tilshunoslikning asosiy vazifasi sanaladi.

Nazariy asos. Antroponimika – shaxs ismlari, familiyalar, taxalluslar, laqablar kabi nomlovchi birliklarni o'rganuvchi onomastikaning bir tarmog'idir. Antroponimlar inson hayotida nafaqat identifikatsion vazifani bajaradi, balki milliy tafakkur, madaniyat, tarix va din bilan bog'liq chuqur ma'noviy xususiyatlarga ham ega. Bugungi o'zbek adabiy tilida transpozitsiya – til birliklarining o'zaro o'rin almashinuvi, joylashuv o'zgarishi yoki grammatik vazifasining o'zgarishidir. Bu hodisa fonetik, morfologik, sintaktik va semantik darajalarda ro'y berishi mumkin. Antroponimlar ham bu jarayondan chetda qolmagan. Tilshunos olimlar so'z turkumlarining ko'chishiga nisbatan bir qancha atama qo'llaganlar, shu qatorda atoqli otlarning bir ko'rinishi bo'lgan shaxs ismlarining ko'chishiga nisbatan konversiya atamasini ishlatishgan. Boisi o'zbek tilida antroponimlarning transpozitsiyasi tildagi keng tarqalgan hodisa bo'lib, bunda bir so'z turkumiga mansub birliklarning boshqa so'z turkumi vazifasiga ko'chishi ko'zda tutiladi. Masalan: *O'lmas*, *Tursin*, *Oltmishboy* kabi. Lekin bu hodisa shunchaki almashinish emas, balki tilshunoslikda yangi so'z yasash hodisasi, ya'ni konversiya deb qaraladi. “Konversiya (lot. Conversion – aylanish, o'zgarish) so'zning fonetik va morfologik jihatdan o'zgarmay, bir so'z turkumidan boshqa bir so'z turkumiga o'tishi, shu yo'l bilan yangi so'z hosil bo'lishidir”. Dunyo tilshunosligida, xususan, rus tilshunosligida ham antroponim hosil qilishning bu ko'rinishi leksik-grammatik xarakterdagi yasaliş deb qaralgan va bu hodisani ifodalash uchun onomastik konversiya terminini qo'llash taklif qilingan. “Onomastik konversiya tildagi mavjud leksemalarning hech qanday o'zgarishsiz yoki sezilarsiz holdagi o'zgarishlar bilan atoqli ot vazifasiga ko'chishidir”. Ayni antroponimlardagi ko'chish hodisasi o'zbek onomastikasida E.Begmatov, A. Madvaliyev, M. Mirtojiyev singari olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, aynan transpozitsiyaning antroponimlardagi o'rniga bag'ishlangan tadqiqotlar hali yetarli darajada emas.

Ma'lumot va metodologiya. Shaxs nomlari – antroponimlarda uchraydigan transpozitsiya hodisasining fonetik, morfologik va semantik turlari mavjud bo'lib, bu holat turli tillarda – xususan, o'zbek, rus va ingliz tillarida qanday ko'rinishda namoyon bo'lishiga e'tibor qaratsak. Masalan, ingliz va rus tillarida ishlatiladigan parallel nomlar (*Alexander/Aleksandr*, *William/Will*, *Robert/Bob*) kabi. Tilshunoslikda atoqli otning turdosh otga, turdosh otning atoqli otga yoki boshqa turkumga oid so'zning

atoqli otga aylanish hodisasini olimlar turlicha, ya'ni metafora va metonimiya hodisasi, kalkalash, transformatsiya kabi terminlar bilan ataydilar. Ayni atamalar kolleksiyasidan ham ma'lum bo'ladiki, shaxs ismlaridagi ko'chish hodisasi borasida tilshunos olimlar yakdil fikrga kelishmagan.

O'zbek, rus va ingliz tillarida uchraydigan o'xshash yoki o'zgaruvchan ismlar taqqoslab ko'rilganda ularning quyidagi jihatlari namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbekcha "Jaloliddin" ↔ ruscha "Djalaleddin" ↔ inglizcha "Jalal al-Din" kabi. Ba'zi ismlarning talaffuzi va yozilishi o'rtasidagi farqlar morfologik-struktural tahlil, ya'ni tarkibiy qismlari (asos, affiks, otashakllar) ajratildi va ularning joy almashuvi ko'zga tashlanadi. Masalan: "*Toshmuhammad*" → "*Toshmo*" (*asos + qisqartma*) "*Muhammadali*" → "*Ali*" (*asos yo'qolishi*).

Tahlil va natijalar. Antroponimlar – bu insonlarga oid ismlar, ya'ni shaxs ismlari, familiyalar, laqablar, taxalluslar, nasablar va shaxsga taalluqli boshqa nomlardir. Transpozitsiya esa tilshunoslikda bir unurning boshqa kontekstdagi vazifasini bajarishi yoki funksional joy almashtirishi jarayonini bildiradi. Shunday ekan, antroponimlar transpozitsiyasi deganda, inson nomlarining boshqa kontekstlarda, odatda nomlardan boshqa sohalarida qo'llanishi yoki funksional o'zgarishi tushuniladi. Bu holatda antroponimlar o'zining asl ism-ma'nosidan chiqib, boshqa ma'no yoki funksiyada ishlatiladi. Atoqli otlarning bir turi bo'lgan antroponimlarda transpozitsiya, ayniqsa og'zaki nutqda va dialektlarda tez-tez uchraydi. Bu *qisqartirish* ("*Muhammadali*" → "*Ali*"); *o'zlashish* ("*Aleksandr*" → "*Iskandar*"); bu holatda *assimilyatsiya* ("*Toshmuhammad*" → "*Toshmo*") kabi ko'rinishlarda bo'ladi. Bu o'zgarishlar ko'pincha shaxsiy, ijtimoiy yoki madaniy kontekstga bog'liq ravishda yuz beradi. Bundan tashqari, transpozitsiya natijasida paydo bo'lgan variantlar ba'zida normativ tilga kirib boradi va mustahkamlanadi, ba'zida esa sheva doirasida qoladi. Bu esa til siyosati, onomastik normativlash va rasmiy registrlar uchun muhim masalalardan biridir.

Kuzatishlarga ko'ra, atoqli otlar guruhiga mansub bo'lgan ismlar bir tildan boshqasiga o'zlashish natijasida yuzaga kelishi kuzatiladi. Bunda bir tilda mavjud ism boshqa til alifbosida ifodalanganda ismlar tarkibida grafik birliklarning transpozitsiyai yaqqol kozga tashlanadi. Bu hodisa o'zbekcha, inglizcha va rus tillarida transpozitsiyaga uchragan ismlarning guruhini keltirish asosida yaqqol ko'rinadi.

Ismlarning har bir til uchun talaffuzi va yozilishi o'zgargan shakli.

T/R	O'zbekcha ism	Inglizcha ism (Transpozitsiya)	Ruscha ism (Transpozitsiya)
1.	Dilshod	Dilshod	Дильшод
2.	Jamshid	James	Джамшид
3.	Muhammad	Mohamed	Мухаммад
4.	Yulduz	Yulduz	Юлдуз
5.	Yorqul	Yorqul	Яркул
6.	Ra'no	Rano	Раъно
7.	Jalil	Jalil	Джалил

Xulosa va tavsiyalar. Antroponimlar transpozitsiyasi tilda boylik va ifoda rang-barangligini ta'minlaydi. Bu hodisa orqali shaxs nomlari keng madaniy, ijtimoiy, hatto iqtisodiy doiralarda faol ishtirok etadi. Ularning ma'no qamrovi o'zgarib, turli vaziyatlarda yangi vazifalarni bajarishi tilning rivojlanish jarayonini aks ettiradi. Shu bois, antroponimlar transpozitsiyasi nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, sotsiologiya va tarix fanlari uchun ham muhim tadqiqot mavzusi sanaladi. Har bir atoqli otning paydo bo'lish sababi bilan bog'liq ensiklopedik-etnografik ma'no ham mavjud. Shu sababli, har qanday so'zning atoqli otga o'tishi semantik yasash yoki onomastik konversiya usuli bilan yuz berishi ta'kidlab kelingan. A.Hojiyev bu kabi hodisalar haqida: "So'z yasashining "leksik-semantik", "morfologik-sintaktik" usullari deb ta'riflanayotgan "usul"larida ham so'zning biror sabab tufayli yuzaga kelish hodisasi bor, lekin so'z yasash hodisasi yo'q" deydi, chunki bu jarayon onomasiologiya bilan bog'liq. Bizningcha, onomastik sathdagi barcha atoqli otlardan atoqli ot yasashlariga nisbatan transpozitsiya termini va tushunchasini qo'llash maqsadga muvofiq. Chunki hodisa qanday talqin qilinmasin, oqibat atoqli otdan atoqli ot hosil qilish ustida boradi. Shuningdek, tilshunoslikda onomastik konversiya termini qo'llanilganda, uni derivatsiya usuli sifatida emas, nomlanish tamoyili sifatida qabul qilish to'g'ri deb hisoblaymiz. Chunki bitta til hodisasi ikki o'rinda ikki xil, ya'ni ham so'z yasash usuli, ham nomlash tamoyili bo'lishi mumkin emas.

Adabiyotlar:

1. Смирницкий. А.И. По поводу конверсии в английском языке // Иностранные языки в школе. – Киев, 1954. – № 3. – С. 24.
2. Ғаниев Т.А. Конверсия в татарском языке. – Казань. 1985.

3. Дўсимов 3. Изучение лингвистических особенностей географических названий. – Ташкент, 1989. – С. 29.
4. Атаниязов С. Топонимика Юго-Восточного Туркменистана: Автореф. дис ... канд. филол. наук. – Ашхабад, 1966. – С.11.
5. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – Москва: Наука, 1973. – С. 29.

TERMINOLOGIYA TIZIMIDA EKVONIMLAR

Ermatov Ixtiyor Rizoqulovich
Filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilshunosligi muammolariga, xususan, til sathlari va ularning birliklari tizimiga xos ekvonim va ekvonimik, giperonim va giperonimik, giponim va giponimik munosabatlar, ularning o‘zbek tilshunosligi terminologiyasi tizimiga xos amaliga alohida etibor qaratilgan. Ekvonim va ekvonimiya atamalari – tilshunoslik terminlari tizimida nisbatan yangi lug‘aviy birlik. Shu bois bu atama tilshunoslikka oid amaldagi ilmiy va leksikografik manbalarda qayd etilmagan. Ekvonim va ekvonimiya tushunchalari lisoniy jihatdan giperonim va giponim tushunchalari bilan sinxron-sinkretik jihatdan qorishiq hodisalardir. Chunki jins ma’nosidagi lug‘aviy birliklarning giperonimlar, shu lug‘aviy birliklarga tur ma’nosi bilan semantik jihatdan tobelanuvchi lug‘aviy birliklarning giponimlar maqomida qaralishi lingvistika fanida, shu jumladan, o‘zbek tilshunosligida ham, allaqachon mushtarak tan olingan. Biroq ekvonim va ekvonimiya atamalari bilan bog‘liq lisoniy tushunchalar, terminologik va professional leksika u yoqda tursin, umumxalq tili leksikasi materiallari asosida ham o‘rganishga endigina kirishilgan. Ekvonim va ekvonimiya atamalari bildirgan lisoniy tushuncha, garchand polisemiya, omonimiya, sinonimiya, antonimiya, giponimiya atamalari nomlagan lisoniy tushunchalar bilan “yondosh” bo‘lsa-da, u hozircha tilshunoslikda, ayniqsa, o‘zbek tilshunosligida, rasman keng ommalashmagan. Tilshunoslik terminlari maqolaning illyustrativ materialli sifatida xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: leksika, kommunikativ faoliyat, umumxalq tili, sistema (tizim), geterogen tizim, gomogen tizim, suppletivizm, giperonim, giponim, ekvonim, ekvonimiya munosabati, til sathlari.

ЭКВОНИМЫ В СИСТЕМЕ ТЕРМИНОЛОГИИ

Эрматов Ихтиёр Ризокулович
доктор филологических наук

Аннотация. В данной статье рассматриваются проблемы узбекского языкознания, в частности, эквоним и эквонимический, гипероним и гиперонимический, гипоним и гипонимические связи, присущие системе уровней языка и их единиц, а также особенности их применения в системе узбекской лингвистической терминологии. Термины «эквоним» и «эквонимия» являются относительно новыми лексическими единицами в системе лингвистических терминов. Поэтому в современных научных и лексикографических источниках по языкознанию этот термин не зафиксирован. Понятия «эквоним» и «эквонимия» представляют собой лингвистически смешанные явления с понятиями «гипероним» и «гипоним», синхронически и синкретично. Поскольку тот факт, что лексические единицы в значении рода считаются гиперонимами, а лексические единицы, семантически подчиненные им в значении вида, считаются гипонимами, давно и широко признан в языкознании, в том числе и в узбекском. Однако лингвистические понятия, связанные с терминами «эквоним» и «эквонимия», только начинают изучаться, не говоря уже о терминологической и профессиональной лексике, а также на основе материалов лексики национального языка. Лингвистическое понятие, выражаемое терминами «эквоним» и «эквонимия», хотя и похоже на лингвистические понятия, обозначаемые терминами «полисемия», «омонимия», «синонимия», «антонимия», «гипонимия», до сих пор не получило официального широкого распространения особенно в узбекском языкознании. Иллюстративным материалом для статьи служат лингвистические термины.

Ключевые слова: лексика, коммуникативная деятельность, национальный язык, система, гетерогенная система, гомогенная система, супплетивизм, гипероним, гипоним, эквоним, эквонимические связи, уровни языка.

EQUONYMS IN TERMINOLOGY

Ermatov Ikhtiyor Rizokulovich

Doctor of Philology

Abstract. This article examines issues in Uzbek linguistics, specifically the equonym and equonymic, hypernym and hypernymic, hyponym and hyponymic relations inherent in the system of language levels and their units, as well as the specifics of their application in Uzbek linguistic terminology. The terms "equonym" and "equonymy" are relatively new lexical units in the system of linguistic terms. Therefore, this term is not recorded in modern scientific and lexicographic sources on linguistics. The concepts of "equonym" and "equonymy" are linguistically intertwined with the concepts of "hypernym" and "hyponym," synchronically and syncretically.

The fact that lexical units in the meaning of gender are considered hypernyms, while semantically subordinate lexical units in the meaning of species are considered hyponyms, has long been widely recognized in linguistics, including Uzbek linguistics. However, the linguistic concepts associated with the terms "equonym" and "equonymy" are only just beginning to be studied, not to mention in terminological and professional vocabulary, as well as based on the vocabulary of the national language. The linguistic concept expressed by the terms "equonym" and "equonymy," although similar to the linguistic concepts denoted by the terms "polysemy," "homonymy," "synonymy," "antonymy," and "hyponymy," has not yet received widespread official recognition, particularly in Uzbek linguistics. Linguistic terms serve as illustrative material for this article.

Keywords: vocabulary, communicative activity, national language, system, heterogeneous system, homogeneous system, suppletion, hyperonym, hyponym, equonym, equonymic relations, language levels.

Kirish. Ma'lumki, leksika tilning yadrosini tashkil qiladi. Biroq bu yadro shu qadar murakkabki, unda umumxalq kommunikativ faoliyatida faol ishlatiladigan lug'aviy birliklar bilan bir qatorda, umumxalq kommunikatsiyasi uchun muhim bo'lmagan va shu bois umumxalq muloqotini "soxtalashtiruvchi" lug'aviy birliklar ham bir xil lisoniy maqomda mavjud bo'ladi. Shu jihatdan *leksika va uning yaxlit tizimi* bir xonaga yig'ilgan har xil lisonli shaxslar va ularning *ajralmas guruhini* eslatadi. Jahon tilshunosligida milliy tillarning paydo bo'lishi, shakllanishi, rivojlanish bosqichlari turli aspektlarda o'rganilgan. Har qanday fan tadqiqining asosiy vositasi bo'lgan terminlar, ularning lingvistik tabiati, yuzaga kelish manbalari, yasallish usullari, terminlarning tuzilishiga ko'ra turlari, ulardagi sinonimlik va dubletlikni bartaraf qilish yo'llari, termin va tushuncha munosabati kabilar ham tilshunoslikdagi asosiy masalalaridan biriga aylangan.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Tadqiqot obyekti o'zbek tili izohli lug'atlari hamda tilshunoslik terminlarining izohli lug'atlaridagi o'zbek tilshunoslik terminlari tashkil etadi. Tadqiqotda quyidagi ilmiy tahlil metodlaridan foydalanilgan: lingvistik tavsiflash, sistem, statistik, kontekstual tahlil usullari. Tadqiqot mavzusiga doir ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishda lingvistik tahlil usulidan foydalanilgan. Ekvonim va termin o'rtasidagi munosabatlarni yoritishda sistem tahlil usuli qo'llanilgan. Statistik tahlil o'zbek tili izohli lug'atlarda tilshunoslik terminlarining o'rin olishi, aks etish xususiyatlarini o'rganishda keng foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili. O'zbek tilshunosligida lug'aviy-semantik guruhlar o'rtasidagi munosabatlar tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan bo'lsa-da, terminologiya tizimidagi ekvonimik, gipero-giponimik munosabatlar yetarli

darajada o'rganilgan emas. Xususan, R.Safarovning 1990-yilda himoya qilgan "O'zbek tilida giponimiya" deb atalgan dissertatsion tadqiqot ishi [11] hamda 1996-yilda nashr etilgan "Leksik semantik munosabatning turlari" risolasi [12] o'zbek tilida dastlabki ushbu yo'nalishda monografik planda o'rganilgan ish hisoblanadi. Bundan tashqari H.Ne'matov, E.Begmatov, R.Rasulovlar hammuallifligidagi "Leksik mikrosistema va uning tadqiq metodikasi" (Sistem leksikologiya tezislari) [5:6]; A.Nurmonovning 1992-yilda nashr etilgan "Lisoniy belgi xususiyatlari haqida"gi [6]; H.Ne'matov, R.Rasulovlar hammuallifligida nashr etilgan "O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari" [7]; A.Berdialiyev, I.Ermatovlar hammuallifligida nashr etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" [2] asarlari tilshunoslikning ushbu masalasiga bag'ishlangan. Tadqiqot ishi obyekti sifatida A.Hojiyevning 1700 dan ortiq so'z va so'z birikmasidan iborat "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" [16] hamda N.Mahkamov va I.Ermatov hammuallifligida nashr etilgan 1500 ga yaqin so'z va so'z birikmasidan iborat "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" [4] tahlil qilinadi.

Umumxalq kommunikatsiyasi uchun faol bo'lmagan lug'aviy birliklar ham o'ziga xos paradigmani tashkil etadi va ular sirasida terminlar va ularning tizimi o'ziga xos lisoniy xususiyatlar bilan alohida ajralib turadi. Termin va ularning tizimi ham lisoniy jihatdan o'ziga xos murakkablikka egaki, ularning ilk, ya'ni dastlabki "faoliyati" shu terminlar mansub bo'lgan kasbiy soha kishilarining ayrimlari uchun ham "notanish" bo'lishi mumkin. Masalan, tilshunoslikda "*allyuziya*" atamasi mavjud. *Allyuziya* (lot. *allisio* – ishora, hazil) muayyan til birliklari vositasida biror adabiy yoki ijtimoiy-tarixiy faktga ishora qilishdan iborat uslubiy figura. Lingvokulturologiyada *allyuziya* ikki madaniy-semiotik maydonning o'zaro munosabati nuqtayi nazaridan o'rganiladi [13]. "*Allyuziya*" va shu atama bilan bog'liq lisoniy tushuncha paradigmasida "*allyuziya denotati*", "*allyuziya ko'rsatkichi*", "*allyuziya manbasi*" va h.k. terminlar mavjud. Bular, lingvistika faniga oid muayyan tushunchalar atamasidir. Biroq shu terminlar va ularning mohiyati lingvistika fani bilan shug'ullanuvchi barcha mutaxassislar uchun bir xil tushunarli va ularning ilmiy ish faoliyatida bir maromda faol ishlatiladi, deb o'ylaysizmi? Yo'q, albatta. Kimki tilshunoslikning XXI asrda shakllangan lingvokulturologiya yo'nalishi bo'yicha shug'ullansa, bu atamalar o'shalar uchun oson tushunarli va ularning ilmiy faoliyatida faol ishlatiluvchi maxsus lisoniy (lug'aviy) birliklardir, ya'ni terminlardir. Bu terminlar va ularning mohiyati an'anaviy tilshunoslik bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar va ularning ilmiy faoliyati uchun nafaol lisoniy birliklar hisoblanadi.

Biroq, terminlarning fan va texnikaning muayyan bir sohalari uchun xosligi ularning lisoniy (lug'aviy) birlik, ya'ni so'z (leksema) tavsifidagi lisoniy maqomiga sira ham mone'lik qilmaydi. Demak, termin va ularning tizimi ham lisoniy maqomda so'z, frazema va ularning tizimidan farq qilmaydi. Shu bois tilning fan va texnikaning

muayyan sohasiga oid terminologik tizimi umumxalq tiliga xos keng ma'nodagi lug'aviy birliklar tizimi bilan mushtarak lisoniy xususiyatlarga ega bo'ladi.

Umumxalq tili leksikasi o'ziga xos geterogen tizim (sistema) sifatida lug'aviy birliklarning mikro-, medio- va makroqurilmalar tavsifidagi tagtizim (gomogen tizim)laridan tarkib topadi. Shunga ko'ra, umumxalq tili leksikasida lug'aviy birliklar, shakliy, ma'noviy va ohangdoshlik munosabatlariga ko'ra, turli xil mantiqiy-lisoniy guruhlar doirasida ish ko'radi. Lug'aviy-mazmuniy mikro-, medio- va makroqurilmalar majmuasi, ya'ni ularning bir butun uyushmasi til lug'at tarkibining, ya'ni leksikaning o'ziga xos yaxlit tizimini hosil qiladi. Shu tizim tufayli bizni qurshab turgan borliq bir butun va yaxlit tarzda in'ikos etiladi [2].

Fan va texnikaning muayyan sohasiga oid atamalar va ularning tizimi ham umumxalq tili leksikasiga xos geterogen sistemalik xarakteriga ega va bu *yaxlit sistema* (ya'ni terminologiya), umumxalq tili leksikasiga xos mikro-, medio- va makroqurilmalar tavsifidagi lug'aviy birliklar (terminlar)ning mantiqiy-lisoniy munosabatlarini o'zida namoyon etadi.

Terminologiyaga xos geterogen sistemalik va uning mantiqiy-lisoniy imkoniyatlari alohida jiddiy tadqiqot mavzusi sanaladi. Mazkur maqolada bu muhim va murakkab mavzu doirasiga mansub atigi bir mantiqiy-lisoniy hodisa va uning o'zbek lingvistik terminologik tizimidagi amali haqida fikr yuritish maqsad etilgan, xolos. Shu bois lug'at tarkibining medioqurilmalar tizimiga oid *ekvonim* va *ekvonimiya* hodisasi va uning o'zbek tilshunosligi atamaları tizimidagi amali mazkur maqolaning qisqacha mazmunini tashkil etadi.

Mazkur maqolaning asosiy mazmun va mohiyati "*Ekvonim* atamasi umumxalq tili leksikasida qanday lisoniy tushunchaga nisbatan ishlatiladi va uning terminologik tizimga xos amali nimalar bilan xarakterlanadi?" degan savolga munosib javob bilan oydinlashadi.

Ekvonim va *ekvonimiya* atamaları – tilshunoslik terminlari tizimida nisbatan yangi lug'aviy birlik. Shu bois bu atama tilshunoslikka oid amaldagi ilmiy va leksikografik manbalarda qayd etilmagan. *Ekvonim* va *ekvonimiya* terminlari faqat M.V.Nikitinning "Osnovi lingvisticheskoy teorii znacheniya" o'quv qo'llanmasida [8] lug'at tarkibining sinonimiya va antonimiyaga guruhdosh hodisasi sifatida qaraladi. O'zbek tilshunosligida *ekvonim* va *ekvonimiya* atamaları birinchi bo'lib A.Berdialiyev tomonidan lug'at tarkibining "leksik birliklarning denotativ asosda farq qiluvchi lug'aviy-mazmuniy medioqurilmalari" guruhida giponimlar, partonimlar, funksionimlar bilan yondosh leksik-semantik hodisa sifatida o'rganilgan [2].

Ekvonim va *ekvonimiya* atamaları bildirgan lisoniy tushuncha, garchand *polisemiya*, *omonimiya*, *sinonimiya*, *antonimiya*, *giponimiya* atamaları nomlagan lisoniy tushunchalar bilan "yondosh" bo'lsa-da, u hozircha tilshunoslikda, ayniqsa,

o'zbek tilshunosligida, rasman keng ommalashmagan. *Ekvonim* va *ekvonimiya* atamaları anglatgan lisoniy tushunchalarni fanda keng va rasman ommalashtirish zamonaning kechiktirilmas vazifasidir. Chunki *ekvonim* va *ekvonimiya* hodisalari xarakteriga ko'ra, antonim va antonimiya hodisalariga nihoyatda yaqin bo'lib, an'anaviy tilshunoslikda ayni *ekvonim* va *ekvonimiyaga* daxldor ba'zi lisoniy holatlar (masalan, *o'g'il* va *qiz*, *opa* va *singil*, *qo'chqor* va *sovliq* va b.) antonim va antonimiya maqomida talqin etilavergan.

Ekvonim va *ekvonimiya*, M.V. Nikitinning asosli e'tirofi bo'yicha, muayyan bir tur ma'nolarini anglatuvchi lug'aviy birliklarning jins ma'nosini bildiruvchi lug'aviy birliklarga semantik jihatdan tobelanishidir. Masalan, umumxalq tilidagi *ota*, *ona* leksemalari tur ma'nosi bilan jins ma'nosidagi *oila* leksemasiga semantik jihatdan tobelanuvchi lug'aviy birliklardir. *Ota*, *ona* leksemalari *oila* leksemasiga semantik jihatdan tobelanib, uning ma'no va vazifasini shakllantiruvchi *ekvonimlar* maqomida lisoniy vazifa bajaradi. Demak, shu narsa aniq ma'lum bo'ladiki, *ekvonim* va *ekvonimiya* tushunchalari lisoniy jihatdan giperonim va giponim tushunchalari bilan sinxron-sinkretik jihatdan qorishiq hodisalardir. Chunki jins ma'nosidagi lug'aviy birliklarning *giperonimlar*, shu lug'aviy birliklarga tur ma'nosi bilan semantik jihatdan tobelanuvchi lug'aviy birliklarning *giponimlar* maqomida qaralishi lingvistika fanida, shu jumladan, o'zbek tilshunosligida ham, allaqachon mushtarak tan olingan [8]. Biroq *ekvonim* va *ekvonimiya* atamaları bilan bog'liq lisoniy tushunchalar, terminologik va professional leksika u yoqda tursin, umumxalq tili leksikasi materiallari asosida ham o'rganishga endigina kirishilgan [1].

Ekvonim va *ekvonimiya* hodisalari hamda ularning lisoniy amali lug'aviy sathga xos suppletivizm hodisasi ta'sirida vujudga keladi va amal qiladi. Lug'aviy suppletivizm (umuman, suppletivizm) esa, semantik jihatdan o'zaro yaqin lug'aviy birliklarning assotsiativ taqozodoshligi bo'lib, lug'aviy birliklardan biri xotirada ma'no umumiylikiga ega bo'lgan boshqa bir lug'aviy birlik bilan lisoniy munosabatda bo'ladi. Masalan, *aka* va *uka*, *opa* va *singil*, *ota* va *bobo*, *ota* va *ona* va h.k. bir necha so'zlar yaqin qarindoshlik jihatidan bir umumiy semantik doiraga mansubdir. Lug'aviy juftlardan biri shu juftlikka mansub boshqa lug'aviy birlik bilan xotirada assotsiativ bog'lilikka ega. Shuningdek, *aka* va *uka*, *opa* va *singil*, *ota* va *bobo*, *ota* va *ona* leksemalari biri boshqasiga nisbatan *ekvonim* sanalishidan tashqari, giperonim xarakteridagi *oila* leksemasiga nisbatan giponimlar hamdir. Bu dalillar *ekvonim* maqomida rasmiylashgan lug'aviy birliklarning ayni o'rinda *giponimlik* maqomida ham rasman ish ko'rishiga ishonchli ishora. Demak, *ekvonim* lug'aviy sathda giperonim maqomidagi lug'aviy birlikka tur ma'nosini anglatishi jihatidan semantik tobe bo'lgan lug'aviy-lisoniy birliklardir. Tur ma'nosidagi lug'aviy birlikning jins ma'nosini bildiruvchi giperonim xarakteridagi lug'aviy birlikka nisbatan tur ma'nosidagi tobe lug'aviy birlik ekanligi xususiyatiga ko'ra, *ekvonimlar* giponimlar

bilan bir lisoniy manbada tutashadi, ularga tenglashadi. Biroq bu tutashuv natijasidagi tenglik *ekvonim* va *ekvonimiya* hodisalari bilan *giponim* va *giponimiya* hodisalari munosabatida amal qiluvchi lisoniy farqlarga chek qo‘ya olmaydi: nechog‘lik o‘xshash va qorishiq bo‘lmasin, *ekvonim* va *ekvonimiya* hodisalari *giponim* va *giponimiya* hodisalaridan farq qiladi. Bu farq, eng avvalo, lug‘aviy birliklar semantik ko‘lamida amal qiluvchi ma’nolar iyerarxiyasi bilan bog‘lanadi. Lisoniy (lug‘aviy) birliklar semantik ko‘lamidagi iyerarxiya dialektikaning inkorni inkor qonuniyatiga asoslangan bo‘lib, unda muayyan bosqichdagi ma’no va vazifa o‘rni ayni shu semantik silsilaga qarashli navbatdagi ma’no va vazifa o‘rni bilan almashinib boradi: *giponim* maqomidagi lisoniy birlik *giperonim* maqomidagi lisoniy birlikka aylanadi. Masalan, *qoramol*, *ot*, *qo‘y* va b. *uy hayvonlari* lisoniy birligiga semantik jihatdan tobe lug‘aviy birliklardir. Negaki, *qoramol*, *ot*, *qo‘y uy hayvonlaridir*. Ayni shu bosqichda “uy hayvoni” *giperonim*, *qoramol*, *ot*, *qo‘y* leksemalari esa, “uy hayvoni”ga nisbatan *giponim*lardir. Ayni shu semantik bosqichda *giponim* sanalgan *ot*, *qoramol*, *qo‘y* leksemalarining ma’nosi *ayg‘ir*, *biya*, *toy (ot)*, *buqa*, *novvos*, *g‘unajin*, *sigir*, *buzoq (qoramol)*, *qo‘chqor*, *sovliq*, *to‘xli (qo‘y)* singari leksemalarda ham o‘z ifodasiga ega. Bu bosqichda *ayg‘ir*, *biya*, *toy* “ot” leksemasiga; *buqa*, *novvos*, *g‘unajin*, *sigir*, *buzoq* “qoramol” leksemasiga; *qo‘chqor*, *sovliq*, *to‘xli* “qo‘y” leksemasiga nisbatan *ekvonimlar* ham hisoblanadi. Seziladiki, *ekvonimlar* *giponim* va *giperonim* ierarxiyasida so‘nggi, yakunlovchi semantik bosqichdir. Ana shu bosqich nuqtayi nazaridan, *ekvonim* maqomidagi lisoniy birlik *giponim* maqomidagi lisoniy birlik bilan bir lisoniy manbada tutashadi, ya’ni ayni bir lisoniy birlik ham *giponim*, ham *ekvonim* sanaladi. M.V.Nikitin e’tirofiga ko‘ra, bir *giperonim*ga semantik jihatdan tobelanuvchi *giponimlar* biri boshqasiga nisbatan *ekvonimlar* sanaladi. *Ekvonimiya* esa, *ekvonimlar* munosabatidan yuzaga chiquvchi semantik aloqalardir [8].

Umumxalq leksikasining semantik va funksional sathi bilan bog‘liq bu xususiyatlar terminologik tizim lisoniy birliklari semantik va funksional sathi uchun ham xosdir. Negaki, terminologik leksika, iste’mol ko‘lamini hisobga olmaganda, umumxalq leksikasidan lisoniy jihatdan farq qilmaydi. Terminologik leksikaning ham, umumxalq leksikasining ham asosiy vazifasi *atashdir*, ya’ni *nominativlikdir*. Farqi shundaki, umumxalq leksikasi obyektiv olamning barchaga mushtarak ma’lum va tanish bo‘lgan narsa-hodisalari va ularning xususiyatlarini nomlasa, terminologik leksika muayyan etnik jamoaning kasb-korda farq qiluvchi ayrim guruhlariga mushtarak ma’lum va tanish bo‘lgan narsa-hodisalar va ularning xususiyatlarini nomlaydi. Shuningdek, umumxalq leksikasiga tegishli lisoniy birliklar (odatda, *leksemalar*, ya’ni *so‘zlar*) shu lisoniy birliklar ma’nosi asoslangan denotatlarni nomlasa, terminologik leksikaga mansub lisoniy birliklar (bular *so‘z*, ya’ni *leksema* hamda *oddiy* va *murakkab so‘z birikmalari* bo‘lishi mumkin) muayyan bir mavhum

xarakterdagi denotatlarni nomlaydi. Yana aniqroq aytganda, umumxalq leksikasiga mansub lisoniy birliklar *ma'nolar* nomi hisoblansa, terminologik leksikaga mansub lisoniy birliklar *tushunchalar* nomidir.

Ekvonim va *ekvonimiya* hodisalarining terminologik tizimga, masalan, tilshunoslik atamaları tizimiga, xos amali masalasiga to'xtaydigan bo'lsak, eng avvalo, shu narsa muhimki, tilning har bir sath lisoniy birliklari, yuqorida ham aytilganidek, muayyan mikro-, medio- va makroqurilmalar doirasida amal qiladi. Tilshunoslikning har bir sohasiga xos lisoniy birliklar (terminlar) majmuasi va ularning tagtizimlari o'ziga xos mavzuiy guruh va lug'aviy-mazmuniy maydonlar maqomida terminologik tizimning makroqurilmalari tavsifida bo'lsa, shu guruhlar doirasida shakldoshlik, vazifadoshlik, ma'nodoshlik jihatlari bilan o'zaro munosabatda bo'lgan lisoniy birliklar mazkur makroqurilmalarni tashkil etuvchi medio- va mikroqurilmalar tavsifida bo'ladi. Masalan, tilning fonetika yoxud fonologiya sathida uning asosiy birligi *fonema* yoxud *tovush* sanaladi. Ayni o'rinda *fonema* yoxud *tovush* terminlari lisoniy jins ma'nosini ifodalashi jihatidan *giperonim* maqomidagi lug'aviy birlik sifatida dastlab *unli fonema* va *undosh fonema* atamaları bilan nomlanuvchi *giponimlarni* o'z ichiga oladi. Giponimlar maqomidagi *unli fonema*, *undosh fonema* atamaları esa, biri boshqasiga nisbatan *ekvonimlar* hamdir. Yoki tilning ayni shu sathida "bo'g'in" atamasi bilan nomlanuvchi tushuncha ham mavjud. "Bo'g'in" lisoniy jins ma'nosidagi atama sanaladi. Bu atama anglatgan tushunchaning "ochiq bo'g'in" va "yopiq bo'g'in" terminlari bilan ataluvchi funksional-semantik turlari mavjud. Bu keyingi ikki atama (*ochiq bo'g'in*, *yopiq bo'g'in*) giperonim tavsifidagi "bo'g'in" atamasiga nisbatan ham *giponim*, ham *ekvonim* maqomida tobelanuvchi lisoniy birliklardir.

Xulosa. Giponim va giponimik munosabatlar tilning har bir sathi lisoniy birliklari tizimida ish ko'radi. Shunisi muhimki, giponim va giponimik munosabat hodisasi bilan bog'liq *ekvonim* va *ekvonimiya munosabatlari* til sathlari birliklari tizimida ayrim o'ziga xos xususiyatlar bilan farq qiladi. Bulardan tashqari, terminologik tizimda, umumxalq leksik tizimidan farq qilgan holda, ekvonim maqomidagi lisoniy birliklar doirasida ham ierarxiya jarayoni mavjud. Masalan, "undosh fonema // tovush" atamasi "fonema // tovush" atamasining *giponim-ekvonimidir*. "Jarangli fonema // tovush", "jarangsiz fonema // tovush" atamaları esa, "undosh fonema // tovush" atamasining funksional-semantik turlari sifatida ekvonim hisoblanadi. Bunday muhim lisoniy jarayonlar tilning barcha sath hodisalarida mavjud. Shu bois bu murakkab lisoniy hodisa tilning har bir sathiga nisbatan yirikroq rejalarda alohida-alohida o'rganilishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Абдуалиева З.У. Гипонимо-эквонимические отношения в системе зоонимов русского и узбекского языков: Автореферат дисс. канд. фил.наук. – Душанбе, 2010.
2. Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya). Universitet va pedagogika oliy o‘quv yurtlarining o‘zbek tili va adabiyoti bakalavri fakultetlari talabalari uchun darslik. – Toshkent, 2021. – 204 b.
3. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 202 б.
4. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Тошкент: Фан, 2013. – 144 б.
5. Неъматов Ҳ., Бегматов Э., Расулов Р. Лексик микросистема ва унинг тадқиқ методикаси. (Систем лексикология тезислари). – Тошкент, 1989. Ўзбек тили ва адабиёти. – № 6.
6. Нурмонов А. Лисоний белги хусусиятлари ҳақида. – Андижон, 1992. – 126 б.
7. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.
8. Никитин М.В. Основы лингвистической теории значения. – М.: Высшая школа, 1988.
9. Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1996.
10. Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. (1989).
11. Сафарова Р. Гипонимия в узбекском языке (на материале общеупотребительных зоонимов): Автореф. дис... . канд. филол. наук. – Тошкент, 1990. – 25 с.
12. Сафарова Р. Лексик семантик муносабатнинг турлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 48 б.
13. Худойберганава Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент, 2015. – 44 б.
14. Чейф У.Л. Значение и структуры языка. – Москва, 1975.
15. Қиличев Б. Ўзбек тилида партонимия: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1997.
16. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002. – 168 б.

O‘ZBEK XALQ O‘YINLARI NOMLARINING ONOMASTIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Homidova Nigora Urinovna

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent v.b

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek xalq o‘yinlari nomlarining onomastik, morfologik va etnolingvistik xususiyatlari tizimli tarzda tahlil etilgan. Xalq o‘yinlari nomlarining shakllanishida apellyativ leksika sathidan onomastik sathga o‘tish, ularning fonosemantik, semantik va morfologik jihatlari, shuningdek, sinonimik ko‘rinishlari (polionimiya hodisasi) chuqur o‘rganilgan. O‘yin nomlarining sodda, qo‘shma va birikmali shakllarda ifodalanishi ularning semantik yuklamasi va kommunikativ funksiyalarini aniqlashda muhim mezon sifatida ko‘riladi. Maqolada Chavgon, Chillik, Halinchak, Burdam kabi o‘yin nomlarining kelib chiqishi, ularning xalq orasida mavjud fonetik variantlari, semantik o‘zgarishlari va madaniy konnotatsiyasi asosida izohlar berilgan. Tadqiqot natijalari xalq og‘zaki ijodining bir qismi bo‘lgan o‘yinlar nomlari xalqning turmush tarzi, urf-odatlari va qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan til birliklari ekanini ko‘rsatadi. Mazkur maqola tilshunoslik, xususan, onomastika va etnolingvistika yo‘nalishida tadqiqot olib borayotganlar uchun nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Tayanch so‘zlar: xalq o‘yinlari, onomastika, morfologiya, etnolingvistika, sodda so‘z, qo‘shma so‘z, so‘z birikmasi, semantika, o‘yin nomlari, an‘ana.

ОНОМАСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ НАЗВАНИЙ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ИГР И ИХ ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Хомидова Нигора Уриновна

доктор философии по филологическим наукам (PhD)

и.о.доцента

Навоийский государственный горно-технологический университет

Аннотация. В данной статье системно проанализированы ономастические, морфологические и этнолингвистические особенности названий узбекских народных игр. Исследуется переход названий народных игр с уровня апеллятивной лексики на ономастический уровень, их фоносемантические, семантические и морфологические характеристики, а также синонимические варианты (явление полионимии). Выражение названий игр в форме простых, составных и словосочетательных структур рассматривается как

важный критерий для определения их семантической нагрузки и коммуникативных функций. В статье даются разъяснения по происхождению, фонетическим вариантам, семантическим изменениям и культурной коннотации таких названий игр, как *Чавгон*, *Чиллик*, *Халинчак*, *Бурдам*. Результаты исследования показывают, что названия народных игр, являясь частью устного народного творчества, отражают образ жизни, обычаи и ценности народа как языковые единицы. Статья представляет теоретический и практический интерес для исследователей в области лингвистики, особенно в ономастике и этнолингвистике.

Ключевые слова: народные игры, ономастика, морфология, этнолингвистика, простое слово, составное слово, словосочетание, семантика, названия игр, традиции.

ONOMASTIC FEATURES OF THE NAMES OF UZBEK FOLK GAMES AND THEIR LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS

Nigora Urinovna Khomidova

Doctor of Philosophy and Philosophy (PhD), Acting Associate Professor
Navoi State University of Mining and Technology

Abstract. This article systematically analyzes the onomastic, morphological, and ethnolinguistic features of the names of Uzbek folk games. The transition of folk game names from the level of appellative lexicon to the onomastic level, their phonosemantic, semantic, and morphological aspects, as well as their synonymous variations (the phenomenon of polyonymy) are thoroughly studied. The expression of game names in simple, compound, and phraseological forms is considered an important criterion in determining their semantic load and communicative functions. The article provides explanations based on the origin, phonetic variants, semantic shifts, and cultural connotations of game names such as *Chavgon*, *Chillik*, *Halinchak* and *Burdam*. The results of the research show that the names of folk games, which are part of oral folk creativity, reflect the lifestyle, customs, and values of the people as linguistic units. This article is of theoretical and practical significance for researchers in linguistics, especially in the fields of onomastics and ethnolinguistics.

Keywords: folk games, onomastics, morphology, ethnolinguistics, simple word, compound word, word combination, semantics, game names, tradition.

Xalq (milliy) o'yinlarining nomlanishi bu – oddiy jarayon emas, balki xalqning donoligi, o'z kelajagini ta'minlaydigan yoshlarni tarbiyalaydigan ta'limiy-tarbiyaviy jarayonini o'zida ifodalagan onomasiologik jarayon. Biz xalq o'yinlari nomlarining

nomlanishini dastlab *o'yinlashuv* deb atagan edik. Bu – o'yinlarning nomlari shunchaki yaratilmaganligini, so'zsiz, ma'lum bir maqsad va vazifalar asosida yaratilganligini asoslaydi. Ularning nomlari so'z, aniqrog'i, sheva so'zlaridan shakllangan dialektal so'zlardan biri hisoblangan va ularda leksik ma'no shaklida dialektal ma'nolar o'z ifodasini topgan [1]. Sheva so'zlari fanda dialektal so'z (sheva vakillari tomonidan qo'llanganda) va dialektizm (ijodkorlar tomonidan sheva so'zlarining badiiy asarlarda qo'llangan ko'rinishi) deb ataladi. Ular adabiy tilda juda kam ishlatiladi yoxud umuman qo'llanmasligi bilan ajralib turadi. Ularga keyingi 40-50 yil ichida kam e'tibor berilgan. Sheva so'zlari fanda ikkita alohida termin bilan farqlab aytiladi: a) dialektal so'z (sheva vakillari tomonidan qo'llanadigan so'zlar majmuyi); b) dialektizm (badiiy asarlarda qo'llanilgan sheva so'zlari). Dialektal so'zlarning o'nta turi borligi masalasiga ham XXI asrning yigirmanchi yillarida aniqlik kiritildi [2]. Ularda, albatta, dialektal ma'nolar bo'ladi. Mana shu ma'nolari bilan ular sheva va lahjalararo o'zaro farqlanadi. Ular adabiy tilda kam ishlatilishi yoxud umuman qo'llanmasligi bilan boshqa so'zlardan ajralib turadi. 1971-yilda rasman "O'zbek xalq shevalari lug'ati" tayyorlanib nashr etilgan. Keyinchalik bu sohada ba'zi bir tadqiqotchilar o'zlarining shevalari leksikasi bilan shug'ullanishib, dialektal lug'atlarini nashr ettirishgan. Masalan, F.Abdullayevning "O'zbek tilining Xorazm shevalari", M.Mirzayevning "O'zbek tilining Buxoro gruppasi shevalari", O.Madrahimovning "O'zbek tilining o'g'uz lahjasi leksikasi", S.Raximovning "Surxondaryo o'zbek shevalari lug'ati", T.Nafasovning "Qashqadaryo o'zbek xalq so'zlari", N.Shoimovning "Qashqadaryo o'zbek qipchoq shevalari leksikasi", B.To'ychiboyevning "Zominning til qomusi" nomli lug'atlari tayyorlanib nashr ettirilgan. Ularda mavjud dialektal so'zlarning turlariga kam e'tibor berilganligi, kichik bir hudud shevasi leksikasi o'rganilganligi, ulardagi dialektal lug'at maqolalar hajman kichik, miqdoran kam, mazmunan ancha qashshoqligi bilan hamda transkripsiyasizligi bilan ajralib turadi.

"O'zbek shevalari leksikasi" turkumida nashr qilingan bir necha kitoblar lug'at emas, ilmiy tadqiqotlardir. Ularda dialektal so'zlarning bir shevadagi ko'rinishi, shakl va ma'no xususiyatlari, sohalar bo'yicha guruhlar, dialektal frazeologizmlar to'g'risida fikr yuritilgan. Dialektal leksika o'zbek xalq shevalarining leksik birliklari majmuyini anglatadi, xalq o'yinlari nomlari onomastik leksikaning alohida tizimli birligi sanaladi. Keyingi dialektologik tadqiqotlardan ayon bo'lib turibdiki, onomastik leksika ham dialektal leksikaning asosiy turlaridan biri hisoblanadi [2].

Adabiy til – me'yorlashtirilgan, ijtimoiy va madaniy vazifalarni bajara oladigan til tizimidir. U jamiyat tomonidan tan olingan qoidalar asosida shakllangan bo'lib, unda mintaqaviy fonetik va leksik xususiyatlar cheklangan holatda namoyon bo'ladi. Shu bois, dialektal leksika, ya'ni sheva va lahjalarda tabiiy shakllangan va rivojlangan leksik birliklar adabiy til qoidalari bilan to'liq uyg'unlashmaydi. Ammo bu leksik birliklar tilda xalqona va tabiiylik jihatidan muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Xalq tomonidan yaratilgan har bir narsa yoki hodisaning nomlanishida aynan xalq tili – sheva asosidagi soʻzlardan foydalanilganligi tabiiy va qonuniyatli holatdir. Bu hol ayniqsa xalq oʻyinlari nomlarida yaqqol koʻzga tashlanadi. Masalan, *Mak-mak*, *Zuv-zuv*, *Happaktosh*, *Yaxmalak*, *Shogʻuloq*, *Chertmak*, *Chillik* // *Chillak*, *Chigʻiriy*, *Chavgʻon*, *Churey-churey*, *Chanoq*, *Chori chamber*, *Oq tayoq-koʻk tayoq*, *Oq terakmi* – *koʻk terak*, *Oqsuyak*, *Oq quyonim alomat*, *Pishiq*, *Paqilloq*, *Tufaloq*, *Topgan topaloq*, *Tuxum urishtirish*, *Qopxat*, *Qadamatayoq*, *Qumtaka*, *Quloqchoʻzma*, *Quvlashmachoq*, *Dandarok*, *Dim-dim*, *Bekinmachoq*, *Beshtosh*, *Burdam*, *Echki oʻyini*, *Kim oladi-yo*, *Eshak mindi*, *Koʻchmak*, *Koʻrpa-yosti*, *Koʻtarma tosh*, *Halinchak*, *Quvlash*, *Qirs etdi*, *Sumalak*, *Soqqa*, *Mushuk-sichqon*, *Lappak*, *Lanka* kabi oʻyin nomlari oʻzbek xalqining qarluq, qipchoq va oʻgʻuz lahjalariga mansub shevalarida mavjud boʻlgan leksik birliklar asosida shakllangan.

Ushbu oʻyin nomlari tarkibida dialektal soʻzlar bilan bir qatorda taqlidiy soʻzlar ham muhim semantik vosita sifatida ishlatilgan. Masalan, *Mak-mak* va *Zuv-zuv* kabi nomlar bevosita taqlidiy tovushlarga asoslangan boʻlib, ular oʻyinning tavsifi, harakati yoki chiqargan ovozini ifodalash orqali semantik motivatsiyani yuzaga keltirgan.

Xalq oʻyinlari nomlari koʻpincha tabiiy tilda, ayniqsa dialektal qatlamda shakllangan boʻlib, ularning tarkibida taqlidiy soʻzlarning tutgan oʻrni alohida ahamiyat kasb etadi. Bu holat oʻyin nomlarining yuzaga kelishida ikki bosqichli motivatsion jarayon mavjudligini koʻrsatadi: birinchisi — lugʻaviy birlikning apellyativ leksikadagi shakllanishi, ikkinchisi esa – uning onomastik maqom kasb etib, maxsus nomga aylanishidir. Masalan, *Happaktosh* oʻyin nomi ikki taqlidiy soʻz: *hap* va *pak* birikmasidan tashkil topgan boʻlib, oraliqdagi chiziqcha talaffuzda oʻchib ketishi natijasida bu soʻzlar butun bir birlik sifatida qabul qilingan. Natijada, bu birlik apellyativ leksikadan chiqib, oʻyin nomi sifatida onomastik sathga koʻchgan. Shunga oʻxshash holat *Mak-mak* va *Zuv-zuv* kabi oʻyin nomlarida ham kuzatiladi: ular oʻzbek tilidagi taqlidiy tovush birliklaridan shakllanib, nomlash jarayonida maxsus semantik yuk olgan. Bu holatni quyidagi ketma-ketlik orqali izohlash mumkin: *mak-mak* > *Mak-mak*; *zuv-zuv* > *Zuv-zuv*; *hap-pak* > *Happak*.

S.Ahmadning “Jimjitlik” romanida bolalar oʻyini boʻlgan *Zuv-zuv* haqida maʼlumot berilgan. Oʻyin bolalar tilidadan shevaga xos *Zuv*, *zuvakam* tarzida qoʻllangan: “*Bolalar terlab, hansirab qaytib kelishdi. Yoshi kattarogʻi Tolibjonning oldiga kelib, davay, “zuv, zuvaka” oʻynaymiz, deb qoldi. – Bu qanaqa oʻyin? – dedi hayron boʻlib Tolibjon. – Hu anavi toshgacha nafas olmay “zuv” degancha chopib borish. Borguncha kim nafas olsa yutqizadi.* (Jimjitlik, 58)

Yuqorida koʻrsatib oʻtilgan oʻyinlarning nomlarida dialektal maʼnolari boʻlgani uchun sheva vakillari ularni tez va oson tushunib, oʻyinga ham kirishib ketishadi. Xalq milliy oʻyinlari nomlarining dialektal leksika materiallaridan shakllanishi oʻzbek

tilining qarluq, qipchoq va o'g'uz lahjalariga oid dialektal massiviga xos tabiiy xususiyatlardan biri sanaladi.

Demak, xalq milliy o'yinlari nomlarining sheva so'zlaridan shakllanishi odatdagi onomasiologik jarayonlardan biri bo'lgani singari ulardagi onomastik birliklar esa umumturkiy leksik qatlamga oid bo'lgani singari ularning asosiy qismi dialektal leksika birliklarining nom uchun tanlanib, onomastik leksika sathiga o'tgan dialektal leksik birliklardan tashkil topganligi ham tabiiy holdir.

Xalq milliy o'yinlari nomlanmasdan o'ynalib ketilmagan, chunki oldingi o'yinlardan ushbu o'yinni farqlashga asoslangan onomastik tamoyil va talablar ularga nom berish motivatsiyasini yuzaga keltirgan. Bir narsa va hodisani ikkinchi bir narsa hamda hodisalar bilan qiyoslash va farqlash zaruriyati tufayli ularga nom berish motivatsion jarayon yuzaga keladi. Bizningcha, bu motivatsiya so'zlarning apellyativ va onomastik leksika sathlariga ajratishdan oldin yuzaga kelgan, ya'ni bu – so'z paydo bo'lishidagi birinchi motivatsion jarayon sanaladi. Xalq o'yinlarining nomlanishi esa so'zlarga maxsus nomlilik ma'nosi yuklangani natijasida ro'y bergan ikkinchi motivatsion jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonning amalga oshishi, ijtimoiy sotsial tarzdagi turmush sharoitiga ham bog'liq.

Xalq o'yinlari nomlarida so'zlararo tizimli munosabatlar ham kuzatiladi. Leksik paradigmatic munosabat nuqtayi nazaridan bu nomlar erkaklar o'yinlari, ayollar o'yinlari va aralash o'yinlar kabi uch asosiy guruhga bo'linadi. Bunda boshqa paradigmalardan farqli o'laroq, onomastik paradigmalar shakl va mazmunning o'ziga xos farqlari asosida ajraladi. Ular umumijtimoiy semantik tafovutga ega bo'lmasdan, bir xil informativ qiymatga ega:

- “shaxs + erkak + o'yin + nom”;
- “shaxs + ayol + o'yin + nom”.

Ushbu ikki guruh esa jinsga xos belgilar asosida ixtisoslashgan bo'lib, ular bilan bog'liq bo'lmagan, ya'ni neytral o'yin nomlari uchunchi guruhni tashkil etadi. Bunday neytral birliklar “odam” leksemasining eng umumiy, jinsga bog'lanmagan ifoda shaklida namoyon bo'ladi va paradigmatic tizimda periferik o'rinni egallaydi.

Onimlardagi sinonimiya (polionimiya)

Nomlardagi sinonimiya boshqa lug'aviy birliklar sinonimiyasidan farq qiladi. Onimlardagi sinonimiya biror denotat tushunchasini ifodalashi bilan birlashmaydi, balki bir o'yinni ikki va undan ortiq so'z vositasi orqali ifodalashi bilan birlashadi. Shuning uchun bunday sinonimlik shartli hisoblanadi.

Tilimizda polionimiyaning quyidagi ko'rinishlari uchraydi. Birinchidan, ma'lum bir davr, sharoit, milliy til xususiyatlari bilan paydo bo'lgan polionimlar. Ma'lumki, barcha o'ynaladigan o'yinlar bilan bir qatorda, turli kasb egalarining ham o'ziga xos o'yinlari bo'lgan. Ba'zi tadqiqotchilar fikricha, Uloq (Ko'pkari) o'yini

chorvadorlar orasida keng tarqalgan ekan. Chorvadorlar orasida Ko'pkari (Uloq), Junto'p, Chimto'p, Podachi kabi o'yinlar o'ynalgan (ko'pgina sharq xalqlarida, jumladan, o'zbek chorvadorlari orasida keng tarqalgan *Chovgon*, *Chimto'p* o'yini asosida hozirgi vaqtda butun dunyoda o'ynalayotgan *Chim ustida xokkey* sport turi vujudga kelgan) [3]. Ikkinchidan, bir o'yinning turli millat vakillari tomonidan har xil nomlanishi: *O'rta tushar – Lapta*. Shunday qilib, bir o'yinni turli nomlar bilan atash polionimiya bo'lib, ular o'zaro funksional-uslubiy bo'yog'i bilan farqlanib qo'llanadi.

Xalq vakillari qadimdan o'zlari yashayotgan turmush sharoitiga moslab hamda kelajakni ko'zlab, yoshlarni jismonan pishiq, aqlan har tomonlama yetuk qilib tayyorlash uchun xalq o'yinlarini yaratishgan, ya'ni ularning ilk ko'rinishi va ilk o'yin qoidalarini shakllantirishgan. Buning uchun xalqning turmush sharoitlarining mohiyatini ifodalaydigan so'zlar majmuyini e'tiborga olish lozim. Bunday so'zlar majmuyi ikkinchi nom bilan etnografik leksika, ya'ni avlodlardan meros bo'lib kelayotgan an'ana, qadriyat va nomlarning, o'yin nomlari ham shuning mohiyatida turadigan so'zlar bilan ifodalangan ko'rinishi hisoblanadi [4].

Etnografiya so'ziga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagi izoh berilgan: "Etnografiya [yun. etnos – qabila, xalq+grapho]. 1. Tarix fanining xalqlarning kelib chiqishi, tarkibini, joylashishini, turmushini, rasm-rusmlarini moddiy, ma'naviy va ijtimoiy madaniyatini ko'pincha bevosita kuzatish yo'li bilan o'rgatadigan bo'lim. 2. Biror xalqning yoki bir hududdagi bir necha xalqning turmushi, madaniyati, urf-odatlariga xos xususiyatlar majmuyi. O'rta Osiyo etnografiyasi. Tarix-etnografiya ko'rgazmasi" [5]. Xalq urf-odati, qadriyati, turmush tarzi va an'analarni ifodalovchi so'zlar majmui etnografik so'zlar yoxud etnografik leksika hisoblanadi. Xullas, etnografik leksikaga xalq urf-odatlari, an'ana va qadriyatlari bilan birga xalq milliy o'yinlari nomlari ma'lum ma'noda o'z ifodasini topadigan leksik birliklar.

Chavgon o'yini, *Chillik o'yini*, *Ko'pkari o'yini* kabilarning nomi va ularning tabiiy amalda ro'y berishining mazmun-mohiyatiga e'tibor qilinsa, ularning mohiyatida etnografik leksikaga xos xususiyatlarni jamlagan leksik birliklar yig'ilgan. Ularning ma'nolariga e'tibor qilsak, *Chavgon o'yini* nomidagi *chavgon* so'zi quyidagi ma'no nozikligiga ega: "Chavgon so'zi forscha so'zlardan biri bo'lib, uchi egri tayoq degan ma'noni bildiradi. Uchi egri qilib tayyorlangan maxsus tayoq; shu tayoq va to'p bilan ot ustida o'ynaladigan jamoaviy sport o'yini. Chavkon so'zi aynan *chavgon* so'zining o'zi. Bu so'zda $g > k$ o'zgarishi ro'y bergan" [6]. Bulardan ko'rinib turibdiki, *Chavgon* yoxud *Chavkon* o'yin nomi bo'lib, bu o'yinda ot ustida turib, egri tayoq bilan to'p o'ynash amalga oshirilgan. Mazkur o'yin bilan o'n sakkiz yoshdan qirq yoshgacha bo'lgan erkaklar shug'ullanishgan.

P.Qodirovning "Yulduzli tunlar" va "Avlodlar dovoni" romanlarida *Chavgon* o'yini tasviri keltirilgan. Temuriy shahzodalar o'ynaydigan mazkur o'yinning o'z

davrida juda ommalashganini quyidagi matndan bilish mumkin: *Beginning parishon nazari tushib turgan ko'kalamzor maydonda esa bir to'p otliq qizlar chavgon o'ynamoqda. Ular Xonzoda begimday mashhur kayvoni o'yinga qarab turganidan ruhlanib, jon-jahdlari bilan chavgon to'pini muxoliflar darvozasiga kiritishga intiladilar. Bir taraf darvoza bo'z otliq qizlar himoyasida. Qora otliqlarga ikkinchi darvoza berilgan. O'yinchilarni farq qilish oson bo'lishi uchun bo'z otliq qizlar sariq rangli cholvor va nimcha kiyishgan. Qora otliqlar esa qizil kiyimda. Hindol mirzoning yoshgina xotini Sultonim begim maydon atrofida saman otini yo'rttirib, o'yinga hakamluk qiladi. Uning qo'lida zargarlar bulbulga o'xshatib chiroyli qilib yasagan oltin hushtak. Qoidani buzganlar shu hushtak bilan ogohlantiriladi...*(Avlodlar dovoni, 3-b).

Chillik o'yini terminidagi *chil* so'zi o'yin nomiga asos, *-lik* esa o'yin nomi uchun formant, ya'ni qo'shimcha sanaladi. Chillik onomastik birligi apellyativ leksikada quyidagi ma'nolarga ega: "Chil so'zi shevalarda uzun tayoqning ma'lum bir uzunlikda maydalangan, sindirilgan (*chil-chil*); kurashda qo'llanadigan usul: *chil* usuli, *chil* solib yiqitish usuli. *Chil* so'ziga umumlashtiruvchi ma'noni yuklovchi *-lik* qo'shimchasi qo'shilgach, *chillik* – ma'lum uzunlik me'yorida qisman mayda holga keltirilgan xoda – uzun, kalta tayoqlarni ifodalovchi so'zga aylanadi. *Chillik* – ma'lum uzunlik me'yorida qisman mayda holga keltirilgan xoda – uzun, kalta tayoqlar vositasida va ma'lum bir qoida(lar) asosida o'ynaladigan o'yin turi". U onomastik sathda bir butun holda o'yinning nomi va o'yinning o'zini anglatadigan holga kelgan. Ushbu o'yin bilan asosan o'n-o'n besh yoshlardagi o'g'il bolalar, ba'zan esa ulardan yoshi kattalar ham emin-erkin shug'ullanishadi.

Bulardan anglashiladiki, xalq (milliy) o'yinlari aqlli, sergak, dono, bilimdon va kelajakni yorqin tasavvur qiladigan xalq vakillari tomonidan farzandlarining, ya'ni yoshlarning kelajagini o'ylab, donolik bilan yaratilganki, ularning nomlari ma'nosida yaratilgan davrdagi xalq(lar)ning turmush tarzi, an'anasi, urf-odatlarini mujassamlashgan so'zlardan shakllanganligi tabiiy holdir.

Xalq o'yinlari nomlari morfologik tuzilishi jihatdan quyidagicha tasniflanadi:


- sodda so'z (sodda tub va sodda yasama) shaklidagi xalq o'yinlari va nomlari: *Uloq, Kurash, Burdam, Chavgon, Ov, Boks, Yoyandozlik, Qilichbozlik, Chillik* kabi;
- qo'shma so'z holatidagi xalq o'yinlari va nomlari: *Qadamatayoq, Qorbo'ron* kabi;
- so'z birikmasi ko'rinishida shakllangan xalq o'yinlari va nomlari: *Arqon tortish, Xo'roz urushtirish* kabi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, sodda va qo'shma so'z shaklidagi o'yin nomlariga "o'yin" so'zi qo'shilsa, o'yinlar sodda yoki qo'shma so'zlikdan chiqib, birikmali holatga kelib qoladi. Misollar: *Boks – Boks o'yini, Ko'pkari // Uloq – Ko'pkari o'yini // Uloq o'yini, Shashka – Shashka o'yini, Chillik – Chillik o'yini, Futbol – Futbol*

o'yini, Yugurish – Yugurish o'yini, Qorbo'ron – Qorbo'ron o'yini, Qadamatayoq – Qadamatayoq o'yini va boshqa o'yin nomlari ham misollar jumlasiga kiradi. Quyida bular haqida maxsus to'xtalinadi. Albatta, ularning nomlarining to'liq onomastik izohini berish qiyin, shuning uchun ulardan ba'zilarining onomastik izohiga to'xtalish o'rindir.


Ushbu sodda va sodda yasama shaklidagi xalq o'yinlari nomlarida so'z yasalishi jarayoni apellyativ leksika sathida bo'lgan, biroq onomastik leksika sathida u bilinmas darajaga kelib qolgan [7]. Xalq milliy o'yinlarining aksariyati sodda so'z shaklidagi o'yinlardir: Paqilloq, Lanka, Chig'iriq, Yong'oq, Halinchak, Shashka kabi.

Halinchak – sodda so'z shaklidagi harakatli o'yin turlaridan biridir. Bu o'yin nomining xalq orasida bir qancha fonetik variantlari mavjud: *hayinchak // hayinchalak// halinchak// halinchog'// hangilchalak// hangulchak// hanulchak// hanganchak* kabi. Bu o'yin asosan Navro'z bayrami arafasida va bayram kunlari bilan bog'liqdir. Sayil kunlarida, odatda, xotin-qizlar bu o'yni o'ynashadi. Daraxtlarning baquvvat shoxlariga o'rnatilgan arg'imchoqqa navbati bilan uchishadi. Arg'imchaqni tebratayotgan qizlar tilidan aytiladigan bir qancha qo'shiq namunalari ham mavjud.



M.Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarida halinchak o'yini “yalngu” ko'rinishida uchraydi va asosan qiz-juvonlar o'ynashi ta'kidlanadi.

Burdam – sodda yasama so'z holatidagi o'yin nomidir. Uning kelib chiqishini *berdim* yoxud fors-tojikcha *xurdam* so'zlariga bog'lash mumkin. Agarda oshga xo'roz yoki tovuq go'shti solingan bo'lsa, uning bir joyida bir suyakdan shakllangan o'n-o'n ikki santimetrlik juft suyagini topgan burdam o'yinini boshlovchi (tomon) ikkinchi tomon esa o'yin shartlariga rioya qilib, o'yinni davom ettiruvchi bo'ladi. O'yinni boshlovchi tomon suyakni *Mana* deb taqdim etganda ikkinchi o'ynovchi tomon *Esimda* so'zini aytib suyakni olsa, yutqazmagan bo'ladi va o'yin shu tarzda davom etaveradi. Vaqt o'tishi bilan boshlovchi raqib o'yinchi raqibiga xo'roz yoki tovuq go'shtining suyagini bersa, (o'yinchilar o'yinni davom ettirish uchun ularning qo'lida xo'roz yoki tovuq go'shtining suyagini bo'lishi kerak) raqibi esa, *Esimda* so'zini unutib, shu so'zni aytmasdan berilgan narsani bilmasdan olsa, u yutqazgan bo'ladi. Shu tarzda o'yin tugaydi. O'yin so'zi bilan birikishi o'yin nomini hosil qiladi.



Uloq (Ko'pkari) – sodda soʻz koʻrinishidagi oʻyin nomi boʻlib, bu atama ilk bor H.Vamberi asarida qoʻllanilgan. H.Vamberi Turkmanistonda boʻlganligida bu oʻyinni koʻrganligini aytadi va uning nomini *ko'kbo'ri* tarzida keltiradi. Ammo etnograf A.Jikiyev H.Vamberining bu qarashiga qoʻshilmaydi [8]. A.Qodiriyning “Uloqda” hikoyasi boshdan oyoq milliy oʻyinning tavsifiga bagʻishlangan. Uloq oʻyini taʼriflar ekan, yozuvchi oʻyin bilan bogʻliq bir qancha terminlardan foydalanadi: *uloq, chavandoz, yugan, qamchi, ot* kabi. Asarda uloq tasvirlangan oʻrinni oʻqir ekan, kitobxon voqealarni goʻyoki oʻz koʻz oʻngida koʻrgandek boʻladi: ... *“Birisi oladi, ikkinchisi tortadi. Ikkinchisining yoniga uchinchisi va toʻrtinchisi qoʻshilib, birdan sakkiz tomonga tortqilashadilar, oraga chetdagi uloqchilar ham siqilishib kirib, yana uloqni buydalashadilar. Juda qiziq... har kim uloqni oʻz taqimiga bosish harakatida, lekin uloqning dumidan, oyogʻidan, yolidan tortuvchilar juda ham koʻp. Toʻddan olib chiqish juda qiyin. Baʼzan uloqni toʻddan olib chiquvchi ham koʻrinib qoladi, biroq uning ketidan uloqchilar chugʻurchuqdek yopirilishib oʻn-oʻn besh qadamda tutib oladilar. Yana tortish boshlanadi. Bu yoqdagi tomoshachilar: “Taqimga bos, taqimga!”, “Otning boshini qoʻy, choviga qamchini shigʻab ber!”, “Boʻsh kelma, mahkam tut!”, “Yuganini boʻshat, qamchingni tishlab ol, yoningga alahsima!”, “Olding, olding!”, “Berma, chapga burul, chapga!”, “Tut, qoʻyma!”, “Voy toʻymagur, berib yubording-a, oʻz koʻnglingda sen ham uloqchisan-da!”, “Oting harom qotsin, otmi, eshakmi – bu harom oʻlguring?”... deb har xil tovushda baqirishadilar. (Uloqda)”* [9].



Xalq oʻyinlari nomlarining tahlili shuni koʻrsatdiki, ularning shakllanishida bir qancha lingvistik va madaniy omillar oʻzaro uzviy bogʻliq holda namoyon boʻladi. Birinchidan, oʻyin nomlari apellyativ leksika qatlamidan onomastik sathga oʻtish jarayonida dialektal va taqlidiy birliklar asosiy motivator boʻlib xizmat qiladi. *Mak-mak, Zuv-zuv, Happak* kabi nomlar fonosemantik motivatsiya orqali oʻyinlarning harakat xususiyatini ifoda etadi va shu bilan birga maxsus nom sifatida mustahkamlanadi.

Ikkinchidan, oʻyin nomlarining sinonimik (polionimik) jihatlari ularni boshqa lugʻaviy birliklardan ajratib turadi: bir oʻyin turli sharoit va davrlarda turlicha nomlanib, ularning funksional-uslubiy boʻyoqlari, semantik diapazonlari kengayadi. Masalan, *Uloq* va *Ko'pkari*; *O'rtaga tushar* va *Lapta* kabi juftliklar shartli sinonim orqali madaniy hamda kommunikativ ehtiyojlarga mos ravishda almashadi.

Uchinchidan, oʻyin nomlarining morfologik tuzilishi – sodda soʻzlardan tortib, qoʻshma soʻz va soʻz birikmalarigacha – ularning semantik va pragmatik funksiyasini koʻrsatadi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq o'yinlari nomlari nafaqat lingvistik hodisa, balki onomasiologik va etnolingvistik tadqiqot obyekti sifatida ham katta ahamiyatga ega. Ularning tahlili orqali tilda dialektal-fonosemantik sxemalar, motivatsion jarayonlar, sinonimik va morfologik xususiyatlar aniqlandi. Kelgusida mazkur nomlarning regional variantlari, tarixiy-etimologik ildizlari va ularning yosh avlodning madaniy ongiga ta'siri bo'yicha chuqurroq tadqiqotlar o'tkazish zarur.

Adabiyotlar:

1. Enazarov T., Iskandarova O. Dialectal word status. Open Access Article Received: November 18, 2021 / Revised: December 09, 2021 / Accepted: January 30, 2021 / Published: February 17, 2022 About the authors: Enazarov T Corresponding author/ Email: Vol. 49. No. 02. February 2022.; 49; 02 2022 Journal of Hunan University (Natural Sciences). – P.258-265.
2. Enazarov T.J. O'zbek dialektologiyasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Mahalla va oila, 2021. – B.66-71.
3. Milliy va harakatli o'yinlar. Darslik. T.S.Usmanxodjayev va boshq. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2015. – B. 50.
4. Ҳабибулла Ғафур. Халқ ўйинлари, кўшиқлари ва анъаналарига бир назар.– Тошкент: Камалак, 1992. – Б. 4
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2006. 5 томлик. 5-том. – Б.64.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2006. 5 томлик. 3-том. – Б.445.
7. Суперанская А.В., Сталтмане В. Э., Подольская Н. В., Султанов А. Х. Теория и методика ономастических исследований. – М.: Наука, 1986. – С.153-189.
8. Джикиев А. Традиционные туркменские праздники, развлечение и игры. – Ашхабад: ЎЛЫМ, 1983. – С.59.
9. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qodiriy-1894-1938/abdulla-qodiriy-uloqda-hikoya>

ARTIONIMLARDA LINGVOMADANIY KODLAR

Azamatova Odinaxon Obidovna

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilida artionimlarning qo'llanilishini, ularning o'zbek tili onomastik makonidagi o'rnini, kommunikativ va lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etish natijasida tarixiy, ma'naviy-ma'rifiy hamda madaniy omillarni hisobga olgan holda artionimlarning badiiy-estetik belgilarini aniqlashda lingvomadaniy, xususiyatlarning, xalqning tili, tarixi va urf-odatlarini, geografiyasi va

tabiati haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi madaniy kodlarning ahamiyati yoritib berilgan. Artionimlarning vazifasi qabul qiluvchining ongida tasvir bilan bog'liq bo'lgan ma'lum bir tasavvurni yaratishdan iborat. Nomlash jarayonida musavvir xalqning tasavvurlari, milliy qadriyatlari, urf odatlariga asoslanadi. Tasvirning nomi bo'lgan onomastik birliklar – artionimlar madaniy kodlarda ifodalanadi. Chunki o'sha nomlarda millatning tili va tafakkuri aks etadi. Har bir millatning milliy shartlangan olamning lisoniy manzarasiga ega ekanligi tilshunoslikda har qachon e'tirof etiladi.

Kalit so'zlar: onomastika, ko'lam, ideonim, artionim, madaniyat, lingvomadaniyat, kod, madaniy kod, kognitiv, estetik, nominativ, lingvistik, tamoyil.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ КОДЫ В АРТИОНИЗМАХ

Азаматова Одинахон Обидовна

доктор философии по филологическим наукам (PhD)

Андижанский государственный педагогический институт

Аннотация. В статье рассматривается употребление артионимов в узбекском языке, их место в ономастическом пространстве узбекского языка, их коммуникативные и лингвокультурные особенности, а также подчеркивается значение лингвокультурных, культурных и языковых кодов, содержащих информацию о языке, истории и традициях народа, географии и природе, в определении художественно-эстетических характеристик артионимов с учетом исторических, духовных, образовательных и культурных факторов. Функция артионимов заключается в создании в сознании получателя определенного представления, связанного с изображением. В процессе наименования художник основывается на представлениях народа, национальных ценностях, обычаях. Ономастические единицы - артионимы, являющиеся названиями образов, выражаются в культурных кодах. Потому что в этих названиях отражаются язык и мышление нации. В лингвистике всегда признается, что каждая нация имеет языковую картину национально обусловленного мира.

Ключевые слова: ономастика, сфера, идеоним, артионим, культура, лингвокультура, код, культурный код, когнитивный, эстетический, номинативный, лингвистический, принцип.

LINGUOCULTURAL CODES IN ARTIONISMS

Azamatova Odinakhon Obidovna

Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)

Andijan State Pedagogical Institute

Abstract. This article examines the use of artionyms in the Uzbek language, their place in the onomastic space of the Uzbek language, their communicative and linguocultural characteristics, and highlights the importance of linguocultural, cultural, and linguistic codes that contain information about the language, history, and traditions of the people, geography, and nature, in determining the artistic and aesthetic characteristics of artionyms, taking into account historical, spiritual, educational, and cultural factors. The function of artionyms is to create in the recipient's mind a certain representation related to the image. In the process of naming, the artist is based on the ideas of the people, national values, and customs. Onomastic units - artionyms, which are names of images, are expressed in cultural codes. Because in these names, the language and thinking of the nation are reflected. In linguistics, it is always recognized that every nation has a linguistic picture of the nationally determined world.

Keywords: onomastics, sphere, ideonym, artionim, culture, linguaculture, code, cultural code, cognitive, aesthetic, nominative, linguistic, principle.

Kirish. O‘zbek tilida artionimlarni onomastik birlik sifatida o‘rganilishi, ularning sistem-struktur jihatida bilan birga ularda yashiringan lingvomadaniy va ma’naviy jihatlarini ham tahlil qilishni taqozo etadi.

Dunyo tilshunosligida til va tafakkur, til va madaniyat, xususan, nom va nomshunoslik masalasi antik davrdan boshlab faylasuf va tilshunos olimlarning e’tiborini tortgan. Jumladan, yunon tilshunosligida “Demokrit va boshqalar tilda narsa nomi bilan narsa orasida hech qanday bog‘lanish yo‘q, bu nomlar mazkur tilda gaplashuvchi odamlar tomonidan yaratilgan, demak, til inson tomonidan yaratilgan, degan fikrni ilgari surishgan. Platon boshliq boshqa bir guruh olimlar narsa bilan uning nomi orasida muayyan bog‘lanish bor. Bu bog‘lanish narsalarning xususiyatlaridan, tabiatidan kelib chiqqan va bu bog‘lanish ilohiy kuch tomonidan o‘rnatilgan” [2:77] degan fikrni bildirganlar. Qoraxoniylar davrining noyob durdonasi hisoblanmish “Devoni lug‘otit-turk” asarida esa, Mahmud Koshg‘ariy 6800 dan ziyod turkiy so‘zlarni guruhlashtirib, ulardan 110 hudud, ko‘l va daryo, 40 elat va qabila nomlarining turkiy tildagi izohlari keltirilgan.

Asosiy qism. Onomastika tilshunoslikda atoqli otlarning lingvistik xususiyatlarini tadqiq etish maqsadida paydo bo‘lgan istiqbolli yo‘nalishdir. “Onomastika” atamasi, shuningdek, “onim” atamasi bilan belgilanadigan maxsus ismlar to‘plami deb nomlanadi va u tilshunoslikning atoqli otlar nomlarini, ularning paydo bo‘lishi, rivojlanishi, tutgan o‘rni, shuningdek, barcha atoqli nomlar yig‘indisini o‘rganadi.

Artionomlarni leksik birlik sifatida ham, tasviriy san’at asarlarining nomi sifatida ham, madaniyat birliklari sifatida ham ko‘rish mumkin. Bu atama “san’at

asarlarining nomlari” guruhini ideonimlar makroko‘lamining kichik ko‘lamchasi sifatida belgilangan nomdir. “Artionim – ideonimiya turi, san’at asari nomi (rangtasvir, grafika, plastika san’ati, haykal, musiqa, kino, teatr)ni ifodalashi” [8: 48] ni hamda “artionimlar ostida, biz san’at asarlarinomlarini bildiruvchi va har qanday tilning madaniy mazmunini aks ettirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan tegishli nomlar guruhini tushunamiz [8: 58] deya ta’kidlab o‘tgan edi N.V.Podolskaya.

Millatning millat ekanligini bildiruvchi asosiy vosita uning tili va madaniyati hisoblanadi. Ular bir-birlarini doimiy taqozo qiluvchi hamda ajralmas tushunchalar. Til har sohada millatning madaniyatini ifodalaydi, madaniyat tilsiz mukammal emas. So‘nggi yillarda jahon tilshunosligida tilning millat tarixiy tajribasi, madaniy taraqqiyotidan ma’lumot tashuvchi onomastik birliklari va ularning madaniy kodning madaniy semantikasi bilan aloqasini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarga keng o‘rin berilmoqda. Zotan, onimlar – tilning avlodlar tajribasiga doir bilimlarni to‘plash, jamlashdan iborat kumulyativ vazifasini voqelantiruvchi unsurlarga, hatto, jamiyatning siyosiy-mafkuraviy hayotida ahamiyatli unsurlar sifatida qaralmoqda.

Madaniy kodlar xalqning milliy-madaniy xususiyatlari bilan bog‘liq. Ular milliylikni xalqning urf-odatlarini, qadriyatlarini va me’yorlarini o‘zida aks ettiradi. Jumladan, artionimlar ham nafaqat nominativ ma’noni tashuvchi, balki, xalqning tili, tarixi va urf-odatlarini, geografiyasi va tabiati haqida juda ko‘p ma’lumotlarni o‘z ichiga oluvchi madaniy kodlardir. Nomlash jarayonida musavvir xalqning tasavvurlari, milliy qadriyatlarini, urf odatlariga asoslanadi. Demak, tasvirning nomi bo‘lgan onomastik birliklar – artionimlar madaniy kodlarda ifodalanadi. Chunki, o‘sha nomlarda millatning tili va tafakkuri aks etadi. Har bir millatning milliy shartlangan olamning lisoniy manzarasiga ega ekanligi tilshunoslikda har qachon e’tirof etiladi. Shu boisdan ham olamning lisoniy manzarasini millatning tafakkurini ko‘rsatuvchi omil sifatida aytish mumkin.

M.Lotman adabiy matn – bu dunyoning ma’lum bir modeli, adabiy tildagi ma’lum bir xabar, matndan tashqari aloqalar sababli matnning ahamiyatini oshiradigan badiiy kodlar tizimi [7: 96] deb hisoblaydi. Nom tanlashda muallif uchun mantiq asos bo‘ladi. O‘sha mantiq individul va u rassom tomonidan belgilanib, uning uchun asar yaratish jarayoni, ichki kechinmalari, ifodasini ko‘rsatish rasmning g‘oyaviy jihatini yoritib bera oladigan nom qo‘yish muallifning mantiqiy so‘z tanlash qobiliyatini yorituvchi jarayondir. Shuningdek, bu o‘rindagi asosiy vazifa rassomning shaxsiy bilimlari va ma’lum lingvistik vositalarni tanlash natijasida, imkon qadar to‘liq ma’noni o‘zida mujassam etgan dunyo haqidagi bilimlarining estetik ta’siridir. Demak, rasmga qo‘yilgan nom rassomning aql-zakovatida shakllangan yaxlitlik bo‘lib, uning fikri, g‘oyasi va hissiy tuyg‘usini anglash hamda idrok etish imkonini beradi. Ya’ni muallifning tanlagan artionimi uning nima demoqchi ekanini tilga xos bo‘lgan leksema asosida yangi ekspressiv ma’no xususiyatlarini ochib beradi. Artionimlardagi estetik

vazifa tomoshabin his-tuyg'ularini rasm mazmuniga singishi orqali uyg'otishdir. Sababi, o'sha nom rassomning ijodiy harakatini san'at asari darajasiga aylanishida estetik funksiyasi ro'yobi natijasidir.

Kuzatishlar asnosida qo'llangan artionimik birliklar tilning lingvomadaniy xususiyatlarini ochib beruvchi so'z kontseptining asos bo'lganligiga amin bo'lamiz. Tasviriy san'at asarlari nomlari o'rganish asnosida bir necha madaniyat kodlarini tavsiflash mumkin:

1. Tarixiy kod. Artionimlar xalq tarixining bir qismidir. Ushbu madaniy kod ostida xalqning hayotidagi muhim tarixiy sanalar, badiiy adabiyoti, dini va e'tiqodi, buyuk olim va yozuvchilari, mehnat faoliyati va turmush tarzi haqidagi mental xususiyatlari aks etadi:

Tarixi: *"16-yil qo'zg'oloni"* (O'rol Tansiqboyev), *"Amir Temur va Boyazid"* (Chingiz Axmarov), *"Amir Tumor va Misrning Mamluk sultoni jangi"*, (Kamoliddin Behzod), *"Amir Temurning To'xtamishxon ustidan qozongan g'alabasi"* (Alisher Aliqulov), *"Sayid Baraka Amir Temurga bayroq topshirmoqda"* (Muhammadxon Nuriddinov), *"40-yillar"* (Lutfulla Abdullayev), *"37-yil"* (Tohirjon Mirjalilov).

Badiiy adabiyoti: *"Iskandarning suv tubiga tushishi va Hindistonga sayohati"* (Chingiz Axmarov), *"Fuzuliyini o'qib"*, *"Kumush va Zaynab"* (Alisher Mirzayev), *"Alpomish va Oybarchin"* (O'rol Tansiqboyev), *"Layli va Majnun"* (Sobirjon Rahmetov), *"Shum bola"* (Bobur Ismoilov), *"Iskandarnoma"*, *"Zafarnoma"*, *"Mantiq ut-tayr"*, *"Xamsa"* (Kamoliddin Behzod).

Dini va e'tiqodi: *"Dovud va Shoul"*, *"Payg'ambarlar tarixidan. Shoh Sulaymonda bayram"* (Niyozali Xolmatov), *"Shaytonni bo'g'ish"* (Baxtiyor Mahkamov), *"Jannat yo'li"*, *"Namoz vaqtlari"* (Tatyana Fadeyeva), *"Xushbo'y Jannat"* (Akmal Nur), *"Mingta farishta va bir kartina"* (Lekim Ibrohimov).

Buyuk olim va yozuvchilari: *"Abu Rayhon Beruniy"*, *"Ahmad al-Farg'oniy"*, *"Mirzo Ulug'bek"*, *"Ar-Roziy portreti"* (Malik Nabiyev), *"Farobiy musiqasi"* (Zaynidin Fahridinov), *"Abu Ali ibn Sino"* (Xurshid Ziyaxanov).

Mehnat faoliyati va turmush tarzi: *"G'alla elayotgan ayol"* (Nikolay Karaxan), *"Dala shiypomidagi yasli"* (Diler Imomov).

2. Pretsedent kod. Artionimlarga nom sifatida dunyo miqyosida yoki muayyan millat ichida tanilgan mashhur kishilar, adabiy qahramonlar, madaniy obyektlar nomi, ya'ni pretsedent birliklar tanlanadi.

Xalqimiz orasida shuhrat qozongan mashhur kishilar va adabiy qahramonlar: *"Saroymulkxonim"*, *"Gavharshodbegim"* (Ortiqali Qozoqov), *"Abror Xidoyatov Otello rovida"*, *"Lutfi Sarimsoqova"*, *"Mannon Uyg'ur"* (Abdulhaq Abdullayev), *"Nabi Rahimov"*, *"Shuhrat Abbosov"* (Rahim Axmedov), *"Qo'rqmas Muxitdinov portreti"* (Sobirjon Rahmetov), *"Botir Zokirov portreti"* (Ro'zi Choriyev).

Madaniy obyektlarning tasviri bilan ifodalangan nomlar: “Samarqand masjidlar”, “Ark ichra” (Alisher Mirzayev).

Milliy maishiy xizmat obyektlarining nomlari: “Buxoro rastachilari” (Alisher Mirzayev), “Ustaxonada” (Sobirjon Rahmetov), “Tegirmon” (Hasan Aminov), “Anor choyxonasi” (Aleksandr Volkov), “Qovun bozori”, (Zokir Inog‘omov), “Hovuz bo‘yidagi choyxona” (Zinaida Kovalevskaya) va boshqalar pretsedent matnga misol bo‘lib, zamonaviy tilshunoslikda boshqa matnlarni modellashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi, ichki qo‘llanuvchi matn hamda hammaga ma‘lum bo‘lgan matn sifatida bevosita tomoshabinni jalb qila oladi.

3. Kosmogonik kod. Bu madaniy belgi asosida rassom osmon jismlari samoviy mavjudotlarni aks ettiruvchi artionimlardan ifodalanadi: “Katta ayiq yulduzlar turkumi ostida vidolashish” (Xurshid Ziyaxanov).

4. Makon kodi: Artionimlarda bu madaniy kodning ifodalanishida milliy-madaniy tamoyillar asosidagi etnos madaniyatning tarkibiy qismi hisoblangan toponimik tizimlar, shuningdek, xalqning tarixini aks ettiruvchi madaniy-ma‘rifiy joy nomlari, milliy mahalla va ko‘chalarning nomlanishi.

Topoartionimlarda: “Tongda Tojmahal” (Abdulhaq Abdullayev), “Qamchiq dovoni” (Ortiqali Qozoqov), “Samarqand Darboza” (Bobur Ismoilov), “Olloqulixon madrasasi Ma‘mun akademiyasi” (To‘ra Qurniyozov);

Gidroartionimlarda: “Kattaqo‘rg‘on suv ombori qurilishida” (Oganes Tatesova), “Amudaryoda oqshom” (Ro‘zi Choriyev), “Katta Farg‘ona kanali” (Muhammadxon Nuriddinov);

Godoartionimlarda: “Eski shahar ko‘chasi” (Zinaida Kovalevskaya), “Eski Toshkent mahallasi” (Baxtiyor Mahkamov) va boshqalar.

5. Milliylik kodi. Artionimlarda xalqning yashash tarzi, qiziqishlari, urf-odatlarining nomlanishida milliylikning aks etishi.

Milliy sport: “Kurash” (O‘rol Tansiqboyev), “Uloq”, “Poyga”, “Yoyandozlik”, “Nayza uloqtirish”, “Tosh ko‘tarish” (Alisher Aliqulov), “Otda koptok o‘yini” (Xurshid Ziyaxanov), “Chovgon o‘yini” (To‘ra Qurniyozov), “Kamondan otish”, “Buqa jangi” (Qutlug‘ Basharov).

Milliy urf-odatlar va marosimlar: “Beshik to‘y” (Zokir Inog‘omov), “O‘g‘il to‘y” (Bobur Ismoilov), “So‘g‘d to‘yi” (Kamoliddin Behzod), “So‘zana Kelin”, “Shohi so‘zana”, “Hosil bayrami” (Qutlug‘ Basharov), “Xo‘roz janggi” (Eshmamat Xaitov) “Qaynona-kelin” (Akmal Nur).

Xalqning yashash tarzidagi milliylik: “Guvala devor”, “Suv tashuvchi” (Bobur Ismoilov), “Tandir yonida”, “Obinon” (Akmal Nur), “Sopolli tom” (Xurshid Ziyaxanov), “Qadrdon ovulda”, “Bizning hovli”, “Tegirmon” (Ortiqali Qozoqov), “Mirob” (Malik Nabiyev), “Issiq non” (Erik Kulmanov), “Shirmoy non” (Yigitali

Tursunnazarov), *“Tor ko‘cha”* (Muhammadhon Nuridinov), *“Qishloqdagi hayot”*, *“Devor”* (Dilorom Mamedova), *“Yamalgan choyshabdagi tush”* (Bobur Ismoilov).

Milliy san‘atning ifodalanishi: *“Raqs”* (Sarvar Yo‘ldoshev), *“Doira ushlagan qiz”* (Nadejda Kashina), *“Buxorocha raqs”*, *“O‘zbekcha raqs”*, *“Barigal”*, *“Raqsga tushayotgan darveshlar”* (Kamoliddin Behzod), *“Xorazmcha raqs”* (O‘rol Tansiqboyev), *“Milliy musiqa guruhi”* (Xurshid Ziyaxanov), *“Kashmir qo‘shig‘i”* (Chingiz Ahmarov), *“Yolg‘iz masxaraboz”* (Akmal Nur), *“Sharq kuychisi”* (Javlon Umarbekov), *“Haydali kuyi”* (Alisher Mirzayev), *“Doirakash”* (Akmal Nur) va boshqalar.

6. Vaqt kodi. Madaniyatning vaqt kodini ifodalovchi artionimlar tarkibiga kiruvchi nomlar mifologik madaniyatning kodi, vaqtni tarixiy idrok etish kabi lingvistik vositalardan tasviriy san‘at janrlarini qamrab olish orqali amalga oshiriladi. Jumladan:

Vaqtning fasl va oylar nomiga nisbatan keltirilgan sarlavhalar: *“Tog‘da kuz”*, *“O‘zbekistonda bahor”*, *“Kuz tongi”*, *“Bahoriy ishlar”*, *“Qizil kuz”*, *“Tog‘da bahor”*, *“Qirmizi kuz”*, *“O‘zbekistonda mart”*, *“Bo‘stonliqda bahor”*, *“Tog‘ bahori”*, *“Bahor”*, *“Oltin kuz”* (O‘rol Tansiqboyev), *“Yoz”*, *“Bahor keldi”* (Abdulhaq Abdullayev), *“Isfarada bahor”* (Bahodir Jalolov), *“Kuz ne‘matlari”* (Ortiqali Qozoqov), *“Qish”*, *“Bahor. Sherobod manzarasi”* (Alisher Aliqulov), *“Kuzgi Hoshgoh”*, *“Yozda”* (Sobirjon Rahmetov), *“Yomg‘ir mavsumi”* (Tatyana Fadeyeva), *“Oltin kuz shamoli”* (Eshmamat Xayitov), *“Bahor parvozi”*, *“Kuzning oltin mevalari”*, *“Yozgi guldasta”*, *“Miroqdagi kuz”* (Akmal Nur), *“Qish go‘zalligi”*, *“Kuz Moskva”* (Dilorom Mamedova).

Kun va kunning ma‘lum bir vaqti nomini ifodalash xususiyatiga ega bo‘lgan tasvir yoki tasvirlangan voqeaning vaqti: *“Qiz ketganda tong”* (Jolliboy Izantayev), *“Dam olish kunida”*, *“Chirchiq yo‘lida tong”* (Konstantin Cheprakov), *“Kun oxiri”* (Furqat Bozorov), *“Tushki dam olish”* (Nadejda Kashina), *“Ovqatlanish mahali”* (Nikolay Karaxan), *“Cho‘lda oqshom”* (Obidjon Bakirov).

Muayyan tarixiy voqealarni aks ettirish uchun yil va sanalar ko‘rsatilgan nomlar: *“16-yil qo‘zg‘oloni”* (O‘rol Tansiqboyev), *“Jizzaxdagi 16-yilgi qo‘zg‘olon”* (Malik Nabiyeu), *“41-yil olmalari”* (Javlon Umarbekov), *“40-yillar”*, *“37-yil”* (Toxirjon Mirjalilov).

Xulosa. Demak, madaniy kodlar xalqning milliy-madaniy xususiyatlari bilan bog‘liq. Ular milliylikni xalqning urf-odatlar, qadriyatlari va me‘yorlarini o‘zida aks ettiradi. Artionimni o‘z ichiga olgan artionimik tamoyil xalqning madaniy va tarixiy o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi hamda shaxs nomining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Shuningdek, artionimlarning vazifasi qabul qiluvchining ongida tasvir bilan bog‘liq bo‘lgan ma‘lum bir tasavvurni yaratishdan iborat. Nomlash jarayonida musavvir

xalqning tasavvurlari, milliy qadriyatlari, urf odatlariga asoslanadi. Tasvirning nomi bo'lgan onomastik birliklar – artionimlar madaniy kodlarda ifodalanadi. Chunki o'sha nomlarda millatning tili va tafakkuri aks etadi. Har bir millatning milliy shartlangan olamning lisoniy manzarasiga ega ekanligi tilshunoslikda har qachon e'tirof etiladi. Shu boisdan ham olamning lisoniy manzarasi millatning tafakkurini ko'rsatuvchi omildir.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 40.
2. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2007. – B. 71-77.
3. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiyada madaniy kod tushunchasi va talqini // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2019. – №3. – B. 15.
4. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. – B. 94.
5. Авлакулов Я.И. Идеоним ва фалероним макроўлами ҳақида // “Истиқлол ва тил” мавзусидаги илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент, 2007. – Б. 54-57.
6. Гунко Ю. Особенности функционирования прецедентных высказываний в разговорной речи носителей русского языка.: Дисс. ... д-ра. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2002. – В. 77.
7. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970. – 96 с.
8. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988. – С. 48.

ANTROPONIMIKA

O'ZBEK TILIDAGI ANTROPONIMLARNING STRUKTUR-
GRAMMATIK XUSUSIYATLARI**Djurayeva Yulduz G'aybullayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tili lug'aviy tarkibining bir qismi hisoblangan antroponimik birliklar va ularning struktur-grammatik xususiyatlari yuzasidan fikr yuritilgan. O'zbek ismlari ham o'ziga xos lingvistik xususiyatlarga ega bo'lib, grammatik tuzilishi tilning morfologik va sintaktik qonuniyatlariga bo'ysunadi. Nomshunos olimlarning tasnif etishlariga ko'ra, o'zbek ismlari tuzilish jihatdan sodda, yasama va qo'shma tuzilishli turlarga ajratiladi. Yasama tuzilmali kishi ismlari, asosan, leksik-semantik va affiksatsiya usullari orqali yasaladi. O'zbek ismlari zaxirasida affiksatsiya usuli bilan yasalgan ismlar kam miqdorni tashkil etadi. Qo'shma tuzilmali antroponimlar esa sintaktik (kompozitsiya) usul bilan yasalgan ismlar hisoblanib, o'zbek tilidagi antroponimlar tarkibida salmoqli qismni tashkil etadi. Maqolada o'zbek antroponimik zaxirasida mavjud bo'lgan ismlar struktur-grammatik jihatdan tahlil qilingan. Zamonaviy o'zbek ismlarining tuzilish jihatdan turlari yuzasidan fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: antroponimika, antroponim, ism, sodda ismlar, tub ismlar, yasama tuzilmali ismlar, qo'shma ismlar, struktur-grammatik xususiyatlar, fonetik-orfoepik usul, leksik-semantik usul, onomastik konversiya, antroponimik konversiya, affiksatsiya usuli, sintaktik usul, semantik aloqadorlik, grammatik minosabat.

СТРУКТУРНО-ГРАММАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УЗБЕКСКИХ
АНТРОПОНИМОВ**Джураева Юлдуз Гайбуллаевна**

доктор философии по филологическим наукам (PhD)

Каршинский государственный университет

Аннотация. В данной статье рассматриваются антропонимические единицы, являющиеся частью лексической системы узбекского языка, а также их структурно-

грамматические особенности. Узбекские личные имена обладают собственными лингвистическими характеристиками, а их грамматическая структура подчиняется морфологическим и синтаксическим закономерностям языка. По классификации ономастов узбекские имена, в структурном отношении, подразделяются на простые, производные и сложные. Производные личные имена формируются главным образом посредством лексико-семантического и аффиксационного способов. Количество имён, образованных аффиксацией, в узбекском антропонимическом фонде сравнительно невелико. Сложные антропонимы создаются при помощи синтаксического (композиционного) способа и занимают значительную долю в составе узбекских личных имен. В статье проведён структурно-грамматический анализ имён, существующих в узбекском антропонимическом фонде. Освещены также типы современных узбекских личных имён с точки зрения их структурного построения.

Ключевые слова: антропонимика, антропоним, имя, простые имена, корневые имена, производные имена, сложные имена, структурно-грамматические особенности, фонетико-орфоэпический способ, лексико-семантический способ, ономастическая конверсия, антропонимическая конверсия, аффиксационный способ, синтаксический способ, семантическая взаимосвязанность, грамматическое отношение.

STRUCTURAL-GRAMMATICAL FEATURES OF UZBEK ANTHROPONYMS

Djurayeva Yulduz G‘aybullayevna

Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)

Karshi State University

Abstract. This article discusses anthroponymic units which constitute a part of the lexical system of the Uzbek language and their structural-grammatical features. Uzbek personal names possess their own specific linguistic characteristics, and their grammatical structure complies with the morphological and syntactic rules of the language. According to classifications proposed by onomastic scholars, Uzbek names are divided, in terms of structure, into simple, derived, and compound types. Derived personal names are formed mainly through lexical-semantic and affixation methods. The number of names formed by affixation within the Uzbek anthroponymic stock is relatively small. Compound anthroponyms, on the other hand, are formed through the syntactic (compositional) method and constitute a significant portion of Uzbek personal names. The article provides a structural-grammatical analysis of names found within the Uzbek anthroponymic system.

It also discusses the types of modern Uzbek personal names in terms of their structural formation.

Keywords: anthroponymy, anthroponym, name, simple names, primary names, derived names, compound names, structural-grammatical features, phonetic-orthoepic method, lexical-semantic method, onomastic conversion, anthroponymic conversion, affixation method, syntactic method, semantic connection, grammatical relation.

Kirish. Antroponimik birliklar o'zbek tili lug'at boyligining tarkibiy qismi bo'lib, milliy madaniyat, urf-odat, an'analarni aks ettiruvchi atoqli otlar tizimi hisoblanadi. Antroponimlar ham o'ziga xos lingvistik xususiyatlarni o'zida jamlagan birliklardir. O'zbek ismlarining grammatik tuzilishi tilning morfologik va sintaktik qonuniyatlariga bo'ysunadi. Kishi ismlarining tuzilish qoliplari ham ism uchun asos bo'lgan so'zning xususiyatiga, shuningdek, ismlarning o'ziga xos jihatlariga asoslanadi.

Asosiy qism. Ernst Begmatov bugungi kunda o'zbek tilida mavjud bo'lgan kishi ismlarini tuzilishiga ko'ra uch guruhga ajratish mumkinligini qayd qiladi:

1. Sodda tuzilmali antroponimlar.
2. Yasama tuzilmali antroponimlar.
3. Qo'shma tuzilmali antroponimlar [1, 217]

Biz olimning fikrlariga asoslangan holda o'zbek ismlarini tuzilish jihatdan quyidagicha tahlil qidik:

Sodda antroponimlar. Bu turdagi kishi ismlari bir so'zdan tashkil topgan ismlardir. Masalan, *Sobir, Qodir, Feruz, Arslon, Lochin, Sardor, Firdavs; Suluv, Lola, Gulzor, Marvarid, Gavhar, Zumrad* va boshqalar.

O'zbek antroponimiyasida sodda tuzilishli ismlar salmoqli qismni tashkil etadi. Sodda tuzilmali ismlarni tashkil etgan so'zlarning morfemik shakllari xilma-xildir. Ayrim ismlar morfologik shakllariga ko'ra morfemalarga bo'linsa, ba'zilarini morfemalarga bo'lib bo'lmaydi. O'zbek tilidagi sodda tuzilmali ismlarni mana shu xususiyati asosida ikki guruhga ajratamiz:

1. Tub ismlar.
2. Yasama ismlar.

Tub ismlar ma'noli qismlarga bo'linmaydigan so'zlardan ifodalanadi. Masalan, *Bolta, Bo'ri, Arslon; Bibi, Tosh, Xol, Nor* kabi. Tub ismlar tovush tarkibi va bo'g'in xususiyatlari jihatidan ham turlichadir: a) bir bo'g'inli tub ismlar: *Nor, Xol, Gul, Dil, Tosh*; b) ikki bo'g'inli tub ismlar: *Botir, Zokir, Sobir, Oltin, Kumush, Go'zal, Lobar* singari.

Shu o'rinda aytish joizki, ismning bo'g'in tizimi va shakliga nomning tildagi funksional xususiyati bilan bog'liq holda obyektiv sabablar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Onomastik qonuniyatga ko'ra kishi ismlarining qisqarishi, erkalash va kichraytirish

shakllarida qo'llanishi atoqli ot uchun asos bo'lgan so'z bo'g'inining torayishi va kengayishiga olib keladi: *Xolmurod – Xolli, Nazira – Nazzi, Gulnora – Guli, Dildora – Dilli, Adolat – Adol* kabi. Ba'zan bunday o'zgarishlar qo'shma ismlarning qisqarib sodda ismga aylanishiga sababchi bo'ladi. *Muhammadsobir – Muhammad, Ziyomhammad – Ziyo, Xolnazar – Nazar, Toshbotir – Botir, Mohiniso – Mohi, Bahriniso – Bahri, Gulibonu – Guli* kabi.

Demak, sodda ismlardagi bo'g'inlar tizimi ularning son jihatidan kengayishi va torayishi ismning funksional sharoiti bilan chambarchas bog'liqdir. Tub ismlar morfemalarga bo'linmaydigan so'zlardan yasalganligi tufayli so'z o'zagiga tengdir. Masalan, po'lat – so'z (asos), *Po'lat* – atoqli ot (sodda tub ism). Ammo onomastikada kishi ismlarining tub shaklda qo'llanishi g'oyatda nisbiy xarakterga egadir.

E. Begmatov o'zbek tilida ismlarga nisbatan sodda so'z deb deb qarash nisbiy hodisa ekanligini ta'kidlaydi. Olim bunga ism bir qator antropoformantlarni qabul qilib, boshqa shaklga o'tib turishini sabab qilib ko'rsatadi: *Salim – Salimjon, Bo'ta – Bo'taboy, Safar – Safarboy* kabi. Shuningdek, bu holat xotin-qizlar ismlarida ham kuzatiladi. Masalan, *Dilbar – Dilbarxon, Dildor – Dildora, Anor – Anora* kabi.

Yasama tuzilmali antroponimlar. Onomastikada “yasama” termini shartli ravishdagina qo'llanishi mumkin. “Yasama” yoki “yasalma” ism deyilganda, aslida ikki tip ismlar nazarda tutiladi: affiksatsiya usulida yasalgan va leksemalarni qo'shish, biriktirish orqali yasalgan (sintaktik usul) nomlar [1, 176].

E. Begmatov yasama tuzilmali antroponimlarda leksikaning ism vazifasiga o'tishi quyidagi usullar orqali yuzaga kelishi haqida ma'lumot beradi:

- 1) fonetik-orfoepik usul;
- 2) leksik-semantik usul;
- 3) affiksatsiya usuli;
- 4) sintaktik (kompozitsiya) usul. [1, 218]

Fonetik-orfoepik usul bilan yasalgan ismlar. E. Begmatovning fikriga ko'ra, “ushbu usulda ismlarning o'zbek tilida shaklan ism egasini erkalash-kichraytirish tufayli qisqargan shaklga kelib qolishi” [1, 218] nazarda tutilgan. Olimning fikricha, “bu hodisa nutqiy iqtisod qonuniyati bilan bog'liq bo'lib, u o'zbek tilining turli shevalarida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi” [1, 219].

Bizning fikrimizcha, ismlarni qisqartirish bilan yangi ism yasalmaydi, balki bir ismning shakliy varianti paydo bo'ladi, xolos. Shunday ekan, *Begi* (Begimqul), *Mamat* (Muhammad), *Eshna* (Eshnazar), *Juman* (Jumanazar), *Soji* (Sojida), *Dilli* (Dildora yoki Dilrabo), *Nazzi* (Nazokat yoki Nazira) shaklda qo'llangan qisqartirilgan shakldagi ismlar yangi ism hisoblanmaydi. Ma'lum ismning erkalash, suyish, nutqiy iqtisod kabi sabablar bilan qisqartirilgan shakli hisoblanadi. Ismlarning bunday shakllari og'zaki nutqda, xususan, so'zlashuv uslubida kuzatiladi. Demak, fonetik-orfoepik usul bilan

ism yasali sh hodisasi mavjud emas, bu usul bilan muayyan ismlarning qisqargan shakllari yaratiladi, xolos.

Leksik-semantik usul bilan yasalgan ismlar. Bu usulda apellyativ leksika ismga ko'chish jarayonida hech qanday o'zgarishga uchramaydi, to'g'ridan to'g'ri onomastik sathga o'tadi va ism vazifasini bajara boshlaydi. Ushbu usul onomastikada onomastik konversiya deb ataladi. Superanskayanining qayd etishicha, onomastik konversiya tildagi mavjud leksemalarning hech qanday o'zgarishsiz yoki sezilarsiz holdagi o'zgarishlar bilan atoqli ot vazifasiga ko'chishidir [7, 5]. Biz onomastik konversiya bilan antroponimlar yasali shini antroponimik konversiya deb nomlashni lozim topdik [5,93]. Masalan, *Bo'ri, Qo'chqor, Arslon, Lochin, Juma, Hayot, Tasnim, Andalib, Xurshid, Ehson, Muzdalifa, Kavsar, Olmos, Gulzor, Bo'ston, Sevinch, Gulg'uncha, Gulsafar, Shirin, Asal* kabi. So'zlarning otlashishi tilda tez yuzaga keluvchi jarayon emas, balki til taraqqiyotining uzoq asrlik bosqichlarini qamrab oladigan lingvistik hodisalardir.

E. Begmatov o'zbek tilida so'z turkumlari otlashish yo'li bilan antroponim vazifasiga ko'chishini [1, 176] qayd etadi. Ammo yuqorida tahlil qilinganidek, ismlar turli so'z turkumlaridan hosil bo'ladi. Ma'lumki, barcha so'z turkumlari ham otlashish xususiyatiga ega emas. Hozirgi o'zbek tili antroponimik zaxirasidagi otlashish yo'li bilan yasalgan kishi ismlari ham o'zbek tilining ko'p asrlar davomida bosib o'tgan tarixiy rivoji jarayonida yuzaga kelgan, shakllangan atoqli otlardir.

Affiksatsiya usuli bilan yasalgan ismlar. O'zbek tili antroponimik tizimida mavjud bo'lgan barcha kishi ismlari ham tildagi tayyor shakldagi leksemalardan hosil qilinmagan. O'zbek tilidagi xotin-qizlar ismlari tarkibida nominatorlar, ya'ni ism qo'yuvchilar tomonidan ijod qilingan ismlar ham mavjud. "Bu ismlarga tildagi leksema hosil qiluvchi qo'shimchalar qo'shilsa-da, nomni yasash nomlash jarayonidagi motivlar asosida hosil qilinadi. Shu sababli bu nom onomastikaning lug'aviy birligi tizimiga xosdir" [1, 226]. Affiksatsiya usuli bilan yasalgan ba'zi ismlar tilda apellyativ leksika tarzida uchramaydi. O'zbek tili leksikasida uchraydigan oddiy so'zga ba'zi qo'shimchalar qo'shib, o'ziga xos yasalma hosil qilinadi. Masalan, tilda baxt turdosh oti mavjud, unga -iya qo'shimchasi qo'shib, *Baxtiya* qizlar ismi yasaladi. Demak, bu leksemalar antroponimik tizimning ism yasali sh mahsuli hisoblanadi. Affiksatsiya usuli bilan yasali shda ismlarga turli qo'shimchalar qo'shib yangi ism yasali shi mumkin: -cha qo'shimchasi bilan yasalgan ismlar: *Oydincha, Suluvcha, Ammacha, Oychaxon, Olmacha, Oltincha, Sotqincha*; -chin qo'shimchasi bilan yasalgan ismlar: *Barchin, Olchingul*; -don qo'shimchasi bilan yasalgan: *Xoldon, Uldon, Uldona*; -dor: *Xoldor*; -lon: *Toshlon*, -mon/-man: *Qizmon, Oymon, Mohmon//Mahmon*; -iyat: *Tinchiyat, Ilmiyat*; -na/-ina qo'shimchasi bilan yasalgan ismlar: *Sabrina, Ro'zana, Gulina, Zarina*; -a, -ya (iya), -iyo qo'shimchalari bilan

yasalgan ismlar xotin-qizlar ismlari tarkibida salmoqli miqdorni tashkil etadi: *Sabriya, Ilmiya, Azmiya, Shamsiya, Shodiya, Kamoliya, Ixlosiya, Mehriya, Mulkiya, Nuriya, Kibriyo*; -ona//yona qo'shimchasi bilan yasalgan ismlar: *Bahrona, Shahrona, Faryona*; -k, -ik, -q, -iq: *Topildiq, Quvondiq, Sog'indiq* va boshqalar.

Qo'shma tarkibli antroponimik birliklar esa sintaktik (kompozitsiya) usul bilan yasalgan kishi ismlaridir. O'zbek ismlarining katta qismini sintaktik usul bilan yasalgan ismlar tashkil etadi. So'zlarni sintaktik usul bilan biriktirish deganda, birdan ortiq so'zning ma'lum grammatik qonun-qoidalar asosida o'zaro bog'lanishi tushuniladi.

Azim Hojiyevning fikricha, "so'zlarning ma'lum grammatik qonun-qoidalar asosida o'zaro aloqaga kirishuvidan hech vaqt qo'shma so'z hosil bo'lmaydi, balki hamma vaqt so'z birikmasi hosil bo'ladi. Ana shunday so'z birikmalari til taraqqiyoti jarayonida ma'lum davrlar o'tishi bilan semantik, grammatik va fonetik jihatdan bir butun holga kelishi, ya'ni qo'shma so'zga aylanishi mumkin. So'zlarni grammatik qonun-qoidalar asosida o'zaro aloqaga kirishuvidan so'z birikmasi hosil bo'lishi bilan shu birikmaning qo'shma so'zga aylanishi tamomila boshqa-boshqa hodisadir [3, 18].

Turkiy tilshunoslikda, jumladan, o'zbek tilshunosligida qo'shma so'zlar va ularning turli tiplari yuzasidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida toponimika hamda onomastika materiallariga munosabat turlichadir. Ba'zi tilshunoslar o'z ishlarida atoqli otlarga ham murojaat etgan bo'lsalar, ayrimlari qo'shma so'zlarga doir muammolar doirasidan atoqli otlar, geografik nomlar hamda kishi ismlari bilan bog'liq lingvistik masalalarni tamoman chiqarib tashlaydi yoki chetlab o'tadi [5, 123].

O'zbek ismlari tarkibidagi qo'shma ismlar tuzilishi, komponentlar tarkibi, morfologik va sintaktik xususiyatlariga ko'ra turli xil lingvistik belgilarga egadir.

Tarkibida so'z turkumlarining ishtirok etishiga ko'ra qo'shma ismlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

Ot+ot qolipi. Qo'shma ismlarning bu shakli eng mahsuldor bo'lib, o'zbek antroponimikasi leksikonida son jihatdan ustundir. Masalan, *Safarmurod, Bayramnur, Norqo'zi, Davlatnazar, Xolnazar, Bobomurod, Temirpo'lat, Shohjahon; Dunyonur, Durjamol, Yozjamol, Baxtigul, Jahonbeka, Zaytungul, Zarbonu, Injubeka, Iforgul, Kiyikjamol, Lolarux, Madhiyabibi, Marjonqiz, Mehrinurbegim, Kumushbeka, Momojamol, Mohigavhar* kabi.

Ot+sifat qolipi: *Muhammadaziz, Muhammadazim, Yo'lqutli, Zebonur, Zebochehra, Ilmisuluv, Kumushgo'zal, Kuchbotir, Maysago'zal, Mehrigo'zal, Momochuchuk, Mohchuchuk, Nurdono, Oygo'zal, Dunyogo'zal, Husniobod* va b.

Ot+fe'l qolipi: *Bekturdi, Olloberdi, Xudoyberdi, Nortursun, Yoztursin, Yomg'irkeldi, Jabborberdi, Xoliqberdi, Yo'lturdi, Kuzkeldi, Karimbergan, Malikurdi, Jonbo'lsin, Kumushtursun, Kuntuqqan, Ko'makberdi, Dilyayra, Ultuv, Ulbo'lsin* va b.

Ot+ravish qolipidagi qo'shma ismlar: *O'g'ilomon, Bibizor* (zor-intizor kutilgan farzand) kabi.

Sifat+ot qolipidagi qo'shma ismlar: *Kattamurod, Kattaqul, Ozodbaxt, Ulug'bek, Ulug'murod, Kabirali, Zarifxo'ja, Ozodagul, Donoxol, Oqbilak, Suluvbeka, Ko'rkamgul, Shirinbeka, Qutlibeka, Yorqinbuvi, Oydinbeka* va b.

Sifat+sifat tarkibli ismlar: *Ortiqgo'zal, Boysuluv, Donogo'zal, Erkasuluv, Oqsuluv, Qorasuluv, Totlisuluv* kabi.

Sifat+fe'l qolipida: *Donoberdi, Donokeldi* kabi.

Sifat+sifatdosh qolipida: *Oqturg'on(gan)*.

Son+ot qolipi: *Oltibek, Saksono'ra, Saksonmurod, Yettinazar, Mingyigit, Minggul, To'qsonbeka, To'qsonsuluv, Oltiqo'l, Saksonbibi, Oltmishbeka, Yuzbeka, Chorgul, Mingdona, Birdona* kabi.

Son+sifat qolipi: *Minggo'zal, Mingsuluv, To'qsonsuluv, To'qsonsharif* kabi.

Olmosh+ot qolipi: *Netaybibi, Kaminabonu* kabi.

Fe'l+fe'l qolipli qo'shma ismlar: *To'xtatursun, Sotiboldi* kabi.

Fe'l+ot qolipi: *Turdimurod, Tursunpo'lat, Tursuntosh, Turdimomo, Turditosh, Turdigul, Yetargul, Unsunbibi, To'xtaniso, To'xtabibi, Ergashbeka, Tursunbuvi, Keldiqiz, Yashnargul, Yetargul, Basbibi* kabi.

Ravish+ot qolipi: *Zo'rxo'ja, Zo'rql, Omonbibi, Omongul, Avvalbeka, Avvalmomo, Esonbeka, Omonjamol* kabi.

Ravish+fe'l qolipi: *Kechkeldi, Omonkeldi, Esonturdi* kabi.

Modal so'z+ot//ot+modal so'z: *Kerakgul, O'g'ilkerak, Shukriniso*.

Undov so'z+ot: *Muborakbonu, Muborakqadam, Marhamatbibi, Iltimosboy*.

O'zbek ismlari tarkibida tuzilish jihatdan takroriy va juft so'zlardan tuzilgan ismlar ham uchraydi: *Kuchquvvat, Bog'bo'ston, Zebuzar, Simuzar, Pistabodom, Noznoz*. Qo'shma ismlar yuzasidan fikr yuritar ekanmiz, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ismlari vositasida hosil qilingan o'g'il bolalar ismlarini ham alohida qayd etishimiz lozim. Payg'ambarimizning muborak ismlari oldidan yoki orqasidan Allohning nomlarini, turli ismlarni yoki apellyativ leksikaga oid so'zni qo'shish yordamida ko'plab ismlar hosil qilingan. Qo'shma tuzilishli ismlarning katta qismini shunday ismlar tashkil etadi. Masalan, *Muhammadrhim, Muhammadxoliq, Muhammadazim, Muhammadhafiz, Muhammadyusuf, Muhammadsodiq, Muhammadsahib, Muhammadali; Normuhammad, Xolmuhammad, Nurmuhammad, To'ramuhammad, Tojimuhammad, Shamsimuhammad, Chinmuhammad, Shayxmuhammad, Shermuhammad, Shodimuhammad, Eshmuhammad* kabi.

O'zbek tilida kishi ismlarining qo'shma shakllari, asosan, ikki komponentlidir. Masalan, *Sotiboldi, Berdimurod, Orziqul, Durjamol, Nurjahon, Gulchehra, Oysuluv, Baxtiniso, Oyjamol, Shamsijahon, Mehrijahon* kabi. Shu bilan

birga, uch soʻzning qoʻshiluvidan tashkil topgan ayrim ismlar ham uchrab turadi. Masalan, *Norxolbuvi*, *Nortoshbibi*, *Oyxolbuvi*, *Gulruxbegim*, *Gulrangbegim*, *Xonzodabegim*, *Baxtinurbegim*, *Sarvigulbonu* kabi. Demak, oʻzbek ismlarining qoʻshma tuzilishga ega shakllarini ikki guruhga boʻlib oʻrganish mumkin:

1. Ikki asosdan tuzilgan qoʻshma ismlar: *Muhammadsolihi*, *Saidyunus*, *Norqoʻzi*, *Abdurahmon*, *Muhammadyusuf*, *Karimberdi*, *Zokirmuhammad*, *Oyjamol*, *Parizoda*, *Guljahon*, *Mohizamon* kabi.

2. Uch asosli qoʻshma ismlar: *Qutlugʻ Nigorxonim*, *Gavharshodbegim*, *Gulruxbegim*, *Baxtinurbegim*, *Gulrangbegim*, *Xonzodabegim* kabi. Uch asosli qoʻshma ismlar, asosan, xotin-qizlar ismlari tarkibida uchraydi. Bu turdagi qoʻshma ismlar sirasiga *begim*, *beka*, *bonu* antropoindikatorlarni qoʻshish orqali hosil qilingan ismlar kiradi. Masalan, *Xonzodabegim*, *Gulbadanbegim*, *Gulruxbegim*, *Sultonposhshobeka*, *Saroy Mulk Xonim* kabi. Aytish mumkinki, tarixiy qatlamga oid aslzoda oʻzbek xotin-qizlari ismlari shunday tuzilishga ega ismlardir.

Oʻzbek onomastikasidagi koʻpgina qoʻshma ismlar ikki oʻzak soʻzning birikuvidan yuzaga kelgan boʻlib, bundan tashqari, qoʻshma ismlar yasalişida yasama negiz: egalik, kelishik, son, feʼllarda esa shaxs qoʻshimchalarini olgan soʻzlardan iborat komponentlar ham uchraydi.

Qoʻshma ismni tashkil etgan komponentlarning morfologik tarkibi va joylashish oʻrni, tarkibiga koʻra oʻzbekcha qoʻshma atoqli otlar quyidagicha guruhlashtirilishi mumkin:

oʻzak+oʻzak qolipi. Qoʻshma ism hech qanday qoʻshimchasiz ikki sof oʻzakning birikuvidan tashkil topadi. Bu tip qoʻshma ismlar ancha mahsuldor boʻlib, unga koʻproq ot+ot, sifat+ot, ot+sifat, feʼl+ot shaklida yasalgan kishi nomlari kiradi. Masalan: *Nortosh*, *Oynur*, *Oysoat*, *Oysuluv*, *Oytemir*, *Uytoʻl*, *Oqtosh*, *Tursuntosh* kabi.

Qoʻshimchali oʻzak+oʻzak qolipi. Bu tip unchalik sermahsul emas. Koʻproq ot+ot, sifat+ot, feʼl+ot shaklida yasalgan baʼzi ismlar mana shu guruhga kiradi. Masalan: *Otli+mirza*, *Nurli+Muhammad*, *Bolli+turdi*, *Yoʻlchi+qul*, *Koʻpay+mirza*, *Bogʻda+gul*, *Turgʻun+bibi*, *Qizlar+dono*, *Tojli+niso*, *Qutli+beka*, *Nozli+begim* kabi.

Qoʻshimchali oʻzak + qoʻshimchali oʻzak qolipi. Oʻzbekcha ismlar orasidagi ot+ot shaklida yasalgan bir qator ismlar bu tip qoʻshma atoqli otlarga misol boʻla oladi: *Bahri+xonim*, *Lutfi+xonim*, *Sarvi+begim*, *Qizlar+begim* kabi.

Ayrim qoʻshma ism komponentlari orasida koʻzga tashlanib turuvchi morfologik koʻrsatkichlar mavjud boʻlmasa-da, mantiqan ularning ham maʼlum grammatik vositalar orqali bogʻlanganini payqash mumkin. Masalan, *Gulruxsor* aslida guldek ruxsordir. Shu kabi *Zamongul* ismi – zamonning guli shaklida birikkan. *Zamongul* (ar.-ft.) – davrning guldek suluv qizi. [2, 147] Lekin bu ismlarning birinchi komponentidagi -dek hamda -ning affikslari yashiringan va onomastikada ularni tiklash uchun zarurat yoʻq.

Zamonaviy o'zbek qizlari ismlarini tahlil qilar ekanmiz, nafaqat ikki asosli, balki uch asosli ismlarni ham uchratdik. Jumladan, *Gulrangbegim*, *Gulbadanbegim*, *Gulruxsorbegim*, *Mohinurbonu*, *Gulyuzbegim* kabi.

O'zbek antroponimikasining o'ziga xos grammatik xususiyatlaridan yana biri qo'shma ismlarning tashkil topishida komponentlar o'rtasidagi sintaktik munosabatlarning g'oyat murakkab va ko'p qirrali ekanligidir. Qo'shma ismni tashkil etgan komponentlar o'zaro semantik aloqaga ega bo'lishi yoki ularda bunday aloqaning bo'lmashligi ham mumkin. Keyingi holda qo'shma ismni tashkil etgan ikki so'zning o'zaro bog'lanishi teng bo'lib, gapning uyushiq bo'laklarini eslatadi. Masalan, *Toshmurod*, *Kamolmurod*, *Omongul*, *Chamangul*, *Oygul*, *Rizvongul* kabi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, E. Begmatovning "O'zbek ismlari izohi" lug'atida qayd etilmagan, yangi ijod qilinayotgan ismlarning ham salmoqli qismini qo'shma tuzilishli ismlar tashkil etadi. Masalan, *Muhammadyasin*, *Muhammadzayd*, *Ozodulloh*, *Ko'hinur*, *Laylinur*, *Mehrinur*, *Gulinur*, *Dilinur*, *Mumtozbegim*, *Diljahon*, *Dilbegim*, *Hurijahon* kabi. Xotin-qizlar ismlari orasida esa uch tarkibli ismlar ham anchagina. Masalan, *Baxtinurbegim*, *Ziyonurbegim*, *Mehrinozbegim* kabi ismlar kuzatildiki, bunday ismlar zamondoshlarimiz orasida tarixda keng qo'llangan, oliynasab oilalarda qo'yilgan ismlarni tanlashni ma'qul ko'rayotgan oilalar ham mavjud. Bu tuzilishdagi ismlarning aksariyati tarixiy shakldagi ismlar komponentlarini qo'shish usuli bilan hosil qilingan, ya'ni ikki komponentdan tuzilgan ismlarga *begim*, *bonu*, *oyim*, *xonim* kabi antropoindikatorlarni qo'shish bilan hosil qilingan ismlardir. O'zbek ismlarining katta qismini qo'shma tuzilishli ismlar tashkil etadi. Qo'shma tuzilishli ismlarni qismlari o'rtasidagi aslida mavjud bo'lgan semantik va sintaktik munosabatlariga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Komponentlari tobe munosabatga asoslangan qo'shma ismlar.
2. Komponentlari teng, semantik aloqasiz birikkan qo'shma ismlar.

Komponentlari tobe birikuvga asoslangan qo'shma ismlarni ism komponentlari o'rtasidagi o'zaro munosabat xususiyatlariga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

Aniqlovchi+aniqlanmish munosabatidagi qo'shma ismlar: *Boyyigit*, *Gulchiroy*, *Oyjamol*, *Gulandom*, *Gulbadan*, *Mohijamol*, *Jahonzeb*, *Kenjagul* kabi.

Ega+kesim munosabatidan yuzaga kelgan qo'shma ismlar. Ism faqat bosh bo'laklardangina iborat bo'lgach, bir tarkibli gaplarga o'xshaydi. Masalan, *Karimberdi*, *Latifberdi*, *Botirkeldi*, *Majidberdi*, *Valikeldi*, *To'rabo'l*, *Oyboqdi*, *Gullarbas*, *O'g'ilkerak* kabi.

To'ldiruvchi+kesim munosabatidan yuzaga kelgan ismlar. O'zbek tilida *Yovbosar*, *Yovbosdi*, *Izbosar*, *Uyto'l*, *Ultuv*, *Gulsuyar* kabi.

Hol+kesim munosabatidan yuzaga kelgan qo'shma ismlar. Bunda ikkinchi komponentdagi tushunchaning amalga oshishi birinchi komponentda ifoda etilgan predmetning muhim xossasiga o'xshatiladi, qiyoslanadi: *Xushkeldi*, *Po'latturdi*, *Omonturdi*, *Toshtursun*, *Toshto'xta* kabi. Masalan, *Toshturg'on* (oy) – toshdek turgan yoki turadi.

O'zbek ismlari tarkibida shaklan yonma-yon kelgan kelgan so'zlardan tuzilgan, ammo qismlari orasida semantik aloqadorlik, grammatik munosabat va yaxlit bir ma'noni anglatish xususiyati mavjud bo'lmagan ismlar ham ko'p uchraydi. Bu turdagi ismlar qismlari teng, semantik aloqasiz birikkan qo'shma ismlardir. Masalan, *Norxurram*, *Safartursun*, *Toshtemir*, *Toshturdi*, *Baxtimurod*, *Bayramqilich*, *Ashurpo'lat*, *Asalgul*, *Nazargul*, *Niyozgo'zal*, *Nozmehr*, *Oynaxol*, *Ortiqjamol*, *Gulinur* kabi.

Xulosa. Umuman olganda, xotin-qizlar ismlarining struktur-grammatik xususiyatlari shuni ko'rsatadiki, tilda, xususan, uning onomastik birliklarida tarixiy va zamonaviy davrlarga oid muhim ahamiyatga ega bo'lgan lingvistik faktlarni topish mumkin. Har bir tildagi so'z yasaliishi vositalari onomastik birliklar, xususan, kishi ismlarini yasashda ham ishtirok etadi. Zamonaviy o'zbek ismlarini tahlil qilar ekanmiz, bugungi kunda keng qo'llanilayotgan ismlarning katta qismini leksik-semantik usul bilan hosil qilingan ismlar va qo'shma tuzilishli ismlar tashkil etishiga guvoh bo'ldik.

Adabiyotlar:

1. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 264 б.
2. Бегматов Э. А. Ўзбек исмлари изоҳи. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2016. – 608 б.
3. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясаиши. – Тошкент, 1989. – 109 б.
4. Ҳожиёв А. Ўзбек тилида қўшма, жуфт, такрорий сўзлар. – Тошкент, 1963. – 145 б.
5. Djurayeva Y.G'. O'zbek tilida xotin-qizlar ismlarining lingvistik xususiyatlari: Filol. fan. fals. dokt. (PhD) diss. – Qarshi, 2025. – 154 b.
6. Суперанская А.В. Апеллятив онома // Имя нарицательное и собственное. – Москва. 1978. – С. 5-33.
7. Раҳматуллаев Ш., Ҳожиёв А. Қўшма сўзларнинг имло қоидалари ва луғати. “Ўрта ва олий мактаб”. – Тошкент, 1961.

“YUSUFBEK” DOSTONIDA QO'LLANGAN ANTROPONIMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

O'ngboyev Ramazon Mahmatali o'g'li
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Yusufbek” dostonida uchraydigan ayrim antroponimlarning (ism-shariflarning) lingvokulturologik tahlili keng yoritilgan. Asarda uchraydigan “Go‘ro‘g‘li”, “Ali”, “Xizir”, “Qambar”, “Muhammad”, “Yunus”, “Yusuf”, “Ahmad”, “Ashur”, “Ruxsor” kabi shaxs nomlari xalqning diniy, madaniy, tarixiy, ma’naviy hamda estetik tafakkurini ifodalovchi muhim madaniy belgilar sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda har bir ismning etimologiyasi, ma’no qatlamlari, islomiy manbalarda va xalq og‘zaki ijodida tutgan o‘rni ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, bu antroponimlarning milliy o‘zlikni anglashdagi, xalq ma’naviyatini shakllantirishdagi o‘rni ham ko‘rsatib beriladi. Maqolada til va madaniyat o‘zaro uzviy bog‘liq hodisalar sifatida yondashilib, antroponimlarning lingvokulturologik jihatlari o‘ziga xos tarzda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: antroponim, doston, lingvokulturologiya, diniy timsol, xalq ongidagi kod, madaniy meros.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ АНТРОПОНИМОВ ДАСТАНА «ЮСУФБЕК»

Унгбоев Рамазон Махмадали угли

Каршинский государственный университет

Аннотация. В статье представлен комплексный лингвокультурологический анализ некоторых антропонимов (имен), встречающихся в дастане «Юсуфбек». Такие личные имена, как «Горугли», «Али», «Хизир», «Камбар», «Мухаммад», «Юнус», «Юсуф», «Ахмад», «Ашур», «Рухсор», встречающиеся в произведении, интерпретируются как важные культурные символы, выражающие религиозное, культурно-историческое, духовное и эстетическое мышление народа. В исследовании на научной основе анализируются этимология каждого имени, его смысловые пласты, его место в исламских источниках и народном устном творчестве. Также показана роль этих антропонимов в понимании национальной идентичности и формировании национальной духовности. В статье рассматриваются язык и культура как неразрывно связанные явления и уникальным образом освещаются лингвокультурные аспекты антропонимов.

Ключевые слова: эпос, антропоним, лингвокультурология, религиозный символ, код в сознании народа, культурное наследие.

LINGUO-CULTURAL ANALYSIS OF ANTHROPONYMS IN THE DASTAN “YUSUFBEK”

Ungboev Ramazon Makhmadali Ugli

Karshi State University

Abstract. This article explores the linguocultural analysis of selected anthroponyms (personal names) found in the epic “Yusufbek.” The study interprets names such as “Go‘ro‘g‘li,” “Ali,” “Khizr,” “Qambar,” “Muhammad,” “Yunus,” “Yusuf,” “Ahmad,” “Ashur,” and “Ruxsor” as significant cultural symbols that embody the people’s religious, cultural, historical, spiritual, and aesthetic consciousness. The research examines the etymology, semantic nuances, and functions of these names in Islamic sources and oral folk traditions on a scholarly basis. In addition, the article emphasizes the role of these anthroponyms in fostering national identity and spiritual values. Language and culture are treated as interdependent phenomena, with the linguocultural dimensions of the names analyzed in a distinctive and insightful way.

Keywords: anthroponym, dastan (epic), linguo-culturology, religious symbol, code in the consciousness of the people, cultural heritage.

Kirish Xalq dostonlari millatning tarixiy xotirasi, ma’naviy qadriyati va estetik dunyoqarashini o‘zida mujassam etadi. Ayniqsa, dostonlardagi antroponimik birliklar – qahramonlar ismlari xalqning madaniy tafakkuri va e’tiqodi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu jihatdan “Yusufbek” dostoni nafaqat epik asar, balki madaniy-lingvistik fenomen sifatida ham qimmatlidir. Unda uchraydigan ismlar diniy manbalarga, tarixiy shaxslarga, xalq e’tiqodi va afsonaviy rivoyatlarga asoslanadi. Dostonda keltirilgan ismlarni Ernst Begmatovning “O‘zbek ismlari izohli lug‘ati” hamda “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” ma’lumotlari asosida tahlil qilishga harakat qildik.

Asosiy qism. “Yusufbek” dostonida *Go‘ro‘g‘libek ayni qirchillagan yigitlik payti, ko‘zi yo‘lbarsning ko‘ziday, bilagi ayuv bilak, yuragi sheryurak, qoplondirak, ko‘kragi bo‘ltak-bo‘ltak, qo‘sh mushtli muskulli, kallasi kapaday, tenasi tepaday, qo‘sh iyni supaday, qahri dushmanga jafoday, tushkursu murti muzlagan, mushti to‘qson botmon gurziday, panjalari po‘latdan, changali ko‘k toshni siqib kul qilgan, qaddi-qomatli, eshon kelbatli, dami o‘tkir qilichday, pahlavon sifatli yigit edi*” deb ta’riflangan [1; 2].

Ernst Begmatovning qayd etishicha, **Go‘ro‘g‘li** [f.-o‘z.] – go‘rda tug‘ilgan bola yoki qadimgi turkiy tilda go‘r // ko‘r botir, dovyurak, pahlavon bola. Yaqin va O‘rta Sharq, Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz xalqlari orasida keng tarqalgan dostonlar turkumidagi bosh qahramon sanaladi [2; 105].

“Go‘ro‘g‘li” ismi – faqat ism emas, balki xalq ongida mif, qahramonlik, xalqparvarlik kabi tushunchalarni mujassam qilgan kulturologik koddir. Ismning

asosiy qismi бўлган “go‘r” so‘zi orqali g‘ayritabiiy tug‘ilish va “o‘g‘li” orqali nasl, avlod tushunchalarini ifodalaydi. Bu ism xalqning ideal qahramoni – jasur, dovyurak, adolatparvar, xalq himoyachisi qiyofasini gavdalantiradi.

Ernst Begmatovning qayd etishicha, *Ali* eng yuksak, eng ulug‘, yuqori martabali ma‘nosini anglatadi. Bu nom Muhammad payg‘ambarning kuyovi, to‘rtinchi xalifaning ismidir [2; 29].

“*Yusufbek*” dostonida

Ali bahodir zo‘rlarim,
Hayda Chambilning ustiga.
Bir so‘zli qaytmas sherlarim,
Tayla Chambilning ustiga [1; 53] deb ta’riflangan.

Ali ismi arab-islomiy madaniyatda yuksaklik, ulug‘lik, martaba timsoli bo‘lib, musulmon xalqlari orasida eng ko‘p qo‘yiladigan ismlardan biriga aylangan. Bu ism orqali insonlar o‘z farzandlariga nafaqat ism, balki diniy-ma‘naviy meros, qadriyat va tarixiy xotirani ham berib kelishgan.

Ali ibn Abu Tolib (taxm. 600-661, Ko‘fa) – islomda “xulafo ar-roshidin” (“to‘g‘ri yo‘ldan borgan xalifalar”), dindorlar o‘rtasida “choryorlar” deb atalgan dastlabki to‘rt xalifadan to‘rtinchisi. Quraysh qabilasining hoshimiylar xonadonidan. Muhammad (sav)ning amakivachchasi va kuyovi (Fotimaning eri). Islomda vujudga kelgan shialik harakati bevosita Ali ismi bilan bog‘liqdir. Yettinchi asr o‘rtalarida xalifa Usmon siyosatidan norozilik ommaviy tus oldi. Muhammad (sav)ning barcha yurishlarida ishtirok etgan, qo‘rqmas va sodiq jangchi, o‘ta taqvodor inson, mohir notiq Ali xalifalikka munosib nomzod sifatida ko‘pchilikka ma‘qul edi. 656-yil iyunida Usmon o‘ldirildi va Ali xalifa deb e‘lon qilindi. Ammo sahobalardan Talha va az-Zubayr hamda Aliga nisbatan adovatda bo‘lgan payg‘ambarning bevasi Oysha tarafdorlari unga qarshi bosh ko‘tardilar. Qatl etilgan Usmonning qarindoshi Suriya hokimi Muoviya ham Aliga qarshi urush e‘lon qildi. 657-yil Furot daryosi o‘ng qirg‘og‘idagi Siffin degan joyda yuz bergan jangda Ali qo‘li baland kelgan bo‘lsa-da, u raqiblari bilan kelishishga ko‘ndi. Bundan norozi bo‘lgan Ali askarlaridan 12 ming kishi jang maydonini tark etdilar va xorijiylar deb atalgan diniy-siyosiy oqimni tashkil qildilar. Xorijiylar raqiblariga nisbatan yakka terror usulini qo‘llay boshladilar. 661-yil 19-yanvarda Ali Ibn Muljam degan shaxs tomonidan masjiddan chiqish paytida jarohatlandi va ikki kundan so‘ng vafot etdi. Islomda Ali shaxsiga munosabat turlichadir. Xorijiylar unga o‘ta salbiy munosabat bildirgan bo‘lsalar, shialar aksincha uni ilohiylashtirib yuborganlar. Ahli sunna Ali shaxsiga mo‘tadil va to‘g‘ri baho beradi. Shubhasiz, Ali Umar ibn al-Xattob singari islom g‘alabasi yo‘lida katta xizmat ko‘rsatgan arbob, islom ahkomlari, Qur‘on va uning tafsirlari hamda hadis rivoyatlari bilan bog‘liq ko‘p masalalarning chuqur bilimdoni bo‘lgan. Ali tarafdorlari

keyinchalik islomdagi shialik (arab. – "shia" — guruh, bu o'rinda "Ali tarafdorlari" mazmunida) oqimini tashkil etganlar. Ali shialarning birinchi imomi va shia imomlari shajarasini boshlab beruvchi hisoblanadi. Shialar o'rtasida Alining qahramonliklari va sarguzashtlarini tasvirllovchi juda ko'p rivoyatlar to'qilgan va bu sunniylar o'rtasida ham keng yoyilgan. Shia yo'nalishining ba'zi ashaddiy firqalari Ali shaxsini ilohiylashtirib, uni Muhammad payg'ambardan ham yuqori qo'yadilar. O'rta Osiyo, xususan, O'zbekistonda bir necha qadamjo va mozorlar Ali nomi bilan bog'lanib, muqaddaslashtirilgan. Haqiqatda esa Ali O'rta Osiyo va Eronda hech qachon bo'lmagan. [3; 315].

Ernst Begmatovning izohiga ko'ra, *Xizir, Xizirboy, Xizir (ar.) — Xizr payg'ambar*. [2; 462].

"Yusufbek" dostonida

O'n sakkiz ming olamni
Yaratgandir xudoyim.
Yaxshilar yo'ldosh bo'lsin
G'am tortmagin ilohim.
Yolg'izliging bildirma,
Yig'lab yovni kuldirma,
G'irni tanho qoldirma,
Xizir bo'lsin yo'ldoshing,
G'irot bo'lsin sirdoshing
Hamroh bo'lsin pirdoshing,
Yolg'iz Xudo yor bo'lsin [1; 4].

Islom madaniyatida *Xizir* obrazining ildizlari Qur'on rivoyatlariga borib taqaladi. "Kahf" surasida Muso payg'ambar bilan uchrashgan Allohning quli (ba'zi mufasssirlar fikricha — Xizir) haqida hikoya qilinadi. Bu rivoyat asosida Xizir ilohiy donolik, sabr va yashirin hikmat timsoliga aylangan. O'zbek xalq e'tiqodida Xizir obrazi rahm-shafqat, saxovat, baraka, hayotbaxshlik, yordam kabi qadriyatlarni ifodalaydi. Bahor faslida nishonlanadigan Xidir ayyom (Xidir navro'z) marosimlari ham Xizir nomi bilan bog'liq bo'lib, xalq ongida u tabiat uyg'onishi, baraka kirib kelishi bilan talqin qilinadi.

XIZR [a. خضر — "yashillanmoq, yashil tusga kirmoq"] din. Islom manbalarida zikr etilgan, hayot bulog'idan "obi hayot" ichib, umrboqiy bo'lgan taqvodor shaxs; og'ir ahvolda qolgan kishilarga chol, suvori yoki yo'lovchi ko'rinishida uchrab, ularning mushkulini oson qiladi. *Xizr nazar qilmasa, eshak bozorga dallol ham bo'lmayasan*. Maqol. Yurgan kishi baland tog'lardan oshar, Xizr nazar qilgan ko'p uzoq yashar. ("Erali va Sherali").

Xizrni yo‘qlasam (ham) bo‘lar ekan — So‘zlovchi yo‘qlab yoki istab turgan odam tasodifan kelib qolganda aytiladigan ibora. Xizrni yo‘qlasang bo‘lmas edimi? dedi To‘lagan kulib. A. Qahhor, Og‘aynilar [4; 57].

“O‘zbek ismlari izohi” lug‘atida **Qambar** [a.] – to‘rg‘ay. Bu nom xalifa Aliga sodiq qulning ismi bo‘lgan. U ozod qilingach ham Qambarali, ya’ni Aliga sodiq kishi deb yuritilgan тарзида изоҳланади [2; 539].

“Yusufbek” dostonida keltirilishicha,

Alqissa, ana endi Go‘ro‘g‘libek: “Ey Qambar bobo, men ota bo‘lmadim, avvalasi yigit bo‘lmay o‘lmadim, siz aytganday, zot so‘ramay, ot so‘radim, imo-ishorangizga quloq solmadim. Nachora, na o‘g‘il, na qiz “Ota!”, – deb kelib yelkamga osilmadi. Men shundan chornayman, ne qilay? Yoshim ham o‘ttizdan oshib, badanlarim g‘amdan bo‘shashib boryapti [1; 3].

Islom tarixida Qambar — xalifa Ali ibn Abu Tolibning sodiq xizmatkori (quli) bo‘lgan. Rivoyatlarga ko‘ra, Ali uni ozod qilgan bo‘lsa-da, u ozodlikni emas, xizmatni tanlab, Alining yonida qolgan. Shu sababli musulmon xalqlari, jumladan o‘zbek xalqining madaniy tafakkurida Qambar obrazi sadoqat, vafodorlik, halollik, kamtarlik timsoliga aylangan. Xalq og‘zaki ijodida, ayniqsa doston va rivoyatlarda, “Qambar” nomi oddiy, ammo vafodor, sofdil inson ramzi sifatida tilga olinadi. Masalan, “Qambarali” ismidagi tarkibidagi so‘nggi qism esa Ali bilan bog‘liqlikni bildiradi, ya’ni “Aliga sodiq, unga mansub” degan ma’noni beradi.

Ernst Begmatovning qayd etishicha, Muhammad [a.] – maqtovg‘a, olqishlarga sazovor. Muhammad payg‘ambar (Muhammad ibn Abdulloh, 570 yoki 571 Makka – 632, Madina)ning ismi [2; 264].

“Yusufbek” dostonida

O‘lik bilan uyqu teng,
Donolarga dunyo keng,
Ishing ishkal, bo‘lsin ong,
Jumla jahon yor bo‘lsin.
Rasuli akram **Muhammad**,
Ishingga bersin omad,
Dushmaning qilsin faryod,
Payg‘ambarlar yor bo‘lsin [1; 4].

“Muhammad” ismi Islom dini asoschisi, oxirgi payg‘ambar – Muhammad ibn Abdulloh nomi bilan bevosita bog‘liq. U musulmonlar uchun axloq, adolat, halollik, rahm-shafqat, va insonparvarlik timsoli hisoblanadi. Shu sababdan bu ism xalq madaniyatida baraka, himoya va ezgulik ramzi sifatida qadrlanadi. O‘zbek xalqining onomastik tizimida “Muhammad” ismi ko‘pincha hurmat, e’tiqod va muqaddaslik ifodasi sifatida ishlatiladi. Bu ismni bolaning nomi sifatida qo‘yish – Allohga yaqinlik,

payg'ambar fazilatlarini orzu qilish, e'tiqod timsoli sifatida talqin qilinadi. Xalq maqollarida ham bu ism orqali payg'ambar sha'niga hurmat ifodalangan.

Lug'atda **Yunus** [qad.yah.] – kabutar, kaptar. Yunus payg'ambarning nomi. Yunus pari (qad.yah.-f.) – Yunus payg'ambarning xizmatkori quli [2; 523].

“Yusufbek” dostonida

Ikki pari xizmatda,
Misqol, Yunus, albatta,
 Ko'ngil ketsa qosh qog'ib,
 Sulton yotar rohatda,
 Xudo suygan Go'ro'g'li [1; 4].

“Yunus” nomi **Yunus payg'ambar** (arabcha *Yūnus an-nabiy*) bilan bog'liq. U yahudiylilik, nasroniylilik va islomda tan olingan payg'ambarlardan biridir. Rivoyatlarga ko'ra, Yunus payg'ambar Allohning amridan yuz o'g'irganidan so'ng, bir baliq (kit) tomonidan yutiladi, u baliq qornida Allohga tavba qiladi va kechiriladi. Bu voqea Qur'on suralarida bayon etilgan. Shu sababli Yunus obrazi islom madaniyatida tavba, sabr, kechirim, tavakkal va imon timsoliga aylangan. “Yunus pari” ifodasi esa tilda Yunus payg'ambarga sodiq xizmatkor yoki ezgulik yo'lidagi fidoyi kishi ma'nosini beradi. O'zbek xalq madaniyatida “kabutar” — tinchlik, sadoqat va poklik ramzi hisoblanadi. Demak, “Yunus” ismi til ma'nosi jihatidan ham, madaniy ma'nosi jihatidan ham ezgulik va poklik timsoli sifatida uyg'unlashgan.

O'zbek xalq madaniyatida “misqol” so'zi noziklik, beqiyoslik, adolat, go'zallik timsoli bo'lib, tildagi qadriyatlar va diniy-madaniy tafakkurning uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Yusuf [yah.] – o'sgan, ko'paygan. “Qur'on”da nomi zikr qilingan payg'ambarlardan biri. “Qur'oni Karim”dagi 12-sura, ya'ni „Yusuf“ surasida Yusuf va Ya'qub alayhissalomlar haqida so'z boradi. Yusuf alayhissalom qissasi “Qur'oni Karim”dagi eng go'zal qissalardan biridir. „Yusuf“ surasidan boshqa o'rinda bu payg'ambar haqida “Qur'on”da oyat nozil etilmagan. Yusuf alayhissalom, Ya'qub alayhissalomning, Ya'qub alayhissalom Is'hoq alayhissalomning, Is'hoq alayhissalom Ibrahim alayhissalomning farzandidir. Ya'ni Yusuf ibn Ya'qub ibn Is'hoq ibn Ibrahim. Yusuf alayhissalomga Alloh tomonidan go'zal husn va payg'ambarlik mo'jizalaridan bo'lmish tushlarni to'g'ri ta'bir qilish qobiliyati berilgan edi [2; 345].

“Yusufbek” dostonida

Bismillodan boshla har bir ishingni,
 Har qadamda mahkam ushla xo'shingni,
 Gavarangni g'oz tutib yur, Go'ro'g'li,
 Meni desang, pastga egma boshingni.
 Nasib bo'lsa, **Yusufjonni** ko'rasan,

Jamoliga shaharingni berasan.
 Nohaqlikni hunar qilma, Go‘ro‘g‘li,
 Omon qaytib yurtida davron surasan [1; 18].

Yusuf alayhissalom “Qur’on”da nomi zikr etilgan eng go‘zal qissa egasi sifatida tanilgan. “Yusuf” surasi (12-sura)da uning hayoti, sinovlari va sabrining mukofoti sifatida Alloh tomonidan ulug‘langanligi bayon etilgan. U Ya‘qub alayhissalomning o‘g‘li, Is‘hoq va Ibrohim alayhissalomlarning naslidan, ya’ni payg‘ambarlar silsilasining davomchisidir. Yusuf payg‘ambar Alloh tomonidan go‘zal husn, tushlarni to‘g‘ri ta’bir qilish qobiliyati, sabr va sadoqat fazilatlarini bilan siylangan. Shu sababdan, o‘zbek xalq madaniyatida “Yusuf” nomi go‘zallik, donolik, sadoqat, halollik va poklik timsoli sifatida qaraladi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida ham bu obraz ma’naviy go‘zallik va komillik ramziga aylangan.

Ahmad [a.] – Ollohga ko‘p hamd-u sanolar aytuvchi maqtovga, olqishga sazovor. Bu nom Muhammad (s.a.v) sifatlaridir [2; 42].

“Yusufbek” dostonida

Sel kelsa, taylar shaldirab,
 Ichida toshi gildirab,
Ahmad tog‘amga ishanib,
 Tag‘in qolmanglar galdirab,
 Hushyor bo‘ling, norlarim,
 Boz ogoh bo‘ling, norlarim [1; 8].

“**Ahmad**” nomi Muhammad (s.a.v.)ning sifatlaridan biri sifatida Qur’on va hadis manbalarida tilga olingan. Shu bois “Ahmad” nomi musulmon madaniyatida poklik, haqiqat, rahm-shafqat, komillik kabi ma’naviy fazilatlarining timsoliga aylangan. O‘zbek xalqining ismlar tizimida “Ahmad” ismi baraka, e’tiqod va hurmat belgisi sifatida keng tarqalgan. Bu ismni bola nomi sifatida qo‘yish orqali ota-onalar farzandlarining pok, halol, va e’tiqodli inson bo‘lishini niyat qiladilar.

Ashur [a.] – aynan; Ashuro – o‘ninchi; Muharram oyining o‘ninchi kunida tug‘ilgan bola. Bu oy va bu kun musulmonlar uchun muqaddas hisoblanadi [2; 39].

“Yusufbek” dostonida

Mening sizlardan ko‘nglim to‘q,
 Belga baylanglar tirdon o‘q,
 Men kelguncha Chambilga,
 Beklik qiladi **Ashirbek**,
 Yurtimni sizga topshirdim,
 Sizni Xudoga topshirdim [1; 9].

Muharram oyining o‘ninchi kuni – **Ashuro kuni**, islom tarixida muqaddas va g‘amli sana sifatida alohida o‘rin tutadi. Shuning uchun “Ashur” ismi musulmonlar

orasida baraka, sabr, sadoqat, fidoyilik va e'tiqod ramzi sifatida hurmat qilinadi. O'zbek xalq ismlar tizimida "Ashur", "Ashirbek", "Ashuro", "Ashurali" kabi variantlarda uchrab, diniy-madaniy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lgan ismlar sirasiga kiradi. Bu ismni berish orqali ota-onalar farzandlariga sadoqat, imon va bardoshlilik fazilatlarini tilaydilar.

Ruxsor [f.] – ayni; yonoq, yuz, chehra, zebo, sohibjamol, go'zal chehrali qiz [2; 354].

"Yusufbek" dostonida

Nima qilay yonyapman,
Taqdirimga ko'nyapman.

Ruxsor pari hayolimda,
Sog'ingandan so'nyapman [1; 63].

Sharq adabiyotida, ayniqsa fors-tojik, turkiy va o'zbek mumtoz she'riyatida, "ruxsor" so'zi go'zal ayolning yuzi, husni, ma'sumlighi ramzi sifatida juda ko'p qo'llanadi. Bu so'z go'zallik, muhabbat, sadoqat, ilhom timsoli bo'lib, ayol obrazining ruhiy-estetik go'zalligini ifodalaydi. O'zbek xalq onomastikasida "Ruxsor", "Ruxsora", "Ruxsorkhon", "Ruxsoroy" kabi shakllarda uchraydi. Bu ismlar orqali ota-onalar farzandlariga go'zal bo'lish, jamolini pok saqlash, mehribon va muloyim bo'lish fazilatlarini tilaydilar.

RUXSOR [f. رخسار] – tashqi ko'rinish, qiyofa; yuz, bet; yonoq. Kishining yuzi; bet; aft-angor, chehra. *Bir zumlik bezovta o'ylar so'ngida Yana ruxsoringga tikilaman jim.* (A. Oripov, Yurtim shamoli). *Rangi siniqib, tarang ruxsoriga ajin tushdi.* (S. Karomatov, So'nggi barxan). *Uning ruxsori Ahmadga tanishday tuyuldi.* ("Yoshlik"). Ko'chma ma'noda: Ko'rinish, qiyofa. *Hozirgi Mirzacho'lning ruxsori bus-butun bo'lakcha.* (M. Jo'ra, Quyoshdan nur emganlar) [5; 472].

"Yusufbek" dostonida uchraydigan antroponimlar xalqning diniy, madaniy va tarixiy ongini aks ettiruvchi muhim madaniy kodlardir. Doston antroponimlari orqali xalq tafakkuridagi axloqiy-ruhiy qadriyatlar, diniy e'tiqodlar va estetik ideallar ifodalanadi. Shuningdek, bu ismlar o'zbek onomastik tizimining boy manbasi sifatida xalqning tili va madaniyatini yanada chuqurroq o'rganishda muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar:

1. Yusufbek. Aytuvchi: Qahhor baxshi Rahimov, O'zbekiston xalq baxshisi. Yozib olib nashrga tayyorlovchilar: Shahnoza Qahhorova, Doston Abatov. – Qarshi, 2025. – 123 b.
2. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013.
3. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 12 жилдли. – Тошкент: «ЎЗМЭ» Давлат илмий нашриёти, 2001.
4. O'zbek tili izohli lug'at. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. 6 jildli. 6-jild.

5. O‘zbek tili izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. 6 jildli. 4-jild.
6. Ашуров Д. “Алпомиш” достонининг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Наманган, 2021.
7. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006.

TOPONIMIKA

DANG‘ARA TUMANIDAGI AYRIM TOPONIMLARI XUSUSIDA

Usmonova Sofiyaxon Alimovna

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Qo‘qon davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumanidagi *Jobu*, *Oltiqush*, *Katta Minglar*, *Kichik Minglar*, *Qashqar*, *Quduq* kabi ayrim qishloqlarning nomlanish asoslari atroflicha izohlashga harakat qilingan. Jumladan, Jabg‘u//Jabu – G‘arbiy turk hoqonligida, ya‘ni Turkiston o‘lkasida qabila, urug‘ boshlig‘iga berilgan oliy unvon ekanligi, o‘zbek xonliklarida amal va mansablar ichida “jilbon” deb atalgan mansab xalqni va karvonlarni o‘g‘ri-qaroqchilardan himoya qiluvchi dasta boshlig‘i, yozma manbalarda minglar Samarqand shahri atroflari, Urgut, Ishtixon, Kattaqo‘rg‘on, G‘allaorol tumanlari (Jizzax viloyati), O‘ratepa (Tojikiston Respublikasi), Sirdaryo bo‘ylari, Qo‘qon, Farg‘ona, Buxoro, Surxondaryo, Xorazm, Qoraqalpog‘iston, shuningdek, Turkmaniston, Boshqirdiston, Qirg‘iziston, Tuva Avtonom Respublikasi hududlarida yashashlari, Oltiqush qipchoqlarning bir urug‘i nomi bo‘lib, urug‘ vakillari XVII asrda shu yerga kelib o‘rnashib qolganligi, tumandagi Qashqar qishlog‘i XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida tashkil topganligi haqida fikr yuritilgan. Quduq – suv olish uchun qazilgan tor chuqurlik. Bu leksema turkiy xalqlardan tashqari Volgabo‘yi, Qrim, Shimoliy Kavkazdagi rus shevalarida (Sharqiv Sibirgacha), Ukrainaning janubida ham iste’molda mavjudligi haqida bahs yuritilgan.

Kalit so‘zlar: toponimlar, etnonimlar, qishloq, Jobu, Katta Minglar, Kichik Minglar, Oltiqush, Qashqar, Quduq.

О НЕКОТОРЫХ ТОПОНИМАХ ДАНГАРИНСКОГО РАЙОНА

Усмонова Софияхон Алимовна

доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент
Кокандский государственный университет

Аннотация. В данной статье подробно объясняется принципы наименования некоторых селений Дангаринского района Ферганской области, таких как Джобу, Олтыкуш, Катта Минглар, Кичик Минглар, Кашкар и Кудук. В частности, джабгу//джабу — высший титул главы племени или рода в Западно-

Тюркском каганате, то есть в Туркестанском крае; в узбекских ханствах должность «джильбан» входила в число обязанностей и должностей: начальник отряда, защищавшего людей и караваны от разбойников. Согласно письменным источникам, тысячи из них проживают в окрестностях города Самарканда, Ургутского, Иштиханского, Каттакурганского, Галла-Арольского районов (Джизакская область), Уратепы (Республика Таджикистан), на берегах реки Сырдарьи, в Кокандской, Ферганской, Бухарской, Сурхандарьинской, Хорезмской областях, Каракалпакстане, а также на территориях Туркменистана, Башкортостана, Киргизии и Автономной Республики Тува. Олтыкуш — название рода кипчаков, представители которого поселились здесь в XVII веке. Село Кашгар в этом районе возникло в конце XVIII — начале XIX века. Колодец — глубокая яма вырытая для добычи воды. Помимо тюркских народов, топонимы также используется и в русских диалектах Поволжья, Крыма, Северного Кавказа (до Восточной Сибири) и юга Украины.

Ключевые слова: топонимы, этнонимы, кишлак, Джобу, Большой Минглар, Малый Минглар, Алтыкуш, Кашгар, Кудук.

ON SOME TOPONYMS OF THE DANGARINSKY DISTRICT

Sofiyakhon Alimovna Usmonova

doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Kokand State University

Abstract. This article provides a detailed explanation of the naming principles for certain villages in the Dangara district of the Fergana region, such as Jobu, Oltykush, Katta Minglar, Kichik Minglar, Kashkar, and Kuduk. Specifically, jabgu/jabu was the highest title for a tribe or clan leader in the Western Turkic Khaganate, that is, in the Turkestan region. In the Uzbek khanates, the position of "jilban" was included among the official duties and positions: head of the detachment protecting people and caravans from robbers. According to written sources, thousands of them live in the vicinity of the city of Samarkand, Urgut, Ishtikhan, Kattakurgan, Gall-Aral districts (Jizzakh region), Uratapa (Tajikistan Republic), along the Syr Darya River, in Kokand, Fergana, Bukhara, Surkhandarya, Khorezm regions, Karakalpakstan, as well as in the territories of Turkmenistan, Bashkortostan, Kyrgyzstan, and the Tuvan Autonomous Republic. Oltikush is the name of a Kipchak clan whose representatives settled here in the 17th century. The village of Kashgar in this area emerged in the late 18th - early 19th centuries. A well is a deep pit dug to extract water. In addition to Turkic peoples, toponyms are also used in Russian dialects

of the Volga region, Crimea, North Caucasus (to Eastern Siberia), and southern Ukraine.

Keywords: toponyms, ethnonyms, kishlak, Job-u, Great Minglar, Small Minglar, Altykush, Kashgar, Kuduk.

Kirish. Ma'lumki, joy nomlari hududning o'tmishdagi tabiiy sharoiti, relyefi, o'simlik va hayvonot olami, qazilma boyliklari kabilar haqida ham qimmatli ma'lumotlar beradi. Bundan tashqari, etnotoponimlar tarkibida ishtirok etgan etnonimlar orqali ma'lum bir hududda qaysi qabila, urug' vakillari yashaganligi, ularning turmush tarzi haqida ham ma'lumot beradi.

Mazkur maqolada Farg'ona viloyati Dang'ara tumanidagi ayrim qishloqlar nomlari haqida to'plagan materiallarimiz izohiga to'xtalib o'tmoqchimiz.

Jabu//Jobi – bir vaqtlar o'rmon hududida bo'lgan qishloq. Jabg'u// Jabu – talaffuzda “g” tovushi tushib qolgan. M.Xo'jayev fikriga ko'ra, “G'arbiy turk hoqonligida, ya'ni Turkiston o'lkasida qabila, urug' boshlig'iga berilgan oliy unvon bo'lib, hozirgi “hokim” tushunchasiga to'g'ri keladi. Mazkur qishloq o'rnida turkiy qabilalardan birining jabg'usi qarorgohi o'rnatilgan”. “O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati”da [2: 279] bu nom turk tilidan kelib chiqqan: jabg'u yoki yabg'u so'zi – -suveren ma'nosiga ega bo'lgan qadimgi turkiy unvon va umuman, harbiy turklar orasida oliy hukmdor unvonidir.

S.Tursunov “Surxondaryo viloyati toponimlari” monografiyasida “JOBU – Oltinsoy tumandagi qishloq. Turkiy etnonim, o'zbek urug'laridan biri yobg'u (yabg'u) deb atalgan. Kul Tigin, Bilga qoon yodgorliklarida yabg'u so'zi ko'p bor uchraydi. Qadimiy turklarda bu unvon qabila va qabilalar ittifoqi boshlig'iga berilgan. Markaziy Osiyoning qadimiy xalqlaridan bo'lmish qarluq xonlari ham yobg'u deb atalgan. O'rxun-Enasoy bitiklarida va Mahmud Qoshg'ariyning “Devoni lug'otit turk” asarida ushbu nom Yabaqu (Yabag'u) shaklida keladi, keyinchalik Yabg'u-Yabu, Jabu-Jobu tarzida o'zgarishlarga uchragan. Aksaran bu atama qo'shin boshlig'i, ya'ni sarkarda ma'nolarini anglatib, dastlab qabila, qavm va nihoyat urug' nomiga o'tib qolgan”ligi qayd etiladi [5: 44].

Jabu (yabu) – kichkina o'zbek urug'i nomi. Urug' vakillari O'zbekistonning janubi va Zarafshon vodiysida yashashgan va shuning uchun shunday nomlangan.

Mahalliy aholi vakillaridan olingan ma'lumotlarda “jobi” Qoraqalpoq urug'laridan biri hisoblanib, Qo'qon xonligi davrida ko'chib kelingan. Bu yer aholisi asosan dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanganlar. XIX asrning 80-yillarida bu qishloq hududi ancha katta bo'lgan, aholisi ham ko'pchilikni tashkil etgan. Bu davrlarda qishloq “JOBI VOLOSTI” deb ham yuritilgan. Bu qishloqda polvonlar yashab o'tgan. Shulardan bizga Mahmud polvon ma'lumdir. U taxminan XIX asrning 80-yillarida tug'ilgan. U kuchli nomdor polvon bo'lib, 1910-yillarda Qo'qonda bo'lgan

polvonlar kurashida sovrin shunga berilgan. U insonning avlodlari hozir Namangan viloyatiga qarashli Alamliota (Alami) qishlog'ida yashaydilar.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Maqolani yoritishda qiyoslash, tavsiflash, lingvogeografik, onomastik metodlardan foydalanildi.

Jilva – M.Ho‘jayevning “Tilsimotli Dang‘ara” [1: 129] kitobida quyidagicha ma‘lumot berilgan. Mazkur toponimning to‘g‘ri nomi “Jilbon” shaklida bo‘lgan. O‘zbek xonliklarida amal va mansablar ichida “jilbon” deb atalgan mansab ham bo‘lgan. Jilbon xalqni va karvonlarni o‘g‘ri-qaroqchilardan himoya qiluvchi dasta boshlig‘i degani. Bu yerda Muhammad Qobul nomli jilbon istiqomat qilgan. Qishloq nomi shu kishiga nisbat berib qo‘yilgan. Yillar davomida talaffuzda Muhammad Qobul – Matqovulga aylangan. So‘ngra uning ismi ham tushib qolgan va Jilbon Jilvaga aylanib ketgan. Nomning suv jilvasiga aloqasi yo‘q.

“O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati”da [2: 293] quyidagi ma‘lumotlar berilgan. Buxoro xonligida ko‘p sonli amaldorlardan biri jilbon deb nomlangan va ular xalqni o‘g‘rilar, qaroqchilar va boshqalardan saqlashgan va shundan so‘ng qishloq nomi shu nomda atalgan. Bu hududda shunday kasb egalariga nisbat berilib joy nomiga qo‘yilgan va keyinchalik tildagi metateza hodisasiga ko‘ra Jilbon Jiblonga aylangan.

Katta Minglar//Kichik Minglar – Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumanidagi qishloqlar nomi. Yirik o‘zbek qabilalaridan biri. Mas‘ud ibn Ko‘histoniyning “Tarixi Abulxayrxoniy” nomli asarida o‘zbeklar va ularning XV asrda tashkil topgan davlati to‘g‘risida gapirilar ekan, tuman – ming urug‘i ham tilga olinadi. 1426-1427-yillarda Shohrux buyrug‘i bilan yangilangan temuriylarning shajara kitobi – “Mu‘izz al-ansob”da, ming qabilasi tilga olingan. A.D.Grebenkin ma‘lumotlariga ko‘ra, minglar Markaziy Osiyoga Chingizxon istilolaridan oldinroq kelib, Sir bo‘ylab istiqomat qilganlar. O‘rta asr tarixchilaridan Muhammad Yusuf munshiy “Tarixi Muqimxoniy” asarida 1702–1707-yillar voqealari haqida hikoya qilar ekan, Shibirg‘on minglarning yurti bo‘lganligini qayd etadi. Keksa kishilar xotirasida ota-bobolarining Balx tomonlardan kelganliklari haqidagi rivoyatlar saqlanib qolgan. Farg‘ona o‘tmishi haqidagi ma‘lumotlarda minglar Vodil qishlog‘iga XVII asrning boshlarida Samarqanddan kelishganligi, keyinchalik ularning avlodlari Qo‘qonga ko‘chib o‘tganliklari ko‘rsatilgan (Gubayeva, 1983). Yozma manbalarda minglar Samarqand shahri atroflari, Urgut, Ishtixon, Kattaqo‘rg‘on, G‘allaorol tumanlari (Jizzax viloyati), O‘ratepa (Tojikiston Respublikasi), Sirdaryo bo‘ylari, Qo‘qon, Farg‘ona, Buxoro, Surxondaryo, Xorazm, Qoraqalpog‘iston, shuningdek, Turkmaniston, Boshqirdiston, Qirg‘iziston, Tuva Avtonom Respublikasi hududlarida yashashlari ko‘rsatilgan. Dastlab yirik qabila bo‘lgan minglarning mamlakat siyosiy hayotidagi mavqeyi anchagina baland bo‘lgan. Rivoyatlarga ko‘ra, bu narsa O‘ratepa va Urgutda ko‘proq ko‘zga tashlangan. Rus istilosiga qadar mazkur tumanlarning beklari ming qabilasi

vakillari bo'lib, ular hokimlikni amirning farmoni bilan emas, vorislik tufayli egallaganlar. Markaziy hokimiyatga esa nomigagina bo'ysunganlar. Zarafshon okrugidagi minglar asosan Urgut va Shovdor (hozirgi Samarqand va Toyloq) tumanlarida yashashgan. Mahalliy kishilarning aytishlaricha, ming atamasi "ko'p, ko'pchilik" so'zining sinonimi bo'lib, minglarning o'tmishda ko'p sonli bo'lishi bilan bog'lanadi. Professor X.Doniyorovning fikriga ko'ra, minglarning asosiy qismi sipolashib ketgan va shu sababli hozirgi vaqtda o'zlarining urug'-aymoqlarini unutib yuborishgan. Vaholanki, ularga qarindosh bo'lgan qabila – yuzlarda urug'lar ancha mo'tadil saqlangan. Olim o'z asarida minglarning bo'linishiga oid materiallar deyarli yo'q, deydi va urgutlik B.Xo'jamurodov, N.Berdiyev ma'lumotlariga tayanib, ming qabilasi haqida qisqagina to'xtalib, uning voxtamg'ali, to'g'ali, bog'lon, o'ramas, jarat, ramadon va jalmat urug'lari haqida yozadi [9]. T.Nafasov "O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati" asarida quyidagicha ma'lumotni beradi: "Ming – o'zbek qabilalarining biri. Ular XV asrning oxiri – XVI asr boshlarida Dashti Qipchoqdan ko'chib kelgan. Etnonim oykonimga o'tgan" [12: 117].

Minglarning mamlakat siyosiy hayotida tutgan o'rni ancha katta bo'lib, XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Farg'ona vodiysida vujudga kelgan Qo'qon xonligi ming qabilasi vakillari tomonidan 1876-yilgacha, ya'ni Farg'ona vodiysining Rossiyaga qo'shib olinishigacha bo'lgan davrda boshqarildi. Qishloq kengayib asosiy qishloq Katta Minglar, keyinchalik unga yaqin hududda barpo bo'lgan qishloqni Kichik Minglar deb ataladigan bo'lgan. Minglar toponimi "Ming urug'i vakillari yashaydigan qishloq" ma'nosini bildiradi.

Natijalar va muhokama. Oltiqush – M.Xo'jayev risolasida Olaxamak etnonimining izohida Oltiqush ham sanalgan. "Qipchoqlarning bir urug'i nomi bo'lib, urug' vakillari XVII asrda shu yerga kelib o'rtnashib qolgan. Shuningdek, Oqtovuq, Oltiqush, Oltio'rtoq, Oqchangal, Puchug'oy, To'da, Taypoq, Taqali, To'rtayg'ir, Teleming, Tumor, Turkman, Uchuyli, Usxotun, Uzun, Uymovut, Uyurchi, Chig'ali, Qorabo'yin, Chuyit, Chirkay, Chuvaldoq (Chekchuvaldoq), Chimboy, Chig'irli, Shildir, Sherali, Eshboy, Eshikchi, Yashik, Yakka-dukka, O'rmiton, O'ray, Qoraqo'yli, Qo'ng'iroq, Qizilmush, Qorashak, Qorako'rpa, Qoratosh, G'oziyog'li, G'umayli kabi qishloqlar nomi o'zbek, qipchoq, qoraqalpoqlarning turli urug'lari, laqablari nomidan olingan" [1:132].

Mahalliy aholidan olingan ma'lumotlarda ko'ra, qishloq qariyb 500 yillik tarixga ega qadimiy qishloqlardan biridir. Qishloq tarixi to'g'risida Qo'qon tarixining atoqli muarrix Mirzaolim Mushrifning "Qo'qon xonligi tarixi" asarida, rus sayyohi va atoqli tarixchisi Nalivkin va Qo'qon tarixi bo'yicha ko'plab asarlar muallifi H. Bobobekov hamda M. Dadaboyev, M. Xo'jayev, Z. Esonov asarlarida qimmatli ma'lumotlar bayon etilgan.

Qishloq hududi Qo‘qon xonligi davrida xonning shaxsiy mulki sifatida e‘tirof etilgan. “Qo‘riq” yerlarning tarkibiy qismi bo‘lgan, ya‘ni ov hududi bo‘lgan. Qishloq Qo‘qon xoni Olimxonning 1810-yilda Toshkentdan qaytishda saroy to‘ntarilishi natijasida o‘ldirilgan manzil sifatida tarixiy manbalarda qayd etilgan. Bu yerdan savdo karvonlarini Qo‘qon shahriga olib boruvchi “Saroy yo‘li” o‘tganligi tufayli ham qishloq tarixiy manbalarda shaharga kirishdan avval to‘xtab o‘tuvchi qo‘nalg‘a vazifasini bajargan. Qishloq aholisi, asosan, dehqonchilik bilan shug‘ullangan.

Xalq orasida dastlabki vaqtda qishloqda yashagan 6 aka-uka qo‘sh (yerni shudgor qiluvchi qadimiy uskuna) bilan yerga ishlov berganligi tufayli ham shu nom bilan tarixda qolgan. Aholining fikriga qaraganda, qishloq nomi rasmiy hujjatlarda va tarixiy manbalarda “Oltiqo‘sh” deb ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, qishloq nomi yo‘l yoqasidagi tablolarda “Oltiqush” tarzida berilganligi tushunmovchiliklarga sabab bo‘lmoqda, deyiladi.

Bizningcha, Oltiqush bu etnotoponim, ilmiy manbalarda oltiqush qipchoq urig‘i tarkibida sanaladi. Bu yerlarda qipchoqlarning oltiqush – tug‘ va tamg‘alarida “olti qush” belgisi mavjud etnik gururh vakillari yashagan. Aholi ushbu nomning tashqi shakliga ko‘ra xalqona izoh berib kelgan. Oltiqush qishloq nom ko‘rsatkichi ham to‘g‘ri yozilgan.

Qashqar – Qashqar qishlogi XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida tashkil topgan. Uning tashkil topishi bevosita Qo‘qon xonligining kuchayishi va hududning kengayishi bilan bog‘liq. Janubda Pomir tog‘ida joylashgan Qorategin viloyati, G‘arbda Xo‘jand va O‘ratepa viloyatlari, Shimolda Chimkent, Turkiston va Oqmachit viloyatlari sharqda Uyg‘ur o‘lkalari Qo‘qon xonligi tarkibida bo‘lgan. Shu davrda Uyg‘uristondan juda ko‘p aholi Qo‘qon xonligi hududiga tarqalib o‘z turar joylarini barpo qilganlar. O‘zbekistonda Qashqar nomli qishloqlarnng ko‘pligi ushbu jarayonning natijasidir. Uyg‘uristondan kelgan kishilarning uning markaziy viloyati bo‘lgan Qashqarga nisbat berilib qashqarliklar, ular o‘rnashgan qishloqlarni esa Qashqar deb atalgan. Ba‘zi tumanlarda 3, hatto 4 tagacha Qashqar nomli qishloqlar mavjud. Qo‘qon shahrining g‘arbidan-sharqda 6-7 chaqirim uzoqlikda joylashgan bu qishloqda, dastlab 30-40 xo‘jalik mavjud bo‘lgan. Ular, asosan, ipakchilik bilan shug‘illangan. Qishloqda kattagina buloqning borligi, yuqoridan keladigan suvlarning shu yerdan oqib o‘tishi, qishin-yozin to‘xtamaydigan Naymansoyning shu yerdan o‘tishi, havosining mo‘tadilligi tutzorlarni ko‘paytirish va ipakchilikni rivojlanishiga juda qulay bo‘lgan. Atrofdagi Tog‘liq, Boybo‘ta, Barzangi, Chomoch, Turkman, To‘rtayg‘ir, Targ‘ova, Aravon, Minglar qishloqlaridan ham ipakchilikni rivojlantirishda Qashqar qishlog‘i tashkillotchilik qilgan. Qo‘qon shahridagi Atlas to‘qish fabrikasi boshchiligida ipak qurti boquvchilar zaruriy uskunalar, dastgohlar ipak qurtining urug‘i va mablag‘ bilan mumtazam ta‘minlagan. To‘rtayg‘ir, Targ‘ova

Sirdaryogacha cho‘zilgan to‘qayda yashovchi qozoqlar tuyalarda yilg‘in o‘tinni olib kelib Qashqar qishlog‘ida sotganlar. Katta qozonlarda ipak pishiruvchilarni o‘tin bilan ta‘minlaganlar. Atrof qishloq aholisi yetishtirgan pillalarni Qashqar qishlog‘ining pilla bozorida sotganlar. Qashqarliklar pilladan ipakni ajratib olib Qo‘qon atlas fabrikasiga yetkazib berganlar. Qishloqlardan erkak ayollar kelib pilla pishirishni, ipak olish va katta charxlarda kalava qilish ishlarini bajarganlar.

Quduq “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” I jildida “Quduq “maxsus kovlab, suv chiqaridgan chuqurlik” deb izohlangan. *Matqovul quduqdan suv tortib turib bu yoqqa qarab-qarab qo‘yar.. edi* (Mirzakalon Ismoilij). Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma‘noni anglatgan bu so‘zning asli quyug‘ (Devon, III, 180), quzuq (Devon, I, 356), qudug‘ (Devon, III, 134, 246, 298) shakllari mavjud bo‘lgan, hatto havola tarzida quduq shakli ham keltirilgan (JTC, 463: quduq sm. qudug‘ I). Ko‘rinib turibdiki, quduq shakli eng keyin yuzaga kelgan va shu shakl hozirgi o‘zbek tiliga yetib kelgan. Qudug‘ so‘zi tarkibidagi -(u)g‘ qismi – ot yasovchi qo‘shimcha; bu yasalishga asos bo‘lgan qism fe‘lga teng. Demak, qudug‘ oti “suv sol” - ma‘nosini anglatgan quy fe‘lining qadimgi turkiy tildagi qud shaklidan yasalgan bo‘lsa kerak. Bu so‘z tarkibini boshqacha talqin qilish ham mumkin: qadimgi turkiy tilda “past” ma‘nosini anglatgan qoyi sifatining qodi shaklidan (JTC, 453, 451) -q qo‘shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik i unlilari u unlilariga almashgan: (qoyi > qodi) + q = qodiq > quduq”. “O‘zbek tilining izohli lig‘ati” da quyidagicha izoh berilgan: 1 Suv olish maqsadida vertikal tarzda qazilgan tor va teran chuqurlik; gidrotexnika inshooti. Quduqdan suv tortmoq. *Suv ichadigan qudug‘ingga tupurma*. Maqol. *Paqirni olib quduqdan suv keltirib, ayyonga, do‘kon ichiga qalin qilib sepadi*. S.Siyoyev. „Avaz“.

2 Yer ostidan gaz, neft olish yoki yer-tuproqni tekshirish uchun parmalash mashinalari vositasida qazilgan juda chuqur tor o‘ra; skvajina. Burg‘ilangan quduq. Gaz qudug‘i. Issiq mineral suv qudug‘i. Neft qudug‘i. Olib chiqdi tog‘ning boshiga, Sanolmadim neft minorasin. Ko‘rdim quduq parmalayotgan Yigitlarning polvon – sarasin. [VI, 364]

S.Qorayev “Toponimika” kitobida quduq – suv olish uchun qazilgan tor chuqurlik. Turkiy xalqlardan tashqari Volgabo‘yi, Qrim, Shimoliy Kavkazdagi rus shevalarida (Sharqiv Sibirgacha), Ukrainaning janubida ham iste‘molda. Tojik tili shevalarida quduq deganda buloq ham tushuniladi. Turkmanistonda quduqning bir necha turi bor, ko‘milib ketgan quduq guduk, quduq esa xuyi, usmoni turklarda kuyuk deyiladi. Ba‘zi bir turkiy tillarda buloqni ham quduq deyishadi. O‘zbekistonda Quduq, Quduqli, Quduqcha, Qo‘shquduq, Uchquduq kabi yuzlab toponimlar borlini ta‘kidlaydi [4:244].

Mahalliy aholidan olingan ma‘lumotga ko‘ra “Quduq” qishlog‘i hududida qadimiy quduq joylashgan. Hozirda ham u mavjud. Suvi qishin-yozin muzdek. Hatto

qahraton qishda ham muzlamaydi. Bu quduq “Xobbuva” ziyoratgohi ichida joylashgan.

Yuqoridagi ma’lumotlatga tayangan holda quyidagi xulosani berish mumkin: mazkur Qudug qishlog‘i qadimiy bo‘lib, Qo‘qon xonligiga kirish-chiqish karvon yo‘lida joylashgan. Xonlikka kirish yo‘llarida karvondagilar va ularning ulovlari uchun maxsus quduqlar kavlangan. Tabiiyki, chuchuk, ichimlik suv bor joyda odamlarning tirikchilik qilishiga qulay sharoit mavjud bo‘ladi. Qudugning kavlanishi bilan bu yerda hayot tarzi yaxshilanib boradi, natijada uning atrofiga aholi uy-joy qurib, yashay boshlaydi. Shunday sabablar bilan ayrim qishloqlar barpo bo‘lgani kabi quduq gidronimidan Qudug gidroonymi paydo bo‘lgan.

Xulosa. Qadimiy nomlarni o‘z holicha saqlab qolish zarur. Ularni jarangdor nomlar bilan almashtirish mumkin emas. O‘rganish jarayonida Dang‘ara tumani MFY, ko‘chalar nomlanishlarida bunday hol kuzatildi. Tarixiy voqelik, o‘tmish bilan bog‘liq bo‘lgan xalq xotirasidagi nomlarni tiklash maqsadga muvofiq. Nomlar aholining qadimiy va hozirgi ishlab chiqarishi, sanoat, hunarmandchilik, madaniy hayot olami bilan daxldor bo‘lishi, shular bilan daxldor tushunchalar, narsalar, hodisalarning nomi bilan bog‘liq bo‘lishi lozim. Joy nomlari o‘zbek xalqining milliylik, tarixiylik, an‘anaviylik, toponimik o‘ziga xoslik xususiyatlarini aks ettirmog‘i lozim. Joylarga nom bo‘lish fazilatiga xos bo‘lmagan, ma’naviyat olamiga daxldor bo‘lgan tushunchalarni ifodalovchi nomlarni qo‘yishdan voz kechish lozim. Yuqorida nomi izohlangan qishloq nomlarida tarixiy joziba o‘z aksini topganligi bilan qimmatli, deb o‘ylaymiz.

Adabiyotlar:

1. Ho‘jayev M. Tilsimotli Dang‘ara. – Farg‘ona. 2013.
2. O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati. – T., 2024.
3. O‘zbek tilining izohli lig‘ati. – T. 2022. VI.
4. Qorayev S. Toponimika. – T., 2003.
5. Tursunov S. Surxondaryo viloyati toponimlari. – T., 2008.
6. Usmonova S.A. Qo‘qon shahri toponimiyasining nomlanish asoslari va lisoniy xususiyatlari. Monografiya. – Qo‘qon, 2023.
7. Бобобеков Х. Қўқон тарихи. – Т., 2002.
8. Дадабоев Я. Хўқанди латиф маҳалла ва кўчаларининг номланиш тарихи. Фарғона, 2007.
9. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Т., 1968.
10. Мирзаолим Мушриф. Қўқон хонлиги тарихи. – Ташкент, 1995.
11. Набиев Р. Из истории Кокандского ханства. – Ташкент, 1973.
12. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Т., 1988.

QIZILTEPA TUMANI OYKONIMLARINING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI: O‘Z VA O‘ZLASHMA QATLAMLAR MISOLIDA

G‘aniyev Nurbek O‘ktamovich

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qiziltepa tumani toponimiyasining o‘ziga xos xususiyatlari va uning etnik, madaniy tarixini aks ettiruvchi jihatlari tahlil qilinadi. Tuman joy nomlarining morfologik va semantik tarkibi orqali hududda yashovchi xalqlar va etnik guruhlarining tarixi, madaniy aloqalari, ijtimoiy-siyosiy jarayonlari yoritilgan. Maqolada Qiziltepa tumanining toponimlaridagi turli tillardan kirgan o‘zlashmalar va milliy qatlamlarning o‘zaro ta’siri alohida e’tiborga olinadi. O‘z qatlamga mansub toponimlar, shuningdek, fors-tojik va arab tili leksikasidan olingan nomlarning mavjudligi o‘rganiladi. Maqola joy nomlari orqali xalqlararo madaniy aloqalarni, tarixiy jarayonlarni va ularning tildagi aksini ilmiy tahlil qilishni maqsad qilgan. Mazkur tadqiqot Qiziltepa tumani toponimiyasining lingvistik va etnografik jihatlarini chuqur tahlil qilish orqali hududning tarixiy va madaniy kontekstini kengaytiradi va ilmiy tadqiqotlarda yangi yondashuvlar yaratadi.

Tayanch so‘zlar: toponimiya, morfologik tarkib, semantik tarkib, etnik tarix, madaniy aloqalar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, milliy qatlamlar, o‘zlashmalar, tarixiy jarayonlar, tildagi aks, lingvistik tahlil, madaniy kontekst.

МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОЙКОНИМОВ КИЗИЛТЕПИНСКОГО РАЙОНА: НА ПРИМЕРЕ ИСКОННОГО И ЗАИМСТВОВАННОГО ПЛАСТОВ

Ганиев Нурбек Уктамович

доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент
Навоийский государственный горный и технологический университет

Аннотация. В данной статье анализируются особенности топонимии района Кизилтепа и ее отражение в этнической и культурной истории. Через морфологический и семантический состав топонимов рассматриваются история, культурные связи и социально-политические процессы, характерные для народов и этнических групп, проживающих на данной территории. В статье особое внимание уделено взаимодействию различных слоев, таких как топонимы, образованные на основе родного слоя, а также заимствованные слова из персидско-таджикского и арабского языков. Автор ставит целью научно

проанализировать культурные связи народов, исторические процессы и их отражение в языке через географические названия. Настоящее исследование расширяет исторический и культурный контекст топонимии района Кизилтепа, предлагая новые подходы в научных исследованиях.

Ключевые слова: топонимия, морфологический состав, семантический состав, этническая история, культурные связи, социально-политические процессы, национальные слои, заимствования, исторические процессы, отражение в языке, лингвистический анализ, культурный контекст.

MORPHOLOGICAL FEATURES OF OIKONIMS OF THE KIZILTEPPE REGION: BASED ON THE EXAMPLE OF THE PRIMORDIAL AND BORROWED LAYERS

Ganiev Nurbek Uktamovich

doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Navoi State University of Mining and Technology

Abstract. This article analyzes the distinctive features of the toponymy of the Kyziltepa district and its reflection of ethnic and cultural history. Through the morphological and semantic structure of place names, the history, cultural relations, and socio-political processes of the peoples and ethnic groups residing in this area are explored. The article pays particular attention to the interaction of various layers, such as place names formed from the native layer, as well as loanwords from persian-tajik and arabic languages. The aim of the article is to scientifically analyze the cultural relations between peoples, historical processes, and their reflection in language through geographical names. This research expands the historical and cultural context of the toponymy of the Kyziltepa district and provides new approaches to scientific research.

Keywords: toponymy, morphological composition, semantic composition, ethnic history, cultural relations, socio-political processes, national layers, loanwords, historical processes, reflection in language, linguistic analysis, cultural context.

Kirish. Joy nomlari – o‘tmish va bugunning o‘zaro bog‘liqligini ifodalovchi, muayyan hudud xalqlarining tili, tarixi, madaniyati hamda etnik tarkibini yoritib beruvchi noyob til birliklaridir. Toponimlar orqali xalqning atrof-muhitga munosabati, uni idrok etish shakllari, tarixiy va ijtimoiy tajribalari aks etadi. Shu bois toponimlar nafaqat lingvistik birlik, balki tarixiy-madaniy manba sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Har bir geografik nom o‘z davrining muayyan tarixiy, sotsial va etnomadaniy kontekstida shakllangan bo‘lib, xalq tafakkurining mahsuli hisoblanadi.

Zamonaviy toponimika fani toponimlarning nafaqat lingvistik, balki ekstralingvistik (ya'ni, til tashqarisidagi) omillar bilan bog'liqligini ham o'rganadi. Joy nomlarining tarkibiy tuzilishi, kelib chiqishi va morfologik shakllanishi o'sha hududda yashagan yoki yashayotgan xalqlarning tarixiy taraqqiyoti, migratsiya jarayonlari, til aloqalari va madaniy zaminlari haqida muhim ma'lumot beradi.

Qiziltepa tumani toponimiyasi ham bu jarayondan mustasno emas. Navoiy viloyatining markaziy hududida joylashgan mazkur tuman qadimiy tarixiy jarayonlar, turli etnoslar faoliyati va madaniy ta'sirlar bilan boy bo'lgan toponimik qatlamlarga ega. Asosan o'zbek va tojik tillarida so'zlashuvchi aholi bilan bog'liq etnolingvistik omillar Qiziltepa toponimiyasining tarkibiy xususiyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Bu hududda o'z va o'zlashma qatlamga mansub oykonimlar birgalikda mavjud bo'lib, ularni morfemik va morfologik jihatdan tahlil etish orqali Qiziltepa tumanining toponimik manzarasini chuqurroq anglash imkoniyati tug'iladi.

Toponimik tizimda milliy tafakkurning ildizlari mujassam bo'lgan qatlamlar bilan bir qatorda, ijtimoiy-siyosiy omillar ta'sirida yuzaga kelgan o'zgarishlar yoki yo'qolgan toponimik birliklar ham kuzatiladi [1;6]. Shu bois, joy nomlari tilshunoslik, tarix, madaniyatshunoslik va antropologiya singari sohalar kesishgan nuqtada tahlil etilishi lozim bo'lgan murakkab va ko'p qirrali hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Faqat tahlil orqaligina ayrim murakkab til hodisalarining mohiyatini yaxshiroq anglash mumkin [2;5-6].

Asosiy qism. Toponimlarning ekstralingvistik xususiyatlari ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, har bir geografik nomning muayyan tarixiy davrga oid axborotni o'zida mujassamlashtirishi alohida e'tiborga molikdir. Qadimiy davrlarda yaratilgan joy nomlari bugungi kungacha til va madaniyat xotirasi sifatida saqlanib qolgan bo'lsa-da, toponimik tizim doimiy rivojlanishda bo'lib, yangi tarixiy-sotsial sharoitlarga mos holda yangi toponimlar bilan boyib boradi. Toponimik tizimning tarkibida mavjud bo'lgan turli qatlamlar ularni tarixiy-xronologik ketma-ketlikda o'rganishni talab etadi, bu esa toponimiyadagi davriy o'zgarishlar va lingvistik ko'rinishlarning yanada chuqur tahlilini ta'minlaydi. Toponimiyada turli-tuman unsurlarning mavjudligi, ularni tarixiy ketma-ketlikda o'rganish zarurligini talab etadi [3;157].

Yer yuzining har qanday geografik hududi singari, Qiziltepa tumanining toponimik tizimi ham ko'p qatlamli lingvistik birliklardan tashkil topgan. Ushbu tuman Navoiy viloyatining markaziy qismida joylashgan bo'lib, uzoq tarix davomida madaniy, ijtimoiy-siyosiy va etnik jarayonlarning faol markazlaridan biri bo'lgan. Ayniqsa, o'zbek va tojik tillarida so'zlashuvchi aholining tarixiy migratsiyasi, etnolingvistik aloqalari hamda mintaqadagi madaniy-dunyoqarashga oid omillar ushbu hududning geografik nomlari tizimida bevosita ifodasini topgan. Shuningdek, zamonaviy etno-demografik o'zgarishlar ham Qiziltepa tumanining toponimik xaritasini yangilashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa, ushbu

hududdagi joy nomlarini lingvistik va tarixiy kontekstda tizimli o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Natijalar va muhokama. Qiziltepa tumanining toponimik tizimi tarkibiy jihatdan turli tillar leksikasiga oid birliklardan tashkil topgan bo'lib, bu holat hududning ko'p asrlik tarixiy, lingvistik va etnomadaniy aloqalarini aks ettiradi. Ushbu tizimda umumturkiy va zamonaviy o'zbek tiliga mansub so'zlar asosida shakllangan joy nomlari yaqqol ustunlik qiladi. Ular toponimik tizimning o'z qatlamini tashkil etib, milliy til taraqqiyotining tarixiy bosqichlarini, leksik-morfologik xususiyatlarini va xalq tafakkurining mintaqaviy ko'rinishlarini ifodalaydi.

O'z qatlamga mansub toponimlar, asosan, o'zbek tilining faol leksik birikmalari va grammatik modellariga asoslangan holda vujudga kelgan. Bunday joy nomlari orasida O'zbekiston, Qiziltepa, Yakkatut, O'rtacho'l, Cho'ponota, Oqrabot, Yangi hayot, Beklar, Yormoqchisoy, Olmazor, Shodlik kabi nomlar mavjud bo'lib, ular semantik jihatdan bir-biridan farqlansa-da, tuzilishi jihatidan zamonaviy o'zbek tilining grammatik qonuniyatlariga to'la mos keladi. Bu kabi toponimlar xalq tilining tarixiy qatlamlarini saqlagan holda, hozirgi til tizimi bilan uzviy bog'liqligini namoyon qiladi.

Shu bilan birga, Qiziltepa tumani toponimiyasida genetik jihatdan boshqa tillarga mansub o'zlashma qatlamga kiruvchi joy nomlari ham keng uchraydi. Bunday toponimlar asosan fors-tojik, arab leksikasi asosida shakllangan bo'lib, ular mintaqaning tarixiy bosqichlarida yuzaga kelgan madaniy ta'sirlar mahsulidir. Xususan, fors-tojikcha o'zlashmalar tuman toponimik tizimining sezilarli qismini tashkil qiladi. Bu holat, ayniqsa, o'zbek va tojik tillarida so'zlashuvchi aholi yashaydigan hududlar uchun xos bo'lib, lingvistik integratsiya va tarixiy etnik xilma-xillik uyg'unligining yaqqol ko'rinishidir.

Shunday qilib, Qiziltepa tumanining toponimik tizimi o'z va o'zlashma qatlamlarga mansub joy nomlarining uzviy uyg'unligi asosida shakllangan bo'lib, ularni morfemik, morfologik hamda etimologik jihatdan tahlil etish hududning til va madaniyat tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimiz hududlarining toponimik tizimida fors-tojik tiliga mansub joy nomlari muhim o'rin egallaydi. Bu holat tilshunoslik nuqtayi nazaridan mutlaqo tabiiy bo'lib, tarixiy-etnik omillar bilan uzviy bog'liqdir. Chunki o'zbek va tojik xalqlari qadim zamonlardan buyon geografik jihatdan bir makonda yashab kelgan, o'zaro iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlarda bo'lgan. Bunday uzoq davom etgan yaqinlik, tabiiy ravishda, til tizimiga, xususan, toponimiyaga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Qiziltepa tumanining toponimik landshafti ham ushbu tarixiy-madaniy aloqalarning yaqqol ifodasi sifatida ko'plab fors-tojikcha leksik elementlarni o'z ichiga

oladi. Mazkur hududda uchraydigan fors-tojikcha komponentli toponimlar semantik va morfologik jihatdan turlicha bo'lib, ularning tarkibida, odatda, qadimgi tojik tiliga oid affiksalar birliklar, leksik asoslar va grammatik modellar faol qatnashadi.

Shulardan biri – *ob* komponentidir. Tojik tilida *ob* – *suv* ma'nosini bildiradi va u o'zbek toponimiyasida suv manbai yoki suv bilan bog'liq tabiiy geografik obyektlarni ifodalovchi nomlarda qo'llanadi. Qiziltepa tumanida bu kabi nomlar orasida Obiyavg'on, Obihayot, Duobdurun, Shanba obxo'r kabi toponimlar uchraydi. Bu nomlar odatda suv resurslariga yaqin joylashgan manzillar bilan bog'liq bo'lib, toponimlar orqali hududning tabiiy-geografik xususiyatlari ham aks ettirilgan.

Yana bir faol ishtirok etuvchi unsur – *deh* komponentidir. Fors-tojik tilida *deh* – *qishloq*, *aholi yashash joyi* ma'nolarini anglatib, ko'plab toponimlar tarkibida asosiy determinator sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, Dehqonobod toponimi “*deh*” (qishloq) va “*qon*” (mehnatkash, dehqon) komponentlaridan tashkil topib, mazkur hudud aholisi kasbiga oid ma'lumotni ham uzviy ifodalaydi.

Shuningdek, Qiziltepa toponimiyasida “*-gar*” + “*-on*” affiksalar modeliga asoslangan joy nomlari ham uchraydi. “*-gar*” affiksi fors-tojik tilida *ish bilan shug'ullanuvchi shaxsni* bildirsa, “*-on*” esa ko'plik bildiruvchi morfema sifatida xizmat qiladi. Bu komponentlar ishtirokida yasalgan Mayizgaron, Sobungaron, Kosagaron, Chitgaron kabi toponimlar asosan qadimgi kasb-hunarlar bilan bog'liq semantik yuklama kasb etadi. Masalan, *Sobungaron* – “so'vun yasovchilar”, *Chitgaron* – “chit to'quvchilar” kabi [4;405].

Demak, fors-tojikcha leksik qatlamga mansub ushbu toponimlar faqatgina fonetik yoki morfologik jihatdan emas, balki semantik va madaniy jihatdan ham ahamiyatlidir. Ular orqali Qiziltepa tumanining tarixiy etnik tarkibi, kasb-hunar yo'nalishlari va madaniy rivojlanish bosqichlarini belgilash mumkin bo'ladi. Bunday tahlil lingvistik holatni tipologik jihatdan baholashda ham muhim metodologik manba sifatida xizmat qiladi.

-on (yon) komponentli toponimlar Qiziltepa tumani toponimik tizimida semantik va morfologik jihatdan samarali va faol qatlamlardan biri hisoblanadi. Bu turdagi toponimlar asosan ko'plik yoki jamoaviylik ma'nosini anglatuvchi birliklar asosida shakllangan bo'lib, ular tarkibida qadimgi arabcha va forscha leksik elementlar bilan birga tojik tiliga oid topoformantlar ham faol qatnashadi.

Mazkur komponent ishtirokida yaratilgan toponimlarga Azizon, Sheyxon, So'fiyon, Kulolon, Nonvoyon, Tojikon, Arabon, Avg'onon kabi joy nomlari kiradi. Ularning birinchi qismi odatda arabcha yoki forscha lug'aviy birliklardan (*aziz* – muqaddas, *shayx* – diniy peshvo, *so'fi* – tasavvuf tarafdori, *kulol* – sopolchi, *nonvoy* – novvoy, *tojik* – etnonim, *arab*, *avg'on*) tashkil topgan bo'lib, bu birliklar semantik jihatdan aniq ijtimoiy, diniy yoki kasbiy guruhni bildiradi. Toponimlarning ikkinchi komponenti – “*-on (yon)*” esa tojik tilida ko'plikni anglatuvchi grammatik shakl

bo'lib, o'zbek tilidagi “-lar” affiksiga mazmunan yaqin turadi. Masalan: *Azizon* – *azizlar*, *Sheyxon* – *shayxlar*, *So'fiyon* – *so'filar* kabi. Bu toponimlar o'z mohiyatida ijtimoiy va diniy jamoalarning joylashuvi, ularning tarixiy iz qoldirgan hududlari bilan bog'liq ma'lumotlarni saqlab qolgan.

Ushbu toponimlar apellyativ leksik qatlamdan toponimiyaga o'tish jarayonida onomastik tizimning tarkibiy qismiga aylangan bo'lib, ularda oddiy nomlashdan tashqari tarixiy-etnik va kasbiy belgilar ifodalangan. Ayniqsa, bu kabi toponimlarning ko'plik ifodalovchi formatda shakllanishi ularning jamiyatdagi jamoaviylik, guruhiiy kasb-hunar mansubligi yoki etnik birligidan kelib chiqqan holda yuzaga kelganini ko'rsatadi.

-lar komponentli toponimlar esa Qiziltepa tumanida nisbatan kam uchraydi, biroq ular morfologik va sotsiolingvistik jihatdan o'ziga xos semantik yuklamaga ega. O'zbek tilida bu affiks, odatda, ko'plikni bildiruvchi grammatik birlik sifatida ishlatiladi. Ammo ayrim toponimlarda u ko'plik ma'nosidan tashqari, hurmat, umumlashtirish, mavhumlik, takror, sotsiologik guruh kabi qo'shimcha ma'nolarni ham anglatadi. Bu borada professor Sh.Rahmatullayev va akademik G'.Abdurahmonovlar bu affiksni maxsus so'z yasovchi morfema sifatida emas, balki kontekstual ma'no kuchaytiruvchi vosita sifatida izohlashgan [5;9]. Tadqiqotchi N.Oxunov esa “-lar” affiksining toponimiyadagi funksiyasini yanada chuqurroq o'rganib, uning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosida shakllangan toponimlar yaslashida faol ishtirok etishini ta'kidlaydi.

Mazkur komponent ishtirokida yaratilgan toponimlar ko'pincha kasb-hunar egalari yoki etnik guruhlariga tegishli bo'lgan aholi punktlarini ifodalaydi. Masalan, *Shifokorlar*, *Neftchilar*, *Tadbirkorlar* kabi kasb-hunar asosidagi toponimlar bilan bir qatorda *Qipchoqlar*, *Naymanlar*, *Arablar*, *Tojiklar*, *Turkmanlar* kabi etnotoponimlar ham mavjud. Ular orqali xalq, qabila, urug'larning joylashuvi, tarixiy migratsiyasi va madaniy-milliy xotirasi aks etgan.

Qiziltepa tumanida “-lar” komponentli toponimlar kam uchraydi, biroq mavjud bo'lgan holatlar til va tarixiy-etnik jarayonlar kesishgan nuqtalarda shakllangan muhim lingvistik fakt sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

-xo'r komponentli toponimlar. Tojikcha xo'rdan – “yemoq” fe'lidan, negizdan anglashilgan predmetni yeydigan, ichadigan yoki ko'p yeydigan, ko'p ichadigan shaxsni bildiruvchi ot yasaydi: go'ja/xo'r, palov/xo'r, qimiz/xo'r, nonxo'r, choy/xo'r. Ba'zan sifatlarga ham qo'shib, shaxsni belgi orqali anglatadi: tekin/xo'r [4;442]. Shuningdek, turkiylarni anglatuvchi xo'r so'zi haqida (Xitoy tili katta iyerogliflar lug'ati, 3-jild, 2057-bet) xitoyshunos olim A.Xo'jayevning fikricha, “Rus adabiyotidan hozirgi zamonaviy tilga kirib kelgan “tungus” etnonimi, xitoycha “dungxu” deb atalib, sharqiy “xu”larni bildirgan, xitoy tilida undosh “r” tovushini talaffuz etish mumkin

bo'lmaganligidan xitoylar "xo'r" terminini "xu" hieroglifi bilan ifoda etishgan. "Xu" va "xulu" turkiycha "xo'r" terminining xitoycha talaffuzidir. "Xo'r" qadimiy turkiyda erkin, ozod, bir joyga bog'lanib qolmagan, ko'chmanchi xalq ma'nosini anglatgan» [6;5-6].

-kor (-gar, -gor, -kar) komponentli toponimlar. Tojik tilidan kirgan; kasb egasi, mutaxassislik, mashg'ulot bilan bog'liq bo'lgan shaxs oti yasaydi: paxta/kor, bino/kor, xalos/kor, xizmat/kor, da'vo/gar, durad/gor, mis/kar kabi.

Shu nuqtayi nazardan o'rganilgan hudud mikrotoponimiyasida "*-kor (-gar, -gor, -kar)*" formantli, yetakchi olim S.Qorayev tasnifi bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy oykonimlar mavjudligi, hunarmandchilik va dehqonchilikning takomil topganligidan dalolat beradi. Masalan, Sobungaron, Mayizgaron, Chitgaron, Kulolon, Kosagaron, Paxtakor, Vaximkor, Bunyodkor kabi.

-zor komponentli toponimlar. Asosdan anglashilgan predmetning bo'lish yoki mo'llik o'rnini bildiradigan otlar yasaydi: paxta/zor, olma/zor, gul/zor va boshqalar.

O'rganilgan hududdagi bir qancha yasama toponimlar mavjud oykonimik asos(lar)ga oykonimik formant(lar)ning qo'shilish jarayonidan oykonim yasalishi ro'y bergan. Masalan, *O'rikzor* (*o'rik+zor, ammo o'rikzor emas*), *Olmazor* (*olma+zor, lekin olmazor emas*), *Gulzor* (*gul+zor, biroq gulzor emas*) va h. Bu tarzda yasaliş asosiy oykonimik yasalişga misol bo'lib, yuqoridagi singari qo'shimchalar turdosh otlarni yasaydi. Bizningcha, bunday vaqtda toponimning o'zagi bo'lgan onomastik so'zlarning, avvalo, turdosh ot sifatida yasalganligi, keyinchalik onomastik leksika sathida toponimlashuv hodisasi natijasida toponimlar sathiga ko'chganligini inobatga olishimiz lozim.

-lik komponentli toponimlar. Turli xil so'z turkumlariga qo'shib, mavhum ma'noli va konkret predmet otini yasaydi: bola/lik, ona/lik, talaba/lik, zargar/lik, tez/lik, dars/lik, kunda/lik kabi [4;442]. Yana shuni aytib o'tish kerakki, zargarlik, kosiblik, miskarlik kabi so'zlar yasalganda, kasb-hunar, faoliyat, ya'ni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan otlarni yasaydi. O'rganilgan Qiziltepa tumani hududida Mustaqillik, Ezgulik, Obodlik, Ozodlik kabi neooykonimlar (yunoncha – neos – yangi; oikos – makon, turar joy, onoma – nom so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, "yangi joy nomi" degan ma'noni beradi) mavjud bo'lib, belgi ifodalovchi so'zlar vositasida hosil qilingan. Bunday toponimlar, asosan, jamiyatga xos ijtimoiy-sotsial o'zgarishlar asosida yuzaga kelgan.

Shuningdek, *-lik* formanti *qiziltepalik, mang'itlik, toshrabotlik, urganjilik, kosagaronlik* nomlarida mansublik, tegishlilik ma'nolari mavjud. Tuman, shahar, qishloq kishilarining qayerdan ekanligi anglashiladi. *-lik* topoformantining, keyinchalik vaqtlar o'tishi bilan xalq og'zaki nutqida *-li* topoformanti shaklida aytilishi ham kuzatiladi: *Tavoisli, Qumrabotli*.

-*bon* komponentli toponimlar. Biror narsaga qarab turuvchi, qo‘riqllovchi shaxsni hamda faoliyat, egalik bilan bog‘liq otlarni yasaydi: bog‘/bon, qo‘ychi/bon, saroy/bon kabilar. -*bon* morfemasi -*von* shaklida ham ifodalanadi (b-v): darvoza/von, qo‘ychi/von. Hudud toponimiyasini o‘rganishda, mana shu shaklda hosil bo‘lgan joy nomlari mavjudligi aniqlangan. Masalan, kalet/von – kalit/bon.

Olib borilgan tadqiqotlardan shu narsa ma’lumki, qo‘yilgan nomlar o‘z manzil-makonini muqaddas bilishga, ilohiylashtirishga va uni asrab-avvaylashga sabab bo‘lgan. Bunday nomlar mahalliy aholining ma’naviy-madaniy qarashlarini o‘zida aks ettirgan bo‘lib, ular yordamida yer, suv, havo, hududning tabiati komponentlari muhofaza qilingan. Natijada geografik nomlar yordamida atrof-muhitga zarar yetmagan, aksincha, tabiiy boyliklardan oqilona va tejamli foydalanib kelingan. Bunday toponimlar xalqning farovon va tinch yashashi hamda aholi maskanlarining toza va obod bo‘lishiga xizmat qilgan. Bu kabi joy nomlari keng tarqalgan bo‘lib, “-(i)ston, “-zor”, “-kor”, “-obod” formantlari vositasida, P.N.G‘ulomov ta’biri bilan aytganda, “... ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlar, holatlar bilan bog‘liq vujudga kelgan toponimlar”dir [7;9]. Masalan, Guliston, Gulzor, Bunyodkor, Yangiobod, Dehqonobod, Obod Turmush, Manzilobod, Paxtaobod, Malikobod, Elobod, Rohobod (Ruhobod) kabilar.

Xulosa. Toponimik tizim har bir xalqning etnik va madaniy tarixini yorituvchi muhim manba sifatida alohida ilmiy e’tiborga loyiqdir. Etnik guruhlarining shakllanishi, ularning tarixiy rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati va hududiy joylashuvi haqidagi qator muhim ma’lumotlar aynan joy nomlarida o‘z ifodasini topadi. Shu jihatdan tuman toponimiyasini o‘rganish, bu nafaqat lingvistik tadqiqot, balki tarixiy-etnografik izlanish uchun ham ishonchli asos hisoblanadi.

Toponimlar orasida til qatlamlarining (o‘zbekcha, tojikcha, arabcha va boshqalar) o‘zaro ta’siri, leksik-semantik tizimdagi o‘zgarishlar, tarixiy ijtimoiy qatlamlar izlari ham aks etadi. Ayniqsa, apellyativ birliklarning toponimlashuvi, ko‘plik affikslari orqali jamoaviylik yoki etnik guruhga mansublik ifodalanishi ushbu hududdagi toponimik tizimning murakkab va boy tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatadi [8;9].

Qiziltepa tumanida uchraydigan joy nomlari orqali mazkur hududda yashovchi xalqlarning o‘zaro madaniy aloqalari, tarixiy ijtimoiy jarayonlari, etnolingvistik xususiyatlari haqida boy ilmiy xulosalar chiqarish mumkin. Demak, toponimlarni o‘rganish – bu faqat til hodisasini emas, balki xalq hayotining, uning o‘tmishi va hozirgi holatining ko‘zgusini tahlil qilishdir. Shu sababli tuman toponimiyasining izchil o‘rganilishi - zamonaviy lingvistika, tarix va etnologiyaning kesishgan nuqtasida turgan dolzarb va istiqbolli tadqiqot yo‘nalishidir.

Adabiyotlar:

1. Enazarov T.J. O'zbekiston toponimlari: lug'aviy asoslari va etimologik tadqiqi yo'llari: Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2006. – B.6-14.
2. Qudratov T., Nafasov T. Lingvistik tahlil. – Toshkent: O'qituvchi, 1981. – B. 5-6.
3. Жамсаранова Р.Г. Топонимия Восточного Забайкалья: Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Улан-Уде, 2002. – 157 с.
4. G'ulomov A., Tixonov A., Qo'ng'urov R. O'zbek tili morfem lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1977. – B. 405; 442.
5. Qorayev S. Toponimika. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy nashriyotii, 2006. – B.9.
6. A.Asqarov. O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixining ba'zi bir nazariy va ilmiy-metodologik masalalari // O'zbek xalqining kelib chiqishi: ilmiy-metodologik yondashuvlar, etnogenetik va etnik tarix. Respublika ilmiy-nazariy seminar materiallari. – Toshkent, 2004. – B.5-6.
7. G'ulomov P.N. Toponimlarning turlari va joy nomlarini rayonlashtirish haqida mulohazalar / O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 42-jild// Toponimika va umumgeografik masalalar/ Ilmiy maqolalar to'plami. – T., 2013. – B. 9.
8. Uktamovich, G.N. (2021). Research of the methodology of linguistic toponymy. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10 (6), 228-230.

**“Onomastika” xalqaro elektron ilmiy
jurnalida quyidagi ruknlar bo‘yicha maqolalar chop etiladi:**

- Davlat tili va onomastika;
- Tarixiy va zamonaviy onomastika bo‘yicha ilmiy tadqiqot natijalari;
- Onomastik lingvopoetika;
- Onomastikada imlo masalalari;
- Onomastika va neyming (brendologiya)
- Tarix, geografiya bo‘yicha onomastik ilmiy tadqiqot natijalari;
- Onomastik leksikografiya.

MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- Maqola 8 sahifadan kam bo‘lmasligi shart;
- Maqolalar o‘zbek, rus, ingliz tillarida qabul qilinadi;
- Maqolaning tarkibiy tuzilishi:
 1. Maqola sarlavhasi.
 2. Muallifning F.I.Sh. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma’lumotlar berilishi shart. Lavozimi, ilmiy unvoni, tashkilot, shahar, mamlakat va elektron pochta adresi to‘liq keltiriladi.
 3. Annotatsiya (maqolaning qisqacha mazmun va maqsadi, 90 so‘zdan kam bo‘lmasligi lozim) o‘zbek, rus, ingliz tillarida beriladi.
 4. Kalit so‘zlar o‘zbek, rus, ingliz tillarida (10-15 so‘zdan iborat bo‘lishi kerak).

Maqolaning tarkibiy qismi:

Kirish (Introduction)

Asosiy qism (Main part)

Natijalar va muhokama (Results and Discussions)

Xulosalar (Conclusions)

Adabiyotlar (References) – alifbo tartibida keltiriladi.

- Maqola Times New Roman shriftida, 14 kattalikda, 1,5 intervalda tayyorlanadi;
- maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim;
- maqolaga havola (snoska)lar [1, 2,...] ko‘rinishida va maqola so‘ngida adabiyot sifatida ko‘rsatilishi lozim;
- maqola tomonlari chap: 3 sm, o‘ng: 1,5 sm, yuqori va quyi: 2 sm;
- maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Anti plagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.

- tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo'lsa, barcha savol va e'tirozlar bo'yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari egasiga qaytarilmaydi.
- maqolada keltirilgan ma'lumot va dalillarning ilmiy asoslanganligi, ishonchli va ko'chirmachilik holatlari uchun muallif(lar) mas'uldir;
- jurnalning 1 ta sonida muallifning faqat 1 ta maqolasi chop etiladi;
- maqola so'ngida muallif(lar) telefon raqamini kiritishlari shart.

В научном международном журнале

“Ономастика” статьи будут изданы по следующим направлениям:

- Государственный язык и ономастика;
- Результаты научных исследований по исторической и современной ономастике;
- Ономастическая лингвопоэтика;
- Вопросы правописания в ономастике;
- Ономастика и нейминг (брендология)
- Результаты ономастических научных исследований по истории, географии;
- Ономастическая лексикография.

ТРЕБОВАНИЯ К ОФОРМЛЕНИЮ СТАТЕЙ:

- Статья должна предоставляться не менее 8 страниц;
- Статьи принимаются на узбекском, русском, английском языках;
- Структура статьи:
 1. Название статьи.
 2. Ф.И.О автора (необходимо писать полностью), если авторов несколько, необходимо предоставить полную информацию о каждом из них. Должность, ученое звание, организация, город, страна и адрес электронной почты указываются полностью.
 3. Аннотация (краткое содержание и цель статьи, не меньше 90 слов) дается на узбекском, русском, английском языках.
 4. Ключевые слова на узбекском, русском, английском языках (должны состоять из 10-15 слов).

Содержание статьи:

Введение

Главная часть

Результаты

Обсуждение

Выводы

Литература – перечисляются в алфавитном порядке.

Статьи оформляются в формате Times New Roman, размер шрифта 14, интервал 1,5;

- если в статью включены рисунки, таблицы, схемы, различные графические обозначения, то они должны быть четко и ясно описаны, должно быть написано полное расшифровывание сокращений;
- ссылки на использованные источники (сноски) приводятся после цитаты в квадратных скобках с указанием порядкового номера источника цитирования

[1,2,...]. Список литературы помещается в конце текста под заголовком «Литература»;

- оформление статьи слева 3 см, справа 1,5 см, сверху и снизу 2 см;
- не менее 70-80% текста статьи должно быть основано на результатах личного исследования автора. Присылаемые статьи проверяются с помощью системы «Антиплагиат».
- статьи, поступающие в редакцию, рецензируются редакцией. После возврата статьи с рецензирования при необходимости все вопросы и возражения передаются автору на обработку. Копии статей не возвращаются владельцу.
- автор(ы) несут ответственность за научную основу, достоверность и правдоподобие информации и доказательств, представленных в статье;
- в 1 номере журнала публикуется только 1 статья автора;
- автор(ы) должны указать свой номер телефона в конце статьи.

**Articles are published in the scientific
international journal “Onomastics” in the following areas:**

- State language and onomastics;
- The results of scientific research on historical and modern onomastics;
- Onomastic linguopoetics;
- Issues of spelling in onomastics;
- Onomastics and naming (brandology);
- Results of onomastic research in history, geography;
- Onomastic lexicography.

REQUIREMENTS FOR FORMING ARTICLES:

- The article must not be little from 8 pages;
- Articles are accepted in Uzbek, Russian, English;
- Article structure:
 1. Title of the article.
 2. Full name of the author (it is necessary to write in full), if there are several authors, it is necessary to provide full information about each of them. Position, academic title, organization, city, country and e-mail address are indicated in full.
 3. Abstract (brief content and purpose of the article, no more than 90 words) is given in Uzbek, Russian, English.
 4. Keywords in Uzbek, Russian, English (must consist of 10-15 words).

The content of the article:

Introduction

Main part

Results and discussion

Conclusion

Literature is listed in alphabetical order.

Articles are formatted as Times New Roman, font size 14, spacing 1.5;

- If the article includes figures, tables, diagrams, various graphic designations, then they should be clearly and clearly described, a full decoding of abbreviations should be written;
- References to the sources used (footnotes) are given after the quotation in square brackets, indicating the ordinal number of the citation source [1,2,...]. The list of references is placed at the end of the text under the heading "Literature";
- Design of the article on the left 3 cm, on the right 1.5 cm, top and bottom 2 cm;

- At least 70-80% of the text of the article should be based on the results of the author's personal research. Submitted articles are checked using the system of "Antiplagiat".
- Articles submitted to the editors are reviewed by the editors. After the article is returned from review, if necessary, all questions and objections are transferred to the author for processing. Copies of articles are not returned to the owner.
- The author(s) are responsible for the scientific basis, reliability and credibility of the information and evidence presented in the article;
- Only one article of the author is published in 1st issue of the journal;
- The author(s) must include their phone number at the end of the article.

